ISSN: 2181-3035



Buxoro shahridagi Sitorai Mohi Xossa yodgorligi

TALQIN VA TADQIQOTLAR

№ 14

Respublika ilmiy-uslubiy jurnali

Google Scholar | Cyberleninka | Zenodo | Advanced sciences index | Open AIRE

15.12.2022

@TALQINVATADQIQOTLAR

Aniq fanlar	Texnika fanlari	Pedagogika fanlari	Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tabiiy fanlar	Iqtisod fanlari	Arxitektura	San'at va madaniyat fanlari
Tibbiyot fanlari	Filologiya fanlari	Qishloq xo'jaligi	Jismoniy tarbiya va sport

(+99891-152-93-14) talqin@bk.ru www.talqinvatadqiqotlar.uz

TALQIN VA TADQIQOTLAR

RESPUBLIKA
ILMIY - USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

14-son 1-qism
15.12.2022

Talqin va tadqiqotlar

ilmiy-uslubiy jurnal

scientific-methodical journal

научно-методический журнал

Bosh muharrir:
I.I.Abdumannonov

Mas’ul muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda ikki marta chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2022- yil 12 - fevralda 1540 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

ISSN 2181 - 3035

Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: www.talqinvatadqiqotlar.uz

Tahrir kengashi:

Qo‘ldashev Sherali Temiraliyevich
O‘z FA Sharqshunoslik instituti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich
Xo‘jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)
Muydinov Erkin Djamaldinovich
Toshkent Moliya Instituti Andijon fakulteti dekani Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Mamatov Obidxon Vaqqosovich
Namangan davlat universiteti “Milliy g'oya, ma‘naviyat va huquq asoslari” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi
Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Zokirov Sanjar Ikromjon o’g’li
Farg’ona politexnika institutining “Intellektual muhandiislik tizimlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Jo‘rayeva Sobira Eshqurbonovna
O‘zMU jurnalistika fakulteti, o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Ubaydullayev Farxod Baxtiyarullayevich
Toshkent davlat agrar universiteti "O‘rmonchilik va landshaft dizayn” kafedrasi dotsenti
Umarova Maxliyo Yunusovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Raximova Zuxraxon Maxmudovna
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Bazarov Otabek Odilovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna
Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o‘qitish metodikasi katta o‘qituvchisi
Rahimova Maftuna Odilovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti
Djumaniyozova Enajon Kutimovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Urazmetova Shoira Azatbayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Urganch filiali o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Jo‘rayeva Dilnoza Shokirjonovna
Termiz davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY AXLOQIY TARBIYALASHNING MAZMUNI

Axmedov Denis Viktorovich
Xonqa tumani 45-son o‘rta ta’lim maktabi
Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo'yicha direktor o‘rinbosari
Boltayeva Shahnoza Qadam qizi
Xonqa tumani 45-son o‘rta ta’lim maktabi
ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ‘ibotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7406452

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmun-mohiyati haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tizimi, tarbiya, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, aqliy tarbiya, mehnat tarbiyasi, Intellektual ring.

Hozirgi davrda texnika va texnologiyalar rivojlanishini yuksak bosqichga ko‘tarish uchun ishlab chiqarishni keng ko‘lamda kompyuterlashtirish, iste'mol mahsulotlarini jahon standartlari darajasida ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish talab etilmoqda. Bularning barchasi yuksak intellektual va jismoniy kamolotga ega bo‘lish, ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy asoslaridan to‘laqonli xabardor bo‘lish, mehnatga ongli, ijodiy munosabatda bo‘ladigan yoshlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, ta'lim muassasalarida mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishga nisbatan ulkan talablarni qo‘yadi. Mehnat tarbiyasining maqsadi o‘quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo‘lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:

- ❖ yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;
- ❖ o‘quvchilarda umumjamiyat manfaati yo‘lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;
- ❖ ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- ❖ o‘quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
- ❖ ularda mehnat ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish;
- ❖ o‘quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, hayotiy faoliyat yo‘nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;

Mazkur vazifalar tizimida o‘quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlash ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarning aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi bilan o‘zaro bog‘lik holda yaxlit tizimda amalga oshiriladi. ***Chunonchi:***

1. Aqliy tarbiya o‘quvchilar mehnat tarbiyasi, ularni kasbga tayyorlashning asosi sanaladi. Zero, mehnat – nazariy va amaliy bilimlarni egallashga yordam beradi, bilim esa o‘z navbatida shaxsni mehnatga tayyorlashni takomillashtiradi. Mehnat tarbiyasining samaradorligi o‘quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasi bilan belgilanadi.
2. Mehnat tarbiyasi axloqiy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Chunki mehnat faoliyati yordamida o‘quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, irodalilik, tashabbuskorlik, mustaqil harakat qilish kabi axloqiy xislatlar ham shakllanadi.
3. Mehnat tarbiyasi estetik tarbiya bilan mustahkam aloqada olib boriladi. Mehnat tarbiyasi mazmuniga estetik elementlarni singdirish asosida uni amalga oshirish o‘quvchilar mehnat tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Mehnatda go‘zallik va o‘z mehnatidan zavqlanish uning yanada samarali kechishiga yordam beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, o‘quvchilar mehnat tarbiyasida quyidagi mezonlarni asos qilib olish maqsadga muvoifq. Bular:

- o‘quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyatini tushunilishi;
- ularning ixtiyoriy ravishda mehnat qilishlari;
- ularda mehnat qilmay hayot kechiruvchilarga nisbatan nafrat uyg‘otish;
- o‘quvchilarda mehnat va mehnat ahliga hurmat tuyg‘ularini qaror toptirish;
- ularda mehnatda javobgarlikni his etish tuyg‘usini tarbiyalash;
- ularning mehnatga ongli munosabatda bo‘lishlariga erishish;
- mehnatda ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash;
- o‘quvchilarda jamiyat va umumxalq mulkini ko‘z qorachig‘iday asrash tuyg‘ularini shakllantirish;
- mehnatda do‘stlik, o‘rtoqlik va hamkorlikka erishish;
- o‘quvchilarning mehnatni go‘zallik manbai sifatida tushunishlariga erishish va boshqalar.

Yuqoridagi mezonlar asosida o‘quvchilarni bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini barcha ta'lim-tarbiya ishlarini mustahkam aloqada, hozirgi zamon talablariga mos holda olib borish taqozo etiladi. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo‘lib yetishishi, kasb-hunar o‘rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug‘lash masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlar va xalq ogʻzaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qoʻshiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini oʻzlashtirish muhim hayotiy zarur ekanligi ta'kidlanadi.

Oʻquvchilarni darsga qiziqtirish darslarni naqadar qiziqarli, mazmunli, tushunarli va qolaversa, materiallarning rang – barang boʻlishlariga bogʻliqdir. Musiqa asarlar, turfa tusdagi koʻrgazmali qurollar, musiqa haqidagi qiziqarli fakt va ma’lumotlarga boy boʻlgan, boshidan oxirigacha sust boʻlmagan sur’atda tashkil qilinadigan darslar oʻquvchilarda katta taassurot qoldiradi.

Musiqa ijodkorligi faoliyati bolalarda musiqiy tafakkur, izlanish va ijodkorlik malakasini oʻstira borish uchun katta ahamiyatga egadir. Musiqa darslarida oʻquvchilarni izlanishning eng qulay usullaridan biri musiqa mashgʻulotlarida ijro va qiyoslash metodidan foydalanish boʻlib, u quyidagicha amalga oshiriladi. Buning uchun musiqa oʻqituvchisi musiqa darslarini oʻquvchi tarbiyasiga ta’sirini hisobga olgan holda shartli ravishda guruhlarga ajratish zarur. Musiqa darslarini guruhlashtiruvda oʻquvchining musiqa foniga munosabati inobatga olinishi shart. Mana shu nuqtai nazardan yondashilsa, darsning tarkibiy qismi: musiqa tinglash, keyin musiqa savodxonligi ham ijro va taqqoslashdan iborat boʻladi. Ayniqsa darsning ijro va qiyoslash bosqichida oʻquvchining oʻtilgan mavzusi yuzasidan bilimlari tekshiriladi. Asar ijrosi oʻquvchi tomonidan amalga oshiriladi. Oʻquvchi ijrosi namunadagi ijro bilan taqqoslanib, uning yutuq va kamchiliklari tahlil qilinmogʻi zarur. Musiqa ta’limiga bu usulda yondashish bilim oluvchini oʻz ustida mustaqil ishlashga, oʻrganayotgan asar yuzasidan mustaqil fikrlashga, musiqiy asar ijrosiga ijodiy yondashishga undaydi. Musiqa ijodkorligi faoliyati sinfdagi iqtidorli va iste’dodli oʻquvchilarga e’tiborni kuchaytirish, ularning badiiy ehtiyojini qondirish uchun juda muhimdir. Iste’dodning oʻz vaqtida namoyon boʻlishi tarbiyaga va qoʻllab – quvvatlashga bogʻliqdir. Yoshlar iste’dodining namoyon boʻlishiga qobiliyatlarni aniq tahlil etish, bolaning oʻziga xos fazilatlarini hisobga olish ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalag oshirish uchun zarur. Qobiliyattlarni rivojlantirishning daraja va bosqichlari yangicha munosabatlar bilan bogʻliq boʻladi.

Tarbiyaviy tadbirlar rejasini ishlab chiqish, tadbirlarni tashkil etishda ma'naviyat, axloq inson ongining shakli, inson madaniyatining bir qismi ekanligi haqidagi tushunga ega boʻlish nazarda tutiladi. Ma'naviyat va axloqning mohiyati, uning me'yorlari va tamoyillari mazmunini tushunish oʻquvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan fikr yuritishlariga imkon beradi. Natijada ular oʻzlari va boshqalarning xatti-harakatlarini ana shu nuqtai nazardan baholaydilar. Ma'naviy-axloqiy tushunchalar, baholash va muhokama yuritish asosida ma'naviy-axloqiy e'tiqod shakllanadi va nihoyat inson xatti-harakati va xulqi aniqlanadi. Ma'naviy-axloqiy e'tiqodga ega inson axloqiy me'yorlar, talablarni ongli bajaradi va ularga hurmat bildiradi. Lekin

ma'naviy-axloqiy me'yorlar haqida bilimga ega bo‘lish va uni tushunish hali e'tiqodni faoliyatga aylantiradi degan gap emas, ma'naviy-axloqiy bilimlar qachon hayotiy tajribalarda qo‘llanilib, o‘quvchilar tomonidan ularning faoliyatida namoyon bo‘lgandagina shakllangan deyish mumkin.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg‘ular inson tomonidan, uning hovea-hodisalar, kishilar hamda o‘z xulqiga nisbatan his-tuyg‘ularni uyg‘otishga rag‘bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko‘ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag‘bat bilan hosil bo‘ladigan faoliyat eng asosiy bo‘lib hisoblanadi.

Shuningdek, o‘quvchida ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo‘lishi shart. Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo‘ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o‘quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o‘rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir.

Xatti-harakatlar tizimi ma'naviy-axloqiy odatlarni tarkib toptiradi. Bu borada quyidagi talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ma'naviy-axloqiy tarbiya axloqsizlikka qarshi kurashdagi «kompaniya»ga aylanmay, maqsadga muvofiq, uzluksiz, tizimli va izchil amalga oshirilishi zarur;
- o‘quvchilarda ma'naviy-axloqiy xislatlar va fazilatlarni tarbiyalash faol hayotiy vaziyatlar, axloqiy me'yorlar buzilgan holatlarda tarbiyalanuvchilarning o‘z nuqati nazarlarini ifodalashlari bilan amalga oshirilishi;
- shaxsda o‘z idealiga intilishiga bo‘lgan his-tuyg‘ularini uyg‘otishga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarni tashkil etish borasidagi ko‘nikmalarni tarbiyalash;
- ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir ishlarni tarbiyalanuvchilarning tajribasi, tarbiya qoidalarini qabul qilishlari va bunga tayyorliklari, yaxshi va yomon xatti-harakatlarning mohiyatini tushunishlarini hisobga olgan holda amalga oshirish;
- tarbiyalanuvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar – insoniylik, insonga hurmat, mehr-saxovat, xushmuomalalik, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda muomala madaniyati va axloq qoidalariga rioya qilish kabi holatlarni tarkib toptirish;
- fuqarolik madaniyati, ongli intizom, jamoani hurmat qilish va boshqa juda ko‘p ma'naviy-axloqiy sifatlar – boshqlarga g‘amxo‘rlik qilish, odamlarning g‘am-tashvishi, quvonchini tushuna olish, o‘z manfaatidan o‘zgalar manfaatlarini ustun qo‘yish, axloqiy me'yorlar hamda mavjud qonunlarga zid xatti-harakatlarni to‘xtataolish, ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishda jamoa a'zolarining fikri bilan o‘rtoqlashish, mas'uliyatni his etish kabilarga asoslanishi kerak.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda o‘quvchilar xatti-harakatlarida ko‘zga tashlanadigan salbiy odatlar – jamoa joylarida qattiq gapirish, ko‘pol so‘zlarni

ishlatish, hissiyotga berilish, o‘ylamay gapirish, ishonli bo‘lmagan hamda, dalillar bilan tasdiqlanmagan voqyea-hodisalar haqida fikr yuritish, boshqalarning suhbatini bo‘lish, qo‘lini silkitib gapirish kabilarning bartaraf etib borilishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Arzimas bo‘lib ko‘ringan, lekin shaxsning kelajak hayot va ksbiy faoliyatni tashkil etishda, muvaffaqiyatga ega bo‘lish yo‘lida, zarurli bo‘lgan bu kabi odatlardan holi bo‘lishda o‘quvchilrga yordam ko‘rsatish o‘qituvchilarning muhim vazifalaridan sanaladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari, shakl va metodlari. Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yohud axloq» asarida axloq «insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur», - deydi. Aynan axloq, uning ijtimoiy ahamiyati haqida ma'lumot beruvchi mazkur manbada alloma yaxshi va yomon xulqlarga to‘xtalib o‘tadi[53]. Allomaning nuqati nazaricha, yaxshi xulqlar quyidagilardan iborat: fatonat (aql), diyonat (e'tiqod), nazofat (poklik va tozalik), g‘ayrat, riyozat (savob ishlar), qanoat, shifoat, ilm, sabr, hilm (yumshoq tabiat) intizom, nafs me'yori, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison (til va adabiyot), iqtisod, viqor (g‘urur), muhabbat, avf (kechirimli bo‘lish). Bu xislatlar ma'naviy-axloqlilikning asosiy sifatlari sanaladi. Ular asosida Vatanga muhabbat va sadoqat, mehnatga axloqiy munosabat, o‘z atrofdagilarga axloqiy yondashuv, shuningdek, har bir o‘quvchining o‘zi va shaxsiy xulq-atvoriga munosabatni qaror toptiriladi.

Abdulla Avlniy yomon xulqlar sirasiga quyidagilarni kiritadi: g‘azab, aysh-ishrat, jaholat, safohat (umri va molini bekorchi narsalarga sarf etish), hamoqat (o‘zbilarmonlik, manmanlik), adolat (dangasa, yalqov), hasosat (ta'ma, hirs), rahovat (g‘ayratsizlik), anoniyyat (xudbin, mutakabbir, manman), adovat (kek saqlash), namimat (chaqimchilik), g‘iybat, haqorat, jibonat (qo‘rqoqlik), hasad, kizb (yolg‘on), nifoq, ta'ma, zulm va boshqalar.

O‘quvchilarda ijobiy sifatlarni tarbiyalash ularning salbiy xislatlardan holi bo‘lishlariga yordam beradi. Bu esa dastlab o‘quvchilarga xulq-odob me'yorlari va qoidalarini anglash va shaxs ongini shakllantirishga doir metodlar asosida amalga oshiriladi.

Xulosa. Nafosat tarbiyasi «badiiy tarbiya» sifatida ham qo‘llaniladi. Umuman, nafosat tarbiyasi keng ma'noga ega bo‘lib, faqat san'at vositasidagina emas, balki, hayot, mehnat, ijtimoiy munosabatlar, tabiat va boshqalar vositasida go‘zallikni his qilishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni o‘z ichiga oladi. Badiiy tarbiya esa san'at (adabiyot, musiqa, qo‘shiq, tasviriy va san'atning boshqa yo‘nalishlari) vositasida shaxsda estetik his-tuyg‘ularni shakllantirishni nazarda tutadi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – Toshkent, O‘zbekiston, 2000.
2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. – Toshkent, O‘zbekiston, 2000.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent, O‘qituvchi, 1992.
4. Pedagogika. Munavvarov A.g‘.ning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, O‘qituvchi, 1996.
5. Podlaso‘y I.P. Pedagogika. Novo‘y kurs. Kn. 2. Protsess vospitaniya. – Moskva, VLADOS, 1999.
6. Almetov N.Sh. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – Almata, 2001.

UMUMMILLIY BOYLIKLAR DAVLAT MUHOFAZASIDA

Nazarov Elbek Alimovich
Toshkent davlat agrar universiteti
gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Ne’matov Nursulton Shavkat o‘g‘li
Toshkent davlat agrar universiteti yurisprudensiya yo‘nalishi
1-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7410910

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 30 yilligi munosabati bilan umummilliy boyliklarning davlat muhofazasida ekanligi, shuningdek, konstitutsiyaning davlat taraqqiyotida tutgan o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

Annotation: This article discusses the lexical meaning of the word “constitution” in connection with the 30th anniversary of Constitution of the Republic of Uzbekistan, the role of the constitution in the development of the state.

Kalit so‘zlar: konstitutsiya, davlat, fuqaro, asosiy qonun, huquq, erkinlik, umummilliy boyliklar, yer, suv.

Key words: constitution, state, citizen, basic law, freedom, social relations, the earth, water.

Har qanday demokratik davlatda nafaqat fuqarolarning huquq va erkinliklari, balki, barcha ijtimoiy munosabatlar konstitutsiya deb atalmish asosiy qonun bilan tartibga solinadi. 1992-yil 8-dekabr sanasi mana shunday muhim qonun qabul qilingan kun sifatida O‘zbekiston Respublikasi tarixida muhrlanib qolgan. Bu yil ushbu qutlug‘ sananing 30 yilligini keng nishonlaymiz.

Qayerdaki xalq manfaatlari hamma narsadan ustun tursa, o‘sha yerda insonlar baxtli va farovon hayot kechiradilar. Bugungi kunda mamlakatimizda Konstitutsiyamiz asosida qabul qilinayotgan qonunlar hamda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning maqsadi ham aynan xalqimiz turmush darajasini yanada yaxshilashga, ularning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, Yangi O‘zbekiston fuqarolari uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. O‘z haq-huquqlarini yaxshi bilgan va berilgan imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalana olgan inson bugungi kunda maqsadlariga hech qiyinchiliksiz erishishi mumkin.

Mana, mustaqillikni qo‘lga kiritganimizga ham o‘ttiz yil to‘ldi. O‘ttiz yil – tarix uchun bir lahza, xolos. Shu qisqa davrda jonajon O‘zbekistonimiz mustaqil va suveren davlat sifatida shakllanib, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egalladi, tom

ma’noda ulkan taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Ana shu mashaqqatli va sharafli yo‘lda erishgan barcha yutuqlarimizni, eng avvalo, Konstitutsiyamiz bilan bog‘lashimiz, albatta, bejiz emas. Nega deganda, Asosiy qonunimiz xalqimiz uzoq yillar orzu qilgan milliy mustaqilligimiz va rivojlanish yo‘limiz, inson huquq va erkinliklari kafolatlarini belgilab berdi.

Konstitutsiyamizni varaqlar ekanmiz, unda ekologik normalar, ya’ni atrof-muhit, umummilliy boyliklar ham davlat tomonidan muhofaza qilinishi belgilangan moddalarga ko‘zimiz tushadi. Jumladan, Konstitutsiyamizning ***55-moddasida: «Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir»,*** - deb belgilangan. Umummilliy boyliklar, eng avvalo, inson qo‘li bilan yaratilmagan, tabiat bilan, ona zamin - yer bilan bog‘liq manbalardir, ular jonli mavjudot yashashi uchun zarur birlamchi qiymatlardir. Ularsiz hayot bo‘lmasligi mumkin.

Hozirda butun dunyoda tabiatga nooqilona munosabat natijasida atrof-muhitga nisbatan ekologik tahdid va xavf-xatarlarning salbiy ta’siri keskin oshib bormoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, insoniyat faoliyatining ta’siri o‘laroq Yer kurrasining 75 foiz maydoni butunlay o‘zgargan. Oqibatda o‘simlik va hayvonot dunyosining 1 million turi yo‘qolib ketish arafasida. Ekologik muammolarning keskinlashuvi insoniyat hayoti va kelajagiga real xavf tug‘dirmoqda. Shuning uchun ham BMT tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha bo‘lgan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlarining 10 tasi dunyo ekotizimi va atrof-muhitga aloqador ekanligi ham tabiatni muhofaza qilishning naqadar muhim jarayonga aylanganidan dalolat beradi. Ekologik muammolar bilan kurashish nafaqat global va mintaqaviy, balki milliy miqyosdagi kompleks sa’y-harakatlarni talab etadi.

Shuning uchun ham Konstitutsiyamizda «Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdir», - degan asosiy burch belgilab qo‘yilgan. Umummilliy boyliklar, qonunga asosan, ommaviy mulk shakliga kiritilgan. Ommaviy mulkning respublika mulki hisoblanuvchi mulklar qatorida umummilliy boyliklar mulk obyekti sifatida belgilangan. Fuqarolik kodeksining 214-moddasi respublika mulki obyektlarini belgilar ekan, ular qatoriga: yer osti boyliklari, suv, havo bo‘shliqlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklarni kiritgan. Umummilliy boylik hisoblanuvchi har bir obyekt alohida maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi va muhofaza qilinadi. Masalan, 0 ‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi yerdan foydalanish, muhofaza qilish tartiblarini o'rnatgan. Uning 1-moddasida: «Yer umummilliy boylikdir, O‘zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi», - deb belgilangan. Shu moddaning o‘zida yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifasi yerdan foydalanishni, yerlarni

muhofaza qilishni belgilash ekanligi ko‘rsatilgan. Qonunning XI bobi yerni muhofaza qilishga bag‘ishlangan bo‘lsa, 90-moddasi, yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik belgilanishini mustahkamlagan. Umummilliy boylik hisoblanuvchi boshqa obyektlar to‘g‘risida ham maxsus qonunlar mavjud. Bundan tashqari, umummilliy boyliklardan noto‘g‘ri foydalanish, ularga zarar yetkazganlik uchun ma’muriy, jinoiy javobgarliklar belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida «Tabiiy resurslarga egalik huquqini buzish» (60-modda), «Yerlardan xo‘jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holga tushirish» (65-modda), «Yer berish tartibini buzish» (66-modda), «Yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish talablarini buzish» (70-modda), «Suv zaxiralarini muhofaza qilish qoidalarini buzish» (72-modda), «Suvdan foydalanish va suv iste’moli qoidalarini buzish» (74-modda), « O‘rmon fondi yerlaridan foydalanish qoidalarini buzish» (77-modda), «Qizil kitobga kiritilgan o‘simliklarni yig‘ish» (81-modda «O‘rmon uchun foydali faunani yo‘q qilib yuborish» (83-modda), «Ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarning atmosfera havosiga chiqarib tashlash, unga zararli fizikaviy ta’sir ko‘rsatish yoki atmosfera havosidan belgilangan talablarni buzgan holda foydalanish» (86-modda) uchun va 90, 92, 93, 94-moddalarda hayvonot dunyosiga zarar keltirganlik uchun ma’muriy jazolar belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining Maxsus qismi 4-bo‘limi «Ekologiya sohasidagi jinoyatlar», 14-bobi «Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar» deb nomlanib, undagi moddalarda umummilliy boyliklardan foydalanish tartibini buzganlik, ularga zarar yetkazganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Konstitutsiyada ekologik-huquqiy normalarning o‘z aksini topishi Yangi O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash sifatida fuqarolarning ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlashga, aholining qulay tabiiy muhitda hayot kechirishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishga, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishga hamda ekologik muammolarning oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2012.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston, 2000-2005.
3. Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va barkamol jamiyat orzusi. – T.: Oqituvchi, 2012.
4. O.T. Husanov.Konstitutsiyaviy huquq. T.: 2022
5. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz.

TEACHING THE SCIENCE OF "INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION" IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ON THE BASIS OF SMART TECHNOLOGIES

Ўринбоев Зокир Мавлонович
Самарқанд давлат университети тянч докторанти
zokirurinboyev@mail.com
Tel: +99894-537-58-95
пед.ф.д. **Махмудова Д.М** тақризи асосида
https://doi.org/10.5281/zenodo.7410925

Abstract: In the educational system of developed countries in the world, including the USA, South Korea, Japan, France, and Russia, informationization of the educational system, introduction of multimedia didactic tools and SMART technologies into the educational process are among the main priorities. In particular, the period until 2030 adopted by international organizations and developed countries recognizes education as the main driving force of development and an important activity leading to the goals of sustainable development in the new concept of education.

Key words: SMART, education, information, electronic, multimedia, personnel, scientific, interactive, intelligent, modern.

ПРЕПОДАВАНИЕ НАУКИ «ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ» В ВУЗАХ НА ОСНОВЕ SMART-ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация: В системе образования развитых стран мира, в том числе США, Южной Кореи, Японии, Франции и России, информатизация системы образования, внедрение в учебный процесс мультимедийных дидактических средств и SMART-технологий являются одними из основных приоритетов. В частности, период до 2030 года, принятый международными организациями и развитыми странами, признает образование главной движущей силой развития и важной деятельностью, ведущей к целям устойчивого развития в новой концепции образования.

Ключевые слова: SMART, образование, информационная, электронная, мультимедийная, кадровая, научная, интерактивная, интеллектуальная, современная.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА “ТАЪЛИМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ” ФАНИНИ SMART ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ЎҚИТИШ

Аннотация: Жахонда ривожланган мамлакатлари таълим тизимида, жумладан АҚШ, Жанубий Корея, Япония, Франция, Россияларда таълим тизимини ахборотлаштириш, таълим-тарбия жараёнига мультимедиали дидактик воситалар ва SMART технологияларни жорий этиш асосий устувор йўналишлардан ҳисобланади. Жумладан, халқаро ташкилотлар ва ривожланган давлатлар томонидан қабул қилинган 2030 йилгача бўлган давр янги таълим концепциясида таълим – тараққиётнинг асосий ҳаракатлантирувчи кучи ва барқарор ривожланиш мақсадларига етакловчи муҳим фаолият сифатида эътироф этилган

Калит сўзлар: SMART, таьлим, ахборот, электрон, мультимедиа, кадрлар, илмий, интерактив, ақлли, замонавий.

Кириш. Хорижий мамлакатларда таълимни ахборотлаштириш асосида виртуал таълим технологиялари, электрон ресурслар, мультимедиали электрон ўқув мажмуалардан ўқув жараёнида кенг фойдаланилмоқда. Бинобарин, SMART технологиялардан таълим жараёнида фойдаланган ҳолда малакали ва замонавий мутахассислар тайёрлаш, шу жумладан таълимда ахборот технологиялари ўқитувчиларини тайёрлашда муҳим ўрин тутади. Хозирги вақда олий таълим муассасалари учун турли ҳолдаги кўргазмали материаллар, компьютер технологиялари асосида ўқитишга мўлжалланган электрон ресурслар, шу жумладан SMART технологиялардан фойдаланиш тез суръатлар билан ривожланиб бормоқда.

Республикамиз олий таълим муассасаларида “Таълимда ахборот технологиялари” фанини ўқитиш тизимини такомиллаштириш бўйича бир қанча педагогик тадқиқотлар мавжуд. Аммо, “Таълимда ахборот технологиялари” фанидан олий таълим муассасалари учун SMART технологияларни яратишнинг асосий компонентларини тўлиқ қамраб оладиган тизимли тадқиқотга эҳтиёж мавжуд. Шу маънода, республикамиз олий таълим муассасалари учун SMART технологияларни яратишнинг мазмунини такомиллаштиришни ва мавжуд ўқитиш методикаси ҳамда технологияларини қайта кўриб чиқишни тақоза этади.

- **Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review).** Ўқув жараёнида ахбороткоммуникация технологияларидан фойдаланишнинг назарий-методик асослари, электрон ахборот-таълим ресурсларини яратиш ва

таълим жараёнида қўллаш бўйича республикамизда А.А.Абдуқодиров[11], М.М.Арипов, У.Ш.Бегимқулов[23-28], Ф.М.Закирова[43], М.Х.Лутфиллаев[57],

Мустақил Ҳамдўстлик Мамлакатларида ушбу соҳада А.А.Антоников, Л.М.Ивкина, А.Ю.Михайлишин, Ю.А.Горохова, Н.Г.Сабитова, А.Е.Сатуниналар;

Мавжуд назарий манбаларнинг таҳлили бўлажак физика ўқитувчиларини тайёрлаш жараёнида таълимда ахборот технологиялари фанини SMART-технологиялар ёрдамида интеграциялашган ўқув муҳитида ўқитиш методларини такомиллаштириш педагогик муаммо сифатида ўрганилмаганлигини кўрсатмоқда.

- **Тадқиқот методологияси (Research Methodology).** SMART технологиялар жамиятнинг фаолиятини таъминлаш учун зарур технология ҳисобланади. SMART-технологиялар меҳнатни ақлли ва инновацион бошқарув стратегиясига айлантиришни назарда тутади. Бу эса мослашувчанлик ва индивидуалликка асосланган, инсон қадр-қимматини биринчи ўринга қўядиган янги жамиятга ўтиш учун зарур.

Ижодий ҳамда креатив салоҳиятга эга бўлган, ўзгараётган дунёда ишлаш ва фикрлашга қодир кадрлар тайёрлаш бугунги куннинг энг муҳим масаласи ҳисобланади ва SMART-таълим тизимини жорий қилишга олиб келмоқда. Бу масаланинг негизида ахборот маданиятига эга бўлган, керакли маълумотни тез ва самарали излаб топиш ва фойдаланиш қобилиятининг мажбурий талабга айланиши ётади. Ўз-ўзидан ижтимоий тармоқларда, электрон манбаларда ишлашда амалий кўникмага эга бўлмаган, шахсий билимлар базасини тузишни билмайдиган мутахассисга эҳтиёж йўқолади, ҳамда SMART таълим ривожланади[123].

А.А.Абдуқодиров[11]нинг таъкидлашича: SMART таълим – моҳият жиҳатдан янги таълим муҳитидир; бутун жаҳон билимларни фойдаланиш ва пассив контентдан фаол контентга ўтиш учун ўқитувчи, мутахассис ва талабаларнинг кучларини, яъни таълим фаолиятини бирлаштиришдир. SMART-таълим – инновациялар ва интернетдан фойдаланиш асосида ташкил этилган таълим жараёнидир; у тизимли кўп ўлчовли кўриш ва кўп аспектлилиги ва янгиланишининг узлуксизлигини эътиборга олган ҳолда предметларни ўрганиш асосида касбий компетенциялар эгаллашга имконият беради. Биз ўз тадқиқотларимизда А.А.Абдуқодировнинг ушбу фикрини SMART таълим учун ишчи таъриф сифатида қабул қилдик[11]. Бизнинг нуқтаи назаримизча педагогика олий таълим муассасаларида бўлажак физика ўқитувчиларини тайёрлашда SMART технологиялар асосида таълимда ахборот технологиялари фанини ўқитиш муҳим ўринга эга.

SMART таълим ёки “ақлли” таълим - бу интерактив таълим муҳитида ҳамма учун очиқ бўлган контентдан дунёнинг исталган нуқтасидан туриб фойдаланиш имконини берувчи мослашувчан таълим [68].

“Ақлли” таълим ўқитувчи олдига янги вазифалар қўяди. Ўқитувчи нафақат ўз касби бўйича профессионал бўлиши, балки катта ҳажмдаги ахборот, билим, ресурсларни билиши ва талабалар билан ишлашда турли технологиялардан фойдалана олиши зарур. Шу билан бирга, ақлли таълим ўқитувчиларга тажриба ва ғоялар билан бўлишиш, кўпроқ илмий тадқиқот билан шуғулланиш, талабанинг вазифаси ва малакасига қараб курсни индивидуаллаштириш, контентни нолдан яратиш ўрнига мавжуд бўлган маълумотлардан фойдаланиш ҳисобига вақтни тежаш каби янги имкониятларни очиб беради.

- Таҳлил ва натижалар (Analysis and results). Н.И.Тайлақовнинг “Узлуксиз таълим тизими учун ўқув адабиётлари янги авлодини яратишнинг педагогик асослари (Информатика курси мисолида)” мавзусидаги тадқиқот ишида ўқув адабиётлари, шу жумладан, электрон ўқув адабиётлари янги авлодини яратишга қўйиладиган педагогик талаблар, мезонлар, ўқув адабиётларининг тузилиши, шакллари ва турлари бир бутун яхлит тизим сифатида илмий-педагогик таҳлил этилган [96-102].

Н.И.Тайлақов, Н.Р. Рустамов томонидан олий ўқув юртлари учун “Информатика” курси бўйича яратилган электрон ресурс ҳам келтирилган маълумотларнинг овоз ва турли анимациялар билан уйғунлиги, асосий атамалар ва негизларга гипермурожаат мавжудлиги ва бошқа кўрсаткичлари билан аҳамиятлидир [98].

Юқоридаги таҳлиллар натижаси шуни кўрсатдики, SMART технологиялар орқали фойдаланиладиган электрон ресурслар алоҳида ўрин эгаллайди, оддий ресурсдан қуйидаги хусусиятлари билан тубдан фарқ қилади:

- ўқитувчига энг яқин услубий ёрдам кўрсатувчи восита;
- фаннинг ҳар бир бобига, мавзусига тегишли назарий ва амалий маълумотлар, лаборатория машғулотлари кабиларни овозли кўргазмали воситалар орқали кўрсатиш имкониятларининг мавжудлиги;
- турли маълумотларнинг ҳаракатда намоён бўлиши;
- фанга оид амалий дастурлар мавжудлиги;
- фанга оид тест саволлари, топшириқлар, дам олиш ўйинларининг мавжудлиги;
- маълумотларнинг ихчамлиги;
- қисқа вақт ичида кўп маълумот бериш имкониятининг мавжудлиги;
- талабаларнинг ўзлаштириш самарадорлигини юқори бўлиши.

SMART технологиялардан фойдаланий мураккаб жараён бўлиб, у узоқ вақтни талаб қилмайди. SMART технологияларга таълим жараёнида катта

эҳтиёж сезилаётган ҳозирги кунда ҳар бир предмет, курс учун бундай SMART компьютер ва планшетларга мўлжалланган дастурий воситаларни яратиш давр талабига айланди.

Замонавий ўқитиш жараёнида SMART технологиясидан фойдаланишга катта аҳамият берилмоқда, бинобарин SMART технологиялари ўқитишда самарали бўлиб, ўқитиш сифатини оширишга хизмат қилади. Ўқув жараёнида SMART компьютер ва планшетлардан ўринли фойдаланиш муваффақиятли натижаларга олиб келади.

SMART технологиялар орқали фойдаланиладиган электрон ресурсларнинг афзалликларидан бири мустақил таълим олишни, ижодий фикрлашни, кўникма ва малакаларни шакллантириш орқали ўқув материаллари ва илмий маълумотларни ҳар томонлама чуқур ўзлаштирилишига мўлжалланган-лигидадир. Шунингдек, ушбу турдаги қўлланмалар илмий маълумотларнинг жамланганлиги, таълим олувчиларнинг ёши ва физиологик хусусиятларини ҳисобга олиниши жиҳатидан анъанавий ўқув қўлланмаларидан афзалроқдир.

SMART технологиялар ёрдамида фойдаланиладиган электрон қўлланмада матнлар жозибали, таъсирли шаклда баён этилади, асосий тушунча ва таърифлар аниқ ва равшан ёзилади, шу билан бир қаторда фойдаланувчиларнинг билимларини назорат қилиш имкониятига эгадир.

Сўнгги вақтларда SMART технологиялар ёрдамида таълим соҳасида илмий аппарат шаклланиб, олий ўқув юртлари профессор-ўқитувчилари томонидан масофавий таълим тизимига мўлжалланган ўқитиш тизими яратишга катта аҳамият берилмоқда.

Бу давлат таълим стандартининг мутахасссислик ва йуналишлар бўйича фанларнинг алоҳида муҳимроқ бўлимлари бўйича тайёрланган электрон нашрлар, намунавий ва ишчи режалар, шунингдек, машқлар ва масалалар тўпламлари, харита ва схемалар альбомлари, тузилма атласлари, фанлар бўйича хрестоматиялар, диплом лойиҳаси бўйича кўрсатмалар, маълумотномалар акс этган электрон манбадир. SMART технологиялар ёрдамида дастурлаш тилларидан бирида ёки html тилида яратилган бирор фан ёки курс бўйича тугал мультимедиали ёки виртуал материални ўзида акс эттиради. SMART технологиялардан фойдаланишнинг икки хил, яъни on line ва off line вариантлари мавжуд. On line (очиқ) варианти фойдаланувчининг узоқ вақт глобал ёки локал тармоқда бўлишини назарда тутади, Off line (ёпиқ) варианти эса вақти-вақти билан тармоққа киришни назарда тутади.

SMART технологиялар асосида фойдалаш мумкин бўлган электрон ресурсларни яратишга қўйиладиган умумий талаблар мавжуд бўлиб, у қуйидаги расмда ўз ифодасини топган

SMART технологиялар асосида фойдалаш мумкин бўлган электрон ресурсларни яратишга қўйиладиган умумий талаблар

- SMART технологиялар асосида фойдалаш мумкин бўлган электрон ресурсларни яратишга услубий ҳайъат томонидан тасдиқланган ўқув дастурига мос келиши ва ўқув-услубий нашрларга қўйилган оддий талабларга жавоб бериши керак;
- Ўрганилаётган курснинг (ёки унинг қисмининг) мазмунини очиб бериши ва ўқув-услубий мақсадига эришиш учун етарли ҳажмга эга бўлиши керак;
- Ўқув-услубий мақсадларга эришишга хизмат қилувчи иллюстратив элементларни ўз ичига олиши керак (яъни, компьютернинг мультимедиали имкониятларидан мумкин қадар максимал даражада фойдаланиш лозим);
- Қўлланманинг бошқа бобларига гипермурожаат қилиш каби, зарур бўлганда

- Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations). Олий таълим муассасаларида SMART-технологиялардан фойдаланиш алгоритмини такомиллаштириш зарурлиги боис тадқиқотда олий таълим муассасалари “Таълимда ахборот технологиялари” фанидан SMART-технологияларни қўллаш алгоритмини такомиллаштириш орқали ўқув ахборотини кўргазмали-образли, изчил-мантиқий тарзда ҳавола этишни технологиялаштириш методлари воситасида замонавий дидактик воситаларини яратиш ва қўллаш технологияси асослари ва тамойилларини, уларнинг умумий тузилмаси ва ўзига хос хусусиятлари аниқлаштирилди

Адабиётлар:

1. Абдуқодиров А., Пардаев А. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти // Монография. – Тошкент, 2009. –146 б.

2. Абдуразаков М.М. Направления совершенствования подготовки к профессиональной деятельности будущего учителя информатики / М.М. Абдуразаков, Г.М. Гаджиев // Информатика и образование. 2006. - № 2. -С. 98-102.

3. Абдуразаков М.М. Совершенствование содержания подготовки будущего учителя информатики в условиях информатизации образования: автореф. дис. … д-ра пед. наук. /М.М. Абдуразаков. М., 2007. – 44 с.

4. Андреев А.А. Дистанционное обучение в системе непрерывного профессионального образования: Автореф. дис. ... док. пед. наук. – Режим доступа: http://www.iet.mesi.ru/dis/oglo.htm.

5. Андресен Б. Б. Мультимедиа в образовании: спец. учеб. курс / Б. Б. Андресен, К. ван ден Бринк. -2-е изд., испр. и доп. - М.: Дрофа, 2007. – 125 с.

6. Арипов М., Тиллаев А.И. Масофали ўқитиш технологиялари асосида таълимни ташкил этиш // Ахборот-коммуникацион технологиялар ўқув жараёнида: муаммолар, ечимлар ва истиқболлар. Республика илмий-методик конференцияси материаллари. – Самарқанд, 2007. –93 б.

7. Ахмедов А., Тайлақов Н.И. Информатика. Академик лицей ва касб – ҳунар коллежлари учун дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. –272 б.

8. Бакмаев А.Ш. Профессионализация информационно-технологической подготовки будущих учителей математики в процессе применения компьютерных математических систем: Дис. ... канд. пед. Наук. -Махачкала, 2005. –148 б.

9. Бегимкулов У.Ш. Олий таълим муассасаларининг ягона ахборот маконини ташкил этиш ва уни ривожлантириш истиқболлари. //Халқ таълим ж. – Т.- 2006. – № 4. – Б. 4-7.

10. Бегимкулов У.Ш. Педагогик олий таълим муассасаларида замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари. Монография. – Т. Фан, 2007. – 160 б.

ЯККА ТАНЛАШ УСУЛИ БИЛАН ХЎРАКИ НЎХОТНИНГ ЛИНИЯЛАРНИ ЎРГАНИШДАГИ АДАБИЁТЛАРНИНГ ЎРНИ

Т.А. Рахимов
Дон ва дуккакли экинлар илмий тадқиқот институти
қ.х.ф.ф.д.
З.З. Зокиров
Дон ва дуккакли экинлар илмий тадқиқот институти докторанти
https://doi.org/10.5281/zenodo.7418974

Аннотация: Навларнинг дон хосилдорлиги ва унинг сифат кўрсаткичлари кўп жиҳатдан экинга қўлланиладиган агротадбирларга ҳам боғлиқ. Шу сабабли ушбу тадбирларни бажарилиши энг самарали муддат ва меъёрларда, илмий асосланган бўлиши талаб этилади. Ушбу мақолада нўхотнинг ўрганиш жараёнидаги адабиётларни тахлили ўрганилган.

Калит сўзлар: Ўсимлик, поя, баландлик, нўхат, нав, вариант, қайтариқ, дуккак, дон, 1000 дона дон вазни, ҳосилдорлик.

Хозирда жаҳон аҳолисининг 815 миллион нафари оч қолаётган бўлса, 2050 йилга бориб бу сон 2 млрд. кишига етади. Уларнинг 12,9 фоизи ривожланаётган мамлакатларда яшайди. Беш ёшгача бўлган болалар ўртасида ўлимнинг 45 фоизи айнан тўйиб овқат емаслик натижасида келиб чиқаётир. Ҳозирги кунда ҳар йили 3,1 нафар бола айнан шу сабаб ҳаётдан кўз юммоқда. Қолаверса сайёрамиздаги ҳар тўрт боланинг бир нафари ўз ёшига нисбатан ўсмай қолгани аниқланган. Мактаб ёшидаги 66 млн. ўғил-қизлар дарсларга беихтиёр оч келади. Шулардан 23 млн.и Африкада истиқомат қилади.Дуккакли дон экинларини етиштириш қишлоқ хўжалигидаги учта асосий муаммони ҳал қилишга имкон беради:

1) Дон етиштиришни кўпайтириш;

2) Аҳолининг ўсимлик оқсилига бўлган талабини қондириш;

3)Тупроқ унумдорлигини сақлаш ва ошириш. Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат тармоғини истиқболда барқарор ривожлантириш соҳада давлат сиёсатини янгича ёндошувлар асосида юритишни талаб қилмоқда. Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегияси ушбу вазифаларни амалга оширишга хизмат қилади.

Ертапишар, дон тўлишиш даври қисқа кунларда ўтадиган нўхат навларини яратиш лалми ерларда дон ҳосилдорлигининг ошириш ҳамда турли йилларда рўй берадиган иссиқлик ва қурғоқчилик каби ноқулай обҳаво шароитларида

ҳам барқарор дон ҳосилдорлигини таъминлайди. Ўсув даврининг давомийлиги нўхат ўсимлигининг генетик жиҳатдан ирсий тузилишига боғлиқ бўлиши билан бирга, унинг қандай шароитда ўстирилаётганлигига, яъни тупроқ-иқлим шароитларига, етиштириш агротехнологиясига бевосита боғлиқ бўлади. Нўхат навларида ўсув даври давомийлиги иссиқликка, қурғоқчиликка, зарарли ҳашарот ва замбуруғли касалликларга чидамлилик ҳамда доннинг сифат кўрсаткичлари каби муҳим белги ва хусусиятлари билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, ўзгармас миқдор ҳисобланмайди ва етиштириш шароити, асосан, навнинг генетик хусусиятлари билан белгиланади. эртапишарликни белгилашда униб чиқишгуллаш даврининг давомийлиги муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Марказий Осиёда нўхат ўсимлигининг эртапишарлиги асосан тўлиқ ўсув даврига қараб белгиланади.

Ж.Наҳалбоев, Ж.Эргашев, А.Умурзақовлар Ғаллаорол илмий-тажриба станцияси лалмикор типик бўз тупроқларда нўхат 41 нав намуналари бўйича олиб борган тажрибалари орасида андоза Юлдуз навига (ўртача 10,9 с/га) нисбатан юқори ҳосилга эга бўлган нав намуналари танлаб олинди. Бу нав намуналар орасида андоза навга нисбатан гектаридан 1,3- 2,8 с кўп дон олишга эришилган. Жумладан, андоза навга қараганда FLIP 07-178с (13,7 с/га), FLIP 07-177с (13,5 с/га), FLIP 09-308с (12,3 с/га), FLIP 09-210с, FLIP 09-432с (12,2 д/га) каби кўп дон ҳосили берган нав намуналари келгуси селекция жараёнларида ўрганиш учун танлаб олинди. Тадқиқотлар давомида олинган натижаларга асосланиб хулоса этганда, лалмикор майдонларда нўхатнинг географик жиҳатдан келиб чиқиши турлича бўлган нав намуналарининг қимматли-хўжалик белги ва хусусиятларини эътиборга олиб танлаш ишларини бажариш ҳисобига янги навлар яратишда селекция жараёнларига жалб этиш босқичларини тезлатиш, серҳосил, касалик ва зараркунандаларга чидамли нўхат навларини яратиш уруғларини кўпайтириб, экин майдонларини кенгайтириш имконини беради. [1.29-б]

Нўхат дуккагида асосан бир ёки иккитадан, айрим ҳолларда 3 тадан уруғ ҳосил бўлади. Дуккагининг узунлиги 1,5-3,5 см гача бўлиб, пишиб етилган дуккаги сарғиш рангда бўлади. Уруғининг шакли, ранги ва ўлчами нўхатнинг навига боғлиқ равишда ўзгаради. Уруғи ғадир-будир, қиррали, қўйбошсимон, қийғирбошсимон, юмалоқ учлик кўринишда, ҳар хил катталикда бўлади. Уруғининг ранги оқиш, сариқ, қўнғир, жигарранг ва қора рангда бўлади [2;106-б.].

И.Ҳамдамов ва бошқалар таъкидлашича, Самарқанд вилояти ўтлоқи-бўз тупроқларида шароитида олиб борилган тажрибаларда Юлдуз ва Милютинский-6 навлари суғориб етиштирилганда нўхат ҳосили сезиларли даражада ошганлиги кузатилган бўлсада, бошқа кўрсаткичлар 1000 дона дон

вазни, дон натураси камайганлиги кузатилиб, суғорилмаган вариантларда ўсимлик хужайра ширасси консентратсияси юқори бўлиши мумкинлиги аниқланган. [3.18- б]

М. Ғайбуллаеванинг таъкидлашича, Фарғона вилоятининг адирли ерларида 2016 йилда олиб борилган тажрибаларида нўхат ўсимлигини азотли ўғитлар билан турли меъёрларда озиқлантириш натижасида туганаклар шаклланиши турлича бўлиши кузатилиб, соф H_{70} кг азотли ўғит билан озиқлантирилган вариантида 100 ўсимлик ўртача туганаклар оғирлиги 3,6 г/р га тенг бўлган бўлса, H_{100} кг ўғит билан озиқлантирилган вариантида 100 ўсимлик ўртача туганаклар оғирлиги 8,3 г/р га ва H_{150} ўғит билан озиқлантирилган вариантида 100 ўсимлик ўртача туганаклар оғирлиги 10,2 г/р га тенг бўлганлиги кузатилди. [4.32-33 б]

А.А.Абдиев, А. Шоймурадовларнинг 2013-2015 йилларда Қашқадарё вилоятининг лалмикор тупроқларида нўхатнинг 41 та нав намуналаридан вегитатсия даврининг қисқалиги, ташқи мухитнинг ноқулай омилларига, касаллик ва зараркунандаларга чидамлилиги, юқори ҳосилдорлиги ва биологик хўжалик хусусиятларига, бир туп ўсимликдаги дуккаклар ва донлар сони, 1000 дона дон вазни, оқсил миқдори баҳоланганда, андоза Юлдуз навига нисбатан юқори ҳосилдорлик кўрсаткичларига FLIP 03-22 C, FLIP 03-50 C, FLIP 03-99 C, FLIP 06-52 C, FLIP 06-53 C, FLIP 07-5 C, FLIP 07-182 C, FLIP 07-264 C, FLIP 07-320 C, FLIP 08-36 C, FLIP 08-50 C, FLIP 08-106 C, FLIP 08-118C, FLIP 08-154 C намуналар селекциянинг кейинги босқичларида файдаланиш учун бошланғич манбаа сифатида тавсия этганлар. [5.161-163б]

Хулоса

Хулоса қилинадиган бўлса лалмикор майдонларда нўхатнинг географик жиҳатдан келиб чиқиши турлича бўлган нав намуналарининг қимматли-хўжалик белги ва хусусиятларини эътиборга олиб танлаш ишларини бажариш ҳисобига янги навлар яратишда селекция жараёнларига жалб этиш босқичларини тезлатиш, серҳосил, касалик ва зараркунандаларга чидамли нўхат навларини яратиш ҳамда келгусида уруғларини кўпайтириб, экин майдонларини кенгайтириш имконини беради.

Адабиётлар шарҳи:

1.Наҳалбоев Ж., Эргашев Ж., Умурзақов А. Лалмикор майдонларда нўхатнинг бошланғич манбаларини танлаш натижалари. // Агро илим 2017-й. №1[45] сон. 29-бет.

2. Ҳамдамов И., Мустонов С., Бобомуродов З. Суғориладиган ерларда нўхат етиштиришнинг илмий асослари. Монография. Тошкент-2007. - 106 б..

3. Хамдамов И. ва бошқалар Нўхат ҳам озиқа ҳам дори. Ўзбекистон қ/х жур № 3. 2009. 18-бет.

4. Ғайбуллаева М. Адир тупроқларда нўхатнинг тупроқ унимдорлигига ва азот тўпловчи бактерияларга таъсири. Ўзбекистон қ/х жур№ 4.2021.32-33б

5. Абдиев А.А, Шоймурадов А. Лалмикор майдонларида нўхат экишнинг бошланғич манбалари. “Ўзбекистоннинг жанубий ҳуддудларида бошоқли дон экинлари селекцияси, уруғчилиги ва этиштириш агратехналогияларининг ҳолати варивожлантириш истиқболлари”.//Ҳалқаро илмий амалий конференция материаллар тўплами.Қарши-2018 йил. 14-15 май.161-163 бет.

EFFECTIVE ORGANIZATION OF YOUTH LEISURE IN THE MODERN WORLD

Muyassar Asadullayevna Gofurova
Teacher, Namangan Construction-Engineering Institute
Academic lyceum
https://doi.org/10.5281/zenodo.7418984

Annotation: This article is about youth and their today’s problems. It also defines how to organize their free time effectively in the modern world and makes suggestions to improve their role in social life, in addition, gives examples from real life.

Key words: youth leisure, education, “Five Initiatives”, vocational guidance, distance education.

Of course every country’s prosperity and future is estimated with its youth’s strength and capacity. The more educated and patriot they are, the more prosperous and bright our future will be. So, parents try to give good education to their children within they are born and they also want them to be masters of their professions in the future. Abu Rayhan Beruni said: “If you show me youth, I will tell you what tomorrow’s country will look like.” The world famous writer Chingiz Aitmatov said: “If they asked me about the most delicious things in our lives, I would say that I was young and the human spirit is young.” With these words they are a thousand times right because these words are also proof of our opinion. The issue of youth has always been in the public interest. Governments pay more attention to them and spend more money on creating opportunities so they can study and work on themselves in good conditions. For instance, our country Uzbekistan is also essaying to implement our youth with the latest technologies and opportunities in order to study and contribute to the enhancement of our motherland.

There has been much works on improving the role of youth and their active participation in social, political and democratic processes. As the answer to those opportunities, our youth are asked to take responsibilities in the field of education, sports and culture; bring up in a spirit of respecting for national human values; protect the country from different ideological threats and achieve many triumphs in the world’s winning stages as congenial to our government’s attention. Indeed, Uzbekistan needs knowledgeable and educated youth who have the ability of physically and mentally healthy, spiritually mature and intellectually developed, in addition, capable of taking responsibility for the future of the country. The question is that, how to bring up that person?

As we know, while our many youth are achieving good results in different spheres, some others are becoming less active in social life and wasting their time useless things. This is becoming a reason to many troubles and even crimes in society. In order to prevent them, we will have to solve the problem of organizing our youth leisure meaningful. It is so important that many measures are being undertaken and laws are adopted by our government. As proof of that, we can take examples of works carrying out under the leadership of our president Shavkat Mirziyoev. “Action Strategy”, “State Youth Policy” and “Five Initiatives” are clear examples of his policy.

As it is known, the head of state has put forward five important initiatives on social, spiritual and educational activities. The first initiative aims to increase the interest of young people in music, painting, literature, theater and other arts, and to develop their talents. The second initiative is aimed at creating the necessary conditions for the physical education of young people and their sports. A third initiative is to promote the effective use of computer technology and the Internet among the population and youth. The Fourth Initiative aims at creating a systematic work to enhance the spirituality of young people, and to promote wider reading among them. The fifth initiative deals with the employment of women.[2] A lot of measures are being undertaken according to “Fifth Initiatives” today. All of these are aimed at improving the morale of youth and their meaningful leisure.

In short, these five initiatives were met with great interest by the public, especially the youth. Because today we see many local cultural centers, schools of music and art, luxurious libraries and sports centers are being built, many competitions, festivals and conferences are being held among youth and massive works are being carried out for the involvement of them in education and training as the fulfillment of “Fifth Initiatives”. According to the main conclusions of the professional referral query which was conducted on vocational guidance through U-Report by The Ministry of Labor and Social Protection of Population of the Republic of Uzbekistan, 82% of respondents believe that the state should provide vocational guidance for youth (85% of women responded positively to this, and 80% of men agreed). 57% of respondents believe that they should start vocational guidance at school. 22% of respondents think it should start at kindergarten, and 14% believe that the selection phase should begin within college.[3] From childhood parents must help their children to choose profession according to their abilities and they must be busy with their favorite activities since person who is involved in sports, music, art and education serves and brings profit to nation. Moreover, then, they won’t have any time to think of alien ideas. Youth should form the habit of reading books instead of playing computer games and surfing the net all day long after classes. At Institutes and Universities all the students should be occupied with scientific activity. At high

education there is a subject of “Independent study skills” for the first year students. In this subject they learn how to adapt to Institute life, how to organize time, how to do research work and how to study effectively and its strategies. I think this subject should be arranged not only in high education but also at all the educational establishments.

As we know, recently our government gave a vacation ahead of time due to corona virus. As a result, pupils and students had to go back home. And now they have much free time and the problem is how to spend it? It is said that the lessons for school pupils will be hold on TV and for students they will be online by telegram and Moodle system. This global problem increased the demand for distance education and probably, it may help to develop distance education system. In today’s modern world organizing lessons online is good but the question here is what about students who are from remote villages or places where there is no Internet. Don’t they have right to study? Right, there have been many attempts and works related with network system by government. However, this is still one of our weakest points. On the other hand, during vocation pupils and students are involved to do household tasks by their parents. Their action is just like the proverb “When the cat is away, the mice will play”. But parents should give them all the necessary conditions for their reading. They mustn’t consider that the holiday is for having a rest but chance to read more and work on them.

All in all, time passes so quickly that we can’t imagine, therefore, we must organize our leisure time meaningful and usefully. In general, when both the government and parents act together the results will be effective and there will be fewer crimes in society, in addition, country goes in the way of development. Our youth should also recognize our great history and whose generation we are. As our first president Islam Abduganievich Karimov said “There is no future without past” we should know more about them and follow their path in order to take our motherland towards prosperity.

References:

1. Tamara Xo'janova "Problems of perfect protection of the young generation in globalization processes" article, 9th International Conference "Science and practice: a new level of integration in the modern world", November 10,2019, Sheffield, UK.

2. http://interkomitet.uz/prezident-yoshlar-ma-naviyatini-yuksaltirish-ularning-bo-sh-vaqtini-mazmunli-tashkil-etish-bo-yicha-muhim-vazifalarni-belgilab-berdi/

3. https://uzbekistan.ureport.in/story/364/

O‘ZBEK JURNALISTIKASINI RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Abduqodirov Shahboz Qobul o‘g‘li
UrFU talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7423798

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda jurnalistikaning rivojlanish tarixi va bosqichlari haqida fikr-mulohazalar yurutilga.

Kalit so‘zlar: televideniya, jurnalistika, xalqaro jurnalistika, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, o‘quv laboratoriyasi, seminar.

O‘zbekiston telejurnalistikasi taraqqiyoti tarixida 1991-yilda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi alohida bob bo‘ldi. 1991-1994 yillarda telejurnalistika yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar Toshkent, Nukus, Andijon va Samarqand davlat universitetlari hamda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida tayyorlandi. 1994–1995-yillardan boshlab bu mutaxassislik Namangan davlat universiteti, Toshkent san’at institutida ham joriy qilingan.

Matbuot ommaviy axborot vositalarining birinchi namunasidir. Keyin radio, sal o‘tib televideniye, endilikda esa internet jurnalistikasi paydo bo‘ldi. Baribir, matbuot (bosma nashrlar) sohaning asosiy va tayanch turi sifatida o‘z nufuzini yuqori darajada saqlab kelmoqda. Unga birinchi navbatda ehtiyoj bor. Qolaversa, matbuotni jamiyatni hayotini o‘zida muhrlaydigan ko‘zgu deyish mumkin. Tajribali jurnalist sifatida O‘zbek matbuotining bugungi holati haqida nima deya olasiz?

– Har qanday ilgarilanma harakat (u revolyutsion bo‘ladimi yoki evolyutsionmi) tez-tez ortiga boqib, o‘z-o‘zini taftish qilib turishi qonuniy holat. Busiz izchil taraqqiyot ta’minlanmaydi. Mamlakatimizda kechayotgan jarayonlarga shu mashtabdan qaraganimizda, jamiyatda ijtimoiy fikrni shakllantirishning asosiy minbari bo‘lgan matbuot ham rivojlanish bosqichlarida o‘zini-o‘zi taftish qilib boradi.

Shuni tan olish lozimki, matbuot bizning milliy madaniyatimizda nisbatan “yosh” soha hisoblanadi. Mabodo, hadisshunoslik, geodeziya yoki mineralogiya singari fanlarning asosiga tamal toshi bizning tuprog‘imizda qo‘yilganini inobatga olsak, jurnalistikaning (xususan, gazeta, jurnallarning) paydo bo‘lishi unchalik qadimiy ildizlarga ega emasligi ayon bo‘lib qoladi. Bu holning “o‘ziga xos va mos” sabablari borki, hozir gap bu haqda emas. Umuman, tan olib aytadigan bo‘lsak, dastlabki tarqatma bosma nashrlar paydo bo‘lgandan beri bu madaniyat turi tugal shakllanishga ulgurmay, turli siyosiy vazifalarni bajarishga giriftor bo‘ldi va aytish mumkinki, hali “suyagi qotib ulgurmagan vujud“ turli o‘zgarishlarga duchor bo‘lib, qorishiq bir qiyofa kasb etdi. Shunday qilib, o‘zi ichdan pishib yetilgan, o‘zgarmas

tamoyillar va oltin qoidalarga ega bo‘lishi lozim bo‘lgan soha tinimsiz yangilanishlar jarayonini boshdan kechirib kelmoqda. Oqibatda matbuot (men radio yoki TV demayapman!) jamiyatda o‘z o‘rnini tayin eta olmadi va hatto u “O‘zi, bizga shu soha kerakmi?” singari mujmal taassurot uyg‘otdi ham. Mutaraqqiy mamlakatlar tajribasi esa shuni ko‘rsatmoqdaki, borliqni tafakkur boshqarayotgan dunyoda qanday qilib fikr minbarisiz, jamiyatning lokomotivi bo‘lgan ijtimoiy fikr fabrikasisiz kun ko‘rish mumkin? Barcha xulosalar mamlakatga kuchli, eng zamonaviy darajadagi matbuot kerakligini tasdiqlab turibdi.

Ana shu mulohazalar ko‘lamida bugungi milliy matbuotimizning ahvoli va mavqeini tasavvur qilish imkoni tug‘iladi. Nega bunday hol ro‘y berdi? Agar sabablar haqida gapiriladigan bo‘lsa, bu holni milliy matbuotimizning “dumbulligi” bilan izohlash lozim bo‘ladi.

Yuqorida eslatilganidek, tinimsiz siyosiy islohotlarga giriftor qilingan, buyurtmalar iskanjasidan chiqib keta olmagan o‘zbek matbuoti hali ham o‘zini kashf etish borasida izlanayapti.

Ko‘z oldingizga keltiring: dastlabki gazeta-jurnallar paydo bo‘lganda ular ko‘proq ma’rifatni targ‘ib qildi. Keyinchalik siyosiy hayotga aralashib, odamlarni o‘z tarixini o‘rganish, qadr-qimmatini anglashga chaqirdi. Pirovardida hokimiyatga intilishga undadi. Birdaniga oktyabr to‘ntarishi va totalitar mafkura oyboltadek yorib kirdi va hammasi aralash-quralash bo‘lib ketdi.

Milliy matbuot o‘z qiyofasini topa olishga ulgurmadi. Bu hol mustaqillikkacha davom etdi. Istiqlol yillarida esa ochig‘i, matbuotning o‘z qiyofasini kashf etish borasidagi sa’y-harakatlar izchil davom etmadi va ko‘zga ko‘rinarli natijaga erishilmadi. Holbuki, u bir paytlar norasmiy holda “to‘rtinchi hokimiyat” maqomiga ega bo‘lgandi. Bugun vatandoshlarimiz bu “hokimiyat”ni barcha puchmoqlardan izlayapti, biroq topish oson bo‘lmayapti.

Bu holga tushishning bosh sabablaridan biri, mening nazarimda, kasbga sadoqatning yetishmagani, kasbiy tayyorgarlikning zaifligi bilan belgilanadi. Bu hol esa xodimlar tayyorlash tizimining milliy-tarixiy zamindan uzilib qolgani, dunyoqarashni soxta aqidalar ruhida shakllantirilgani bilan izohlanadi.

Sho‘ro zamonida jurnalistga komfirqaning yugurdagi, nari borsa maddohi sifatida qaralardi. Ana shunday sun’iy andazalar asosida tayyorlangan xodimlar amaliy faoliyatga tayyor emas edi. Jurnalistikada “Hammanarsa haqida yozish mumkin” degan kasbiy qoida amal qiladi. Mabodo, qalamkash hammaning e’tiboridagi voqea haqida eplab yoza olmasa, uning yozganlari e’tirozga sabab bo‘lsa, hatto ish sudgacha borsa, bunda kimni ayblash lozim? (Omadi gap shuki, sudlashish jurnalistik faoliyatda oddiy hol hisoblanadi, biroq tarafkashlik tufayli paydo bo‘lgan g‘alva tufayli sudlashish bilan haqiqatni himoya qilib sudlashish o‘rtasida katta farq bor). Yoki o‘rtada sobit turishi, faqat adolat tantanasi uchun ishlashi lozim bo‘lgan

kasb egasi buyurtma bilan bir tomonning manfaatini himoya qilib tursa, kasbning obro‘yi qoladimi? Bunday hollarning sabablari ko‘p bo‘lishi mumkin, lekin asosiysi, kasbiy e’tiqodning sustligi emasmi? Demak, jurnalistning maslagi ham sohaning rivojida muhim o‘rin tutar ekan.

Sabablardan yana biri esa sho‘ro tuzumining qiyofasi edi. Xohlaysanmi, yo‘qmi, totalitar mafkura tarafida turishing lozim edi. O‘shanda “to‘rtinchi hokimiyat” deyilganda, xalq bilan davlat o‘rtasidagi ko‘prik emas, balki jazolovchi kuch, yana bir zo‘ravon mahkama tushunilgan. Shu sababli gazetalarda “…ko‘zingizni oching, sizga felyetonchi ketdi” tarzidagi shapkalar berilgan, felyetonchi esa qog‘oz va qalam bilan birga ikkita to‘pponcha osib yurgan. Shunday qilib, matbuot qo‘rquv mashinasiga ham aylangan edi. Dunyo tajribasi esa bunday hollarni qoralaydi, bunday matbuotni tan olmaydi ham.

– Milliy matbuotimizdagi yosh kadrlar ijodini kuzatasizmi? Ular yozayotgan badiiy ijod namunalarining boshqa janrda yaratilayotgan asarlar bilan bahslasha olayaptimi?

– Albatta, yosh ijodkorlarning ijodini kuzatib boraman… Hozir dunyo siyosiy iqlimi tubdan o‘zgardi, zo‘ravonlikni, kuch ishlatishni targ‘ib qilish nufuzli qonunlar bilan taqiqlandi. Jumladan, O‘zbekiston eng erkparvar, adolatparvar siyosat tarafdori. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida yangilanish sari olib borilayotgan siyosatdan xalqimiz rozi, ulardan umidi katta. Shunday sharoitda milliy matbuotimiz ham yangilanishlar ilhomchisi va targ‘ibotchisi bo‘lishi ayni davr talabi.

Matbuotning o‘rni va vazifasi bo‘lakcha. Masalan, TV da voqelikning tashqi, fotografik manzarasi aks etsa va xulosalar ham birlamchi dalillar ko‘magida chiqarilsa, matbuot yutuq va kamchiliklarning ildizlari, yuzaga chiqargan teran omillar haqida mushohada yuritish imkonini beradi. TV da bir xil manzaraning turli hududlarda kechish va sodir bo‘lish jarayonini birdaniga qamrab olish imkoni bo‘lmaydi. Matbuot esa dalillarni taqqoslab, ularni tahlilga “torta” oladi. Yutuqni ommalashtirish, kamchilikni bartaraf etish uchun esa ularning sabablarini topish lozim bo‘ladi. Bu yumush matbuot xulosalari orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda sohaning yetilgan muammolaridan biri – jurnalistning kasb mahorati, e’tiqodidan tashqari, malakali jurnalistning o‘zini tayyorlash bo‘lib turibdi. To‘g‘ri, bu bo‘shliqni biror axborotni eplab yozadigan ma’lumotli odamlar hisobidan to‘ldirish mumkin, ammo professional kasb odamini yetishtirish oson masala emas. Ko‘plar yozishni bilgan odam redaksiyalarda ishlab keta oladi, deb o‘ylaydi. To‘g‘ri, ishlab keta oladi, biroq ishkal shundaki, u havaskorlik darajasidan ko‘tarilishi qiyin kechadi. Mabodo ish shunday bo‘lganda edi, universitetlarda maxsus fakultet tashkil qilinmagan bo‘lardi. (Umuman, bu soha xodimlarini tayyorlash bo‘yicha dunyoda turli yondashuvlar mavjud). Shundanmi, ishtiyoqi baland kishilar jon-jahdi bilan

jurnalist bo‘lishga intiladi, jurnalistikada o‘qiyotganlarning aksariyati esa afsuski, bitirgach shu sohada ishlamasligini aniq biladi.

Malakali, pishiq-puxta xodimlarning tayyorlanmaganligi ham milliy jurnalistikaning oqsab qolishiga sabab bo‘ldi. Ochig‘i, o‘tgan yillarda jahon standartlari darajasida faoliyat ko‘rsatgan hamkasbimni eslay olmayman. Topilishi mumkin, gap millat, xalq manfaatlari haqida ketmoqda. Shunday qilib, publitsistika proza, ayniqsa, poeziyaning soyasida qolib ketdi. Holbuki, publitsistikada hamma janrlar mavjud, bugun u eng yetakchi mavqega ega bo‘lib turibdi.

– Tarmoq gazetalari aslida qanday bo‘lishi kerak? Bugun ularga ehtiyoj bormi?

– Malakali xodimlar tayyorlashning ikkinchi qanoti – hududiy matbuot. Oddiy holat – daryoning to‘lib oqishi buloqlar suvining mo‘lligidandir. Oldin buloq quriydi, so‘ngra ilojsiz qolgan daryo taqirga aylanadi. Avvalo, hududiy matbuot – tuman yoki viloyatlarda gazeta-jurnal nashr etishning ma’naviy tomonlariga e’tibor qarataylik. Tuman yoki viloyat markazlarida gazeta-jurnal tahririyatlarining bo‘lishi, aniqki, bir madaniy, ijodiy markaz mavjudligidan darak beradi. Bu joy qalbida ijod ishqi bo‘lgan bo‘lajak qalamkashlar, san’atkorlar, umuman, ziyolilarning sevimli maskaniga aylanadi. Baland parvozlar ana shu dargohdan boshlanadi. Hammamizning tomog‘imiz tuman gazetalarida ko‘tarilgan, desam, xato bo‘lmas. Boz ustiga, mustaqillik tufayli hududiy matbuotning yumushi yana ham ko‘paydi. Axir o‘sha joydagi tarixiy maskanlar, qadriyatlar, taniqli kishilar haqida o‘sha joyning odamlari ko‘proq biladi va “qotirib” yoza oladi. Bu mavzulardagi chiqishlar yurtimizning endi yozilajak to‘la tarixiga chizgilar bo‘lib qo‘shilishi bor gap.

Mamlakatimizda san’atga, sportga juda katta e’tibor berilayapti. Yoshlarimizning muvaffaqiyatlari haqida ham hududiy matbuotda batafsil hikoya qilish mumkin. Qolaversa, tuman va viloyat gazetalari kelajak uchun shu joylarning chinakam solnomasini bitib boradi.

Tuman yoki viloyat gazetasida, umuman, matbuotda ishlashning o‘zgacha gashti, mas’uliyati bor. Bu soha odamning barcha qobiliyatini bir maqsadga safarbar qilishni talab qiladi. Albatta, birinchi shart – ona tili imlo qoidalarini puxta bilish, yuqori darajadagi savodxonlik bo‘lgan gazetachilik fikrni ravon, tushunarli ifodalashga o‘rgatadi. Yoki oddiy holat – asil nusxani gazeta sahifasi bilan solishtirib o‘qish ham diqqatni bir nuqtaga jamlash, boshqa narsalarga chalg‘imaslik, ishda basarishta bo‘lish, umuman, yuqori mas’uliyatni talab qiladi. Kimki shunday sinovga bardosh bersa, ishlab keta oladi, bo‘lmasa, ko‘p o‘tmay, boshqa sohani tanlaydi. Xarakterdagi bunday qat’iylik har qanday sohada asqatadi. Shuning uchun redaksiya maktabini o‘tagan xodimlar boshqa har qanday sohada qiynalmay ishlab ketgan, hatto boshqalardan ko‘ra yaxshi ishlagan ham. Shu ma’noda redaksiyalarni malakali xodimlar tayyorlash maktabiga tenglashtirsa bo‘ladi.

Gazeta-jurnallarda tafakkurning jami qirralari yuzasidan bahs yuritiladi. Har kuni gazeta varaqlab yoki jurnal sahifalarini taxtlab yurgan odamga uning “changi” o‘z-o‘zidan yuqib qolaveradi. Kasblar orasida jurnalistga har qanday soha odami bilan teng gaplasha oladigan, yuqori madaniyatli shaxs sifatida qarashadi.

Bir davlat arbobining (Napoleon) “Har qanday jurnalist vazir bo‘lishi mumkin, biroq har qanday vazir jurnalist bo‘la olmaydi”, degan gapi bot-bot takrorlanib turishi ham behuda emas. Bu mezonlar aslida, jurnalistga qo‘yilgan talablar. Ana shunday qadriyatlarni mujassamlashtirgan ma’naviy boylik mustaqillik g‘oyalaridan to‘yinib, yangicha ko‘rku kamol kasb etishga haqli. Negaki, kuchli davlatni kuchli mafkuraviy qurolsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Xonadonlarga gazeta-jurnallarning kirib borishi o‘sha manzillarga ma’rifatning, ziyoning kirib borishidir (albatta, bu mahsulotlar nur olib kiradigan darajada nurli bo‘lishi lozim). Erta tongda birinchi mashg‘ulotini bosma nashrlarni varaqlashdan boshlagan xonadon ahli diliga bir munavvarlik yuqqanga o‘xshaydi. (Iztirob bilan qayd etish joizki, hozir nashrlarda yorqin ruhli maqolalar kamayib ketdi; aksariyat ko‘ngilochar oldi-qochdilar. Xalqimizning ko‘ngli qachon “yopilib” qolgan yoki nima ish qilib charchagan?) Mutolaa bilan boshlangan kun boshqa xayrli amallarga yo‘l ochadi. Xossatan, oilada kitobxonlik muhiti qaror topadi. Gazetadan shapaloqdek qiziqarli narsani mutolaa qilgan uy bekasida qalin kitobni ham o‘qib chiqish hafsalasi paydo bo‘ladi.

Umuman, ma’naviyat bilan bog‘liq barcha yumushlar bir-biri ila ichki mantiq orqali bog‘langan. Bir zanjir zaif bo‘lsa yoki uzilib ketsa, ilgarilanma harakat ta’minlanmaydi. Mahalliy hayotni ishonchli va teran yoritadigan gazeta-jurnallar esa bardavomlik va uzviylikni ta’minlaydigan vosita. Umuman, tuman va viloyat gazetalarining ijtimoiy hayotni taraqqiy ettirishda o‘rni beqiyos. Buni bosh muharrir va mas’ul jurnalistlar his etmog‘i lozim. Endi shunchaki gazeta betlarini to‘ldirish uchun yozib bo‘lmaydi. Fan va texnika rivoji bilan basma-bas qalam tebratmoq darkor.

– Xalqda “Bo‘zchi belboqqa yolchimaydi” degan gap yuradi. Ko‘plarning muammosini yechishga safarbar qilingan matbuotning o‘zi ham muammolar girdobida qolib ketgandek, nazdimizda. Siz ushbu holatni qanday izohlaysiz?

– Bu ayni damda aytilishi kerak bo‘lgan gap bo‘ldi. Oddiy masala – xodimlar mehnatiga haq to‘lashni olib ko‘raylik. Kecha ish boshlagan ham, deylik, 20 yil ishlab qo‘ygan xodim ham bir xil maosh olaveradi. Bu borada mehnat staji, malaka singari omillarga e’tibor berilmagan. Bu xususiy masala. Umumiy tarzda esa matbuot, umuman, jurnalistikaning umuminsoniyat mezonlari darajasida e’tirof etilgan tamoyillari bor. “Matbuot o‘zi mansub bo‘lgan jamiyatning mahsulidir” singari aqidalarga qo‘shilib bo‘lmaydi. Axir Braziliya yoki Indoneziyaning o‘ziga xos meditsinasi bo‘lmaydi-ku.

Garchi meditsina va jurnalistika boshqa-boshqa soha bo‘lsa-da, ularning zamirida insonga xizmat qilish tamoyili mujassam. Shunday ekan, jurnalist ham jamiyatda ham ma’nan, ham moddiy zoriqmasligi lozim. Qolaversa, jamiyat uchun meditsinaning o‘rni qanchalik muhim bo‘lsa, jurnalistikaning zarurati ham undan kam emas. Ilg‘or mamlakatlar tajribasi bu nisbatni yuz yillar oldin tasdiqlagan.

Mabodo, umuman olganda, qaysi davlatda bo‘lsa-da, matbuot umuminsoniy mezonlardan chekinib, o‘z qobig‘ida o‘ralashib qolsa, bunga sohani emas, o‘sha soha odamlarini ayblash lozim. Bizda tarixiy tajribalar asosida rivojlanayotgan, qonuniy asoslari mustahkam milliy matbuot mavjud. Davr talablari esa endi eski qoliplar doirasida ishlab bo‘lmasligini ko‘rsatayapti. Xayrli ishlarga kamarbasta bo‘lib turgan vaqtli matbuotimiz muammolarini bartaraf etib, zamon bilan baqamti rivojlanishga kuch topa oladi, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cherepaxov M. S, Problemi teorii publitsistiki, M., 1973;
2. Matbuotimiz fidoyilari [3 jildli; tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi
3. I. Yesenboyev], 1—2j.lar, T., 1991, 1993;
4. Pidayev T., Matbuot — millat chirog‘i, T., 1999;
5. Sulaymonov I., Men— jurnalistman, T., 2001.
6. Национальной телерадиокомпании Узбекистана» // lex.uz.
7. Akhmedov, T. (2017). The history of television journalism in Uzbekistan. *Bulletin of Science and Practice*, (12), 417-420;

CHET TILLARINI O'QITISHDA MADANIYATLARARO MULOQOTNI RIVOJLANTIRISH

Yusupova Oygul G‘ofurjon qizi
Qodirova Xaticha Po‘latboyevna
Xorazm viloyati Yangiariq tumani 13-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Ingliz tili fani o‘qituvchilari
https://doi.org/10.5281/zenodo.7423802

Annotatsiya: Mazkur maqolada chet tillarini o`qitishda madaniyatlararo muloqotni takomillashtirish to‘g‘risida fikr-mulohzalar yurutilgan. Shuningdek, chet tillari dars jarayonida madaniy muloqotlar xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: chet tillari, madaniyat, muloqot, metodika, ta’lim tizimi.

Til o'rganish nafaqat alifbo, lug'at va grammatikani o'z ichiga olgan murakkab jarayon bo'lib, matn mazmunini, masalan, xulq-atvor va madaniy me'yorlarini o'rganishni o‘z ichiga qamrab olishi zarur. Yangi axborot texnologiyalari tufayli ish jarayonlari, kundalik hayot tarzi, ta’lim va kundalik muloqot jarayonlarida madaniyatlararo o‘zaro ta’sirning barcha xususiyatlari ko‘z o‘ngimizda o‘zgarib bormoqda. Masalan, o‘quvchilar qandaydir yangi tilni o'rganayotganlarida yangi til mazmuni haqida va bu tilni o'rganish jarayonida ushbu til xususiyatlari bilan birgalikda madaniyat bilan ham bevosita muloqot qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Har qanday tilni o'rganish uchun ular nafaqat tilni, balki u bilan bog‘liq barcha xususiyatlarni: joy, makon, tarix va madaniyatni o‘rganish jarayonidan o‘tadilar. Shunday qilib, ular tilda gaplashish orqali o'sha til madaniyatiga, ya'ni til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchi va mohiyatiga avtomatik ravishda singib ketishlari mumkin. Shuning uchun Gao, Tang va Xu kabi *tilshunoslar “Til - bu madaniyat va bu ikki atama bir-biri bilan chambarchas bog'liq”* degan qat'iy fikr bildirgan edi. Brok va Nagasaka kabi boshqa mutaxassislar til o'rganishning barcha bosqichlarida madaniyatlararo yoki pragmatik kompetensiyani hisobga olish kerakligini ta'kidlaydilar. Ushbu dastur o‘rganilayotgan xorijiy til o'rganuvchilarni ijtimoiy ko'nikmalarga ega qila oladi, chunki o'quvchilar bu ko‘nikmalar orqali ijtimoiy aloqa o‘rnata oladilar va bu borada muvaffaqiyatga erisha oladilar.

Til aloqa vositasi va madaniyat birligi sifatida qo‘llaniladi. Ingliz tili o‘qitish tizimi sohasida til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarga oid ikki qarama-qarshi nuqtai nazar mavjud: birinchi qarashda til va madaniyat uzviy bog‘liqligi ta’kidlanadi. Ushbu fikr Biram va Grandi tomonidan 2003–yildagi maqolasidan olingan. “*Biroq ikkinchi nuqtai nazarga ko‘ra, ingliz tilini o‘qitish madaniy kontekstlaridan individual ravishda o‘rganish kerak”,* - deb ta’kidlanadi Sardining

2002- yildagi kitobida. Ushbu mashhur munozaralar til va madaniyat tushunchalari bir- biriga bog‘langan yoki bog‘lanmaganligini ko‘rib chiqadi. Til va madaniyat ajralmas tushunchalardir. Madaniyat tushunchasini o'quv dasturining asosiy mavzusi sifatida tushunmaslik kerakligi haqida berilgan eng so'nggi bahs 2003-yilda Bennet va boshqalar tomonidan taqdim etilgan. Ushbu olimlar madaniyat tushunchasini til o'qitish jarayonidan chetlatish uchun bir nechta noto'g'ri fikrlarni sanab o'tishgan. Birinchidan, ular til o'quv dasturlari allaqachon ishlab chiqilgani va uni butunlay o‘zgartirib bo‘lmasligini aytishadi. Shunday ekan, xorijiy til o‘quv dasturiga madaniyat tushunchasini kiritish uchun o‘quv dasturida qo‘shimcha joy yo‘q deb hisoblashadi. Ikkinchidan, ko'pgina o'qituvchilar uchun biror bir xalqning madaniyatini o'rgatish til o‘rgatishdan ko'ra qiyin tuyuladi. O'qituvchilar odatda madaniyatlararo kompetensiyani o'rgatishga tayyor emasliklarini his qiladilar, shu tufayli madaniyat bilan bog‘liq holatda o‘qitish tajribasi deyarli yo'q. “*Ular tajribaga ega bo'lgan taqdirda ham madaniyat tushunchasi va u haqidagi fikrlar o'zgarib turadi”, deya fikr yuritadi Korbet.*

Uchinchidan, ba'zi oliy ta’lim muassasalari ham madaniyat va tilni chambarchas holda o'qitishni ma’qul ko‘rishmaydi va ular ko‘pincha o‘quvchilarni universal yoki milliy testlarda yuqori ball olishga tayyorlash kabi ta’limga oid ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan shug‘ullanadilar va shu sababli o‘quvchilar o‘rtasida madaniyat haqida yetarlicha ko‘nikma hosil bo‘lmaydi. Shuni ta’kidlash lozimki, yuqoridagi ma’lumotlar Bennet tomonidan emas, balki boshqa o‘qituvchilar va amaliyotchilar tomonidan ham aytilgan dalillarga asoslangan. Til va madaniyat doirasida tildan tashqari, real dunyoda mavjud bo‘lgan madaniy voqelikda qo‘llaniladigan lingvistik shakllar emas, balki boshqa ramziy tizimlar mavjuddir: biz madaniyat deb ataydigan odatlar, e’tiqodlar, yodgorliklar va madaniy hodisalar shular jumlasidandir. Madaniyatga aylanish uchun tildagi har bir tarkibiy qism ma’noga ega bo‘lishi kerak. Bu xuddi biz kundalik turmushimizda hayotimiz uchun zarur bo‘lgan narsalarga e’tibor qaratganimizdek gap”, - deb munozara qiladi Kramsh.

Til o‘rganish va o‘qitishning dasturlari boy pedagogik tajribalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak:

- *muloqotga kirishuvchi sifatida orttirilgan tajribasi;*
- *o‘quv jarayonida vositachilik qobiliyati;*
- *o'quvchilarning ma’lumot qabul qilish jarayoni yoxud o‘quvchining o‘quv uslubini aniqlash;*
- *til va madaniyatni o‘qitish jarayonida texnologiyalardan foydalanish;*
- *sinfda turli xil faol jamoalar tashkil etish;*
- *ta'lim va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish;*

- vositalar (asboblar va texnologiyalar), faoliyat tizimlari va jamoalardagi amaliyot jarayonini o‘z ichiga oladi. Til o'rganish orqali o‘quvchilar bir vaqtning

o'zida kamida ikkita til va shu til tizimida madaniyat bilan hamohang tarzda ishlashni o'rganadilar. Xorijiy til o‘rganish jarayonlariga ijtimoiy- madaniy yondashuv o'quvchilarning amaliyotda o‘zlarining tajribalari, ishtiroklari, vositachiliklaridan foydalanishlariga yordam beradi.

Ijtimoiy-madaniy nuqtai nazar o‘quvchilarning o‘quv muassasalarida yangi akademik “madaniyatlar” (harakat qilish, o‘zaro ta’sir o‘tkazish, tilni, obyektlar va jarayonlarni baholash va ulardan foydalanishning yangi usullari)ni o‘rganish jarayonida ta’sir qiladi.

Madaniyat va til o‘qitish-fikrlash doirasini o‘zgartirish. Til foydalanuvchining muloqot qilish qobiliyati va barcha ijtimoiy kompetensiyalari tomonidan shakllantiriladi, shuning uchun bularning barchasi kommunikativ kompetensiyaning aspektlari sifatida qaralishi mumkin. Umumiy kompetensiyalarga deklarativ bilimlar ko‘nikma va nou-xau, amaliy va madaniyatlararo ko‘nikma, ekzistensial kompetensiya va o‘rganish qobiliyati kiradi. Kommunikativ til kompetensiyalariga lingvistik kompetensiyalar, sotsiolingvistik kompetensiyalar (ijtimoiy munosabatlarning lingvistik belgilari, xushmuomalalik qoidalari, xalq donoligi ifodalari, farqlarni qayd etish, dialekt va urg‘u) va pragmatik kompetensiyalar kiradi. Xorijiy til o'qituvchilari va tadqiqotchilari yuqorida sanab o'tilgan barcha toifalarda u yoki bu tarzda mavjud bo'lgan boshqa bir kompetensiyaga, ya’ni madaniy qobiliyat mavjudligiga butunlay ishonishadi. Masalan, Bardos Kanal va Sveyn tomonidan ishlab chiqilgan modelga beshinchi kompetensiya sifatida madaniyat tushunchasi qo‘shildi. Ularning fikricha, madaniyat boshqa barcha kompetensiyalarda mavjud va uning ajralmas bir qismidir. Xorijiy til o‘rgatish jarayonidagi madaniyat maqomi, ahamiyati va mazmuniga oid yana bir qancha mulohazalar va qarashlar shakllantirilib, bu masalaning qay darajada murakkab ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu keltirilgan talqinlar Rivers, Biram va Silayga tegishlidir. Riversning so'zlariga ko'ra, “Biz o'quvchilarga dars mazmunini o'zlashtirishga yordam beradigan mos rejaga ham, ijodkorlik qobiliyatiga ham e'tibor qaratishimiz kerak. Jarayonlar o‘quvchilarni til muhitidan tashqariga chiqishga undashi kerak, shunda ular so'zlovchilarning madaniyat darajalarini chuqurroq idrok eta boshlaydilar. Bu jarayon hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki u o'quvchilarning o‘rganilayotgan chet tilida turli xil oldingi tajribasi va malakalarini hamda o'quvchilarning muayyan tilda ona tili sifatida so‘zlashishlari yoki munosabatlarini ko‘rsatadi.

Bir qancha tilshunos olimlar xorijiy til o‘qitish uslublarini til o‘rganuvchilarning mahalliy va xalqaro madaniyatga kirishuvchanlik qobiliyatlari bilan birgalikda hisobga olgan holda ushbu jadvalni yaratishadi. Bu orqali nafaqat chet tili o‘rganuvchilarining muvaffaqiyatga erishuv jarayonlari, balki foydali maslahatlar ham berib o‘tiladi. Quyidagi jadvalda chet tilini o‘rganish va o‘rganilayotgan til

madaniyatiga bevosita aralasha olish to‘g‘risida amalda sinalgan ma’lumotlar keltiriladi:

Mulohaza o'quvchilarda til va madaniyatning muloqotdagi roli haqida tushunchani rivojlantirishga yordam beradi. Bilimlarni rivojlantirish,o‘quv uslublarini yangilash va mulohaza yuritish orqali o‘quvchilar madaniyat va til o‘rtasidagi tafovutlar va o‘xshashliklarni oson anglaydilar. Bu Kramshning “Bugun o'qituvchilar uchun mavzuni qay tarzda o‘quvchiga yetkazishni bilish yetarli emas ular qo‘shimcha o‘quv uslublarini yaratish amaliyotini o'rganishlari kerak”-degan fikriga mos keladi. Ular nafaqat bilimni rivojlantirish va undan foydalanishni o'rganadilar, balki til, madaniyat va undan foydalanish haqida meta-ongni rivojlantiradilar. Bu meta-ong asta-sekin o'z-o'zini, o‘z tilini, o‘z madaniyatini anglashga aylanadi. O‘quvchilar o‘quv dasturi davomida ijtimoiy aloqa o‘rnatishlari va ta'lim maqsadlarini tushunishlari kerak va bu ma'nolar har doim talqin qilish uchun zarurdir. O‘quvchilar mavzu haqida berilgan sharh bilan birga keladigan mulohaza, talqinlar, taxminlar, istiqbollar, pozitsiyalar xilma-xilligini o'rganadilar. Bu muloqotda almashinadigan narsa nafaqat faktik bilimlar, mavzular va g'oyalar, balki tajriba almashishda ishtirok etayotganlarning barchasining tajribasi, ijodkorona fikrlari va dunyoqarashini o'z ichiga oladi.

Xulosa o‘rnida shuni ayta olamanki, ushbu maqola til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratishga urinish,nega madaniyatni o'qitish chet tili o'quv dasturining ajralmas qismi bo'lishi kerakligini tushunish haqida ma’lumot beradi. Adabiyotlarni chuqur tahlil qilish madaniyat va uning chet tillarini o‘rganish jarayonidagi ahamiyatli jihatlarni yaxshiroq tushunishga hissa qo'shishga qaratilgan edi. Til o‘rganish yoki o‘qitish o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, u faqat o‘rganilayotgan chet tilining grammatik, leksik va fonologik xususiyatlarini bilish va tushunish bilan cheklanib qolmasligi, balki o‘sha til madaniyatini o‘rganish yoki o‘rgatish bilan ham shug‘ullanishi kerak.Politzer va Brusk kabi ba'zi olimlarning fikricha, “Til va madaniyat bir xil tushunchalardir”. O'qituvchilar nafaqat o'z o'quvchilariga madaniyatlararo muloqot qanday sodir bo'lishini taqdim etishlari va tavsiflashlari kerak, balki madaniyatlararo muloqotda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan o'yinlar yoki simulyatsiyalar kabi amaliy vositalarni ham qo‘llashlari zarur. Madaniyatlararo va shaxslararo (o‘zaro) samarali muloqotni ular haqida yetarlicha tushunchaga ega bo‘lmasdan amalga oshirish mumkin emas. Xorijiy tilni madaniyat bilan birgalikda o‘rganishdan maqsad – muloqot masalalarini asosan til va madaniyatga e’tibor bergan holda tahlil qilishdan, farqli madaniyatlar orasidagi kommunikatsiyani osonlashtirish va to‘qnashuvlarni oldini olishdan iborat. Til va madaniyat tushunchalari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir-biridan ajratilmaydi, chunki tilning o‘zi madaniyatdir. Madaniyatni o'qitish o'quvchilarga odamlarning turmush tarzi, qarashlari, e'tiqodlari va qadriyatlarini va til

ko‘nikmalari haqidagi bilimlarini oshirishga imkon beradi. Dalillar shuni ko'rsatadiki, agar o'qituvchilar til o‘qitish metodiga madaniyat tushunchasini targ‘ib qilsalar, o'quvchilar til o'rganishda muvaffaqiyat qozonishlari mumkin, ya'ni o'quvchilar bu bilan nafaqat til bo‘yicha, balki o‘rganayotgan tillari haqida barcha zarur manbaalarga ega bo‘ladilar. Zero, madaniyat til yuzaga kelishidan oldin paydo bo‘lgan tushunchadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bardos Canale va Swain.“Language”.1980 54-55-b
2. Brock &Nagasaka . Pragmatic Content in Global and Local Textbooks. 2005; 34-40-b // [“Til o‘qitish asoslari” – 2005. 12-23]
3. Byram & Gerundy. Context and Culture in Language Teaching and Learning. 2003 – yildagi maqola - 57-b
4. Cefr, “Diskuss kompetensiyasi va fuksional kompetentsiya”-2002- 101-130-b

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING MANTIQIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Sirojiddinova Odina
Xakimova Mohira
Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani 51-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7423808

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikr-mulohaza yuritish ko‘nikmalarini shakillantirishda nostandart matematik topshiriqlardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari haqida fikr-mulohazalar yurutilgan.

Kalit so‘zlar: metodika, matematika, boshlang‘ich ta’lim, kreativlik, ko‘nikma va qobiliyat.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda topshiriqlarni bajarishga ijodiy yondashish, asosli xulosa chiqara olish har bir o‘qituvchi oldidagi muhim vazifalardan biri. Bu vazifalarni amalga oshirishda qiziqarli topshiriq, mantiqiy va nostandart masalalarning o‘rni katta. Boshlang‘ich sinf matematika kursida qiziqarli mantiqiy topshiriqlardan foydalanilsa, bu o‘quvchilarning (xatto past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni ham) darsga bo‘lgan qiziqishlari va faolligini oshiradi. Agar o‘quvchilarning yosh xususiyatiga moslab mantiqiy masalalar berilsa, ularda ijodkorlik, hayotiylik, maqsadga intilish, mantiqiy va tanqidiy fikrlash kabi qobiliyatlari rivojlanadi. Chunki bunday qiziqarli va mantiqiy masalalar yechimini to‘g‘ri amal bilan aniqlab bo‘lmaydi va ular ustida ishlash, yechimni topish uchun topshiriqdagi har bir so‘zga, e’tibor berib, uning hayotga amal qilgan o‘rnini bilib, unga asoslanib yechgan o‘quvchigina to‘g‘ri yechimni aniqlashi mumkin. Agar o‘quvchi masala o‘qilayotganda topshiriqdagi biror detalga e’tibor bermasa bu uni noto‘g‘ri yechim yo‘liga olib boradi. Qiziqarli mantiqiy masalalar o‘quvchilarni mana shu noma’lumni topishga intilish davrida hayotiy hodisalar bilan bog‘lanishga, masala yechimini topishga qiziqishga majbur qiladi. Agar masalada gap borayotgan fikr yoki mulohaza chuqur mushohada qilinsa, o‘quvchi masala yechimini to‘g‘ri aniqlaydi. Ya’ni u masalada fikri yuritilayotgan predmet hayotda qayerda ishlatiladi, qanday ishlaydi, qanaqa foyda va zarari bor va qanday tuzilganligini bilib, ular ustida erkin fikrlay olishi kerak. Oddiy ko‘ringan bunday masalalar yechimi hech qachon birdaniga aniqlab bo‘lmaydi. U o‘zida sirli jumboqni yashiradi. Buni yechish uchun

o‘quvchi ijodkor va bilimdon bo‘lishi kerak. Masalada yashiringan ajoyib sirni o‘quvchi topsagina uni aniq va to‘liq yecha oladi.

So‘ngi yillarda ta’lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha farmon va qarorlar qabul qilindi va bunga asosan deyarli barcha dastur hamda darsliklar asosiga o‘zgartirishlar kiritildi. Bunga sabab bo‘lgan eng katta omil shunda ediki, bizning milliy o‘quv dasturimiz xalqaro talablarga hamda chet elning ko‘zga ko‘ringan ta’lim jarayonlari natijalariga tenglasha olmasligi edi.

Darsliklarda o‘quvchilarrni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga undaydigan misol va masalalar bilan boyitilish hozirda amalga oshirilayotgan jarayonlardan biri bo‘lib kelmoqda. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobilyatini shakllantirish masalasi bilan ularda to`g`ri, aniq, qisqa matematik nutqni o‘stirish masalasi uzviy ravishda bo`glangan bo‘ladi. Bu boshlang‘ich ta’limning muhim vazifalaridan biri. Mantiqiy masalalarni yechish o‘quvchilarda uzviy ravishda mustaqillikni o‘stirish bilan birga o‘qitish jarayonida qiziqishlarini oshiradi. Bunda tavsiya etilayotgan savol va topshiriqlar o‘quvchilardan ma’lum darajada izlanish talab qilsa-da, u bola kuchi yetadigan darajada bo‘lishi kerak. Matematik mashg‘ulotlarda bunday topshiriqlarni tanlash katta ahamiyatga ega. Bu mashg‘ulotlar o‘quvchilardan mustaqil kuzatishlar o‘tkazishni, qaralayotgan hodisalar narsalar va shu kabilarni taqqoslash, solishtirishni talab qiladi. Matematika fani boshlang‘ich sinflardan boshlab inson hayotining mazmuni ekanligi ko‘rsatib boriladi. Matematika haqiqiy olamning miqdoriy munosabatlari va fazoviy formalari haqidagi fandir. Matematikadan masalalar yechish o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Darsda o‘quvchilarni qiziqtiruvchi mantiqiy topshiriqlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Chunki o‘quvchilar bunday topshiriqlarni katta qiziqish bilan tahlil qila oladilar. O‘quvchilarni ko‘proq faollashtirish uchun ko‘pgina o‘quvchilar foydalana oladigan, ular sevgan ertak qahramonlarini “jalb qilish” usuli katta ahamiyatga ega.

O‘quvchi mantiqiy topshiriqlarni bajarar ekan, topshiriq yuzasidan mushohada yuritib, ma’lum hukm va xulosalarni chiqaradi. Mulohazaning real (chin) yoki yolg‘on ekanligini aniqlaydi, ya’ni ham mantiqiy ham tanqidiy fikr yuritadi.

Shu o‘rinda o‘quvchilarni mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda tanqidiy fikrlash qobiliyatini ham rivojlantirib borish muhim ekanligini aytib o‘tish kerak. Tanqidiy fikrlashga o‘rgatish o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarga erishishidagi asosiy omil bo‘lib, boshlang‘ich sinf matematika darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda yangi pedagogik texnalogiyalar va didaktik o‘yinlardan, muammoli savol va topshiriqlardan, turli xil rasm va boshqotirmalardan dars davomida oqilona hamda bolaning yosh va individual xususiyatlariga e’tibor bergan holda foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. Hozirgi kunda

o‘qituvchilarimizning raqamli texnologiyalardan dars mashg‘ulotlarida to‘g‘ri foydalana olishi va o‘quvchilarga bilim berishida raqamli ta’lim muhitini tashkil eta olishi kerak. Buning natijasida o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil o‘rganishi, shaxsiy o‘rganishga moslashishi va o‘zini ustida ishlashi kabi qobiliyatlari rivojlanadi. Zamonaviy inson uchun zarur bo'lgan kompetentsiyalarni tasniflashga urinayotgan xalqaro tashkilotlar raqamli, axborot va ilmiy savodxonlikning ahamiyati haqida gapirishadi. Ko'pincha bu turdagi savodxonlik bir -birini to'ldiradi.

Tanqidiy fikrlash texnalogiyasining g‘oyalari o‘quvchilarni tabiatan izlanuvchanligi, dunyoni o‘rganishga intilishi, jiddiy masalalarni ko‘rib chiqish va o‘ziga xos g‘oyalarni ilgari sura olishidir. Bu borada o‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarni tinimsiz o‘rganishga undaydigan samarali fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan o‘ychan yordamchi bo‘lishdir.

Tanqidiy fikrlashning muhim afzalligi shuki, u e’tiborsiz bildirilgan fikrlarni, noaniq tushunchalarini va yolg‘on argumentlarni aniqlashtiradi va fosh etadi. Lekin uning kamchiligi yaratuvchi va konstruktiv kuchga ega emasligidir. Tanqidiy fikrlash g‘oyamizni mustahkamlaydi, ammo konstruktiv, yaratuvchi fikr bilan ta’minlamaydi.

Quyidagi mantiqiy topshiriqlarni I-IV sinf o‘quvchilari bilan matematika darslarida bajarish tavsiya etiladi. Bunday turdagi mantiqiy topshiriqlar o‘quvchilarni mantiqiy hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

1-topshiriq: Xo‘roz tarozida ikki oyog‘ida turgan holda o‘lchanganda 3 kg chiqdi. Xo‘roz bir oyoqda turgan holda o‘lchanganda necha kilogramm keladi? (Javob: 3 kg)

2-topshiriq: Daraxt shoxida 9 ta chumchuq qator turibdi. To‘rtinchi chumchuq uchib ketdi. Daraxt shoxida nechta chumchuq qoldi? (Javob: 8 ta)

3-topshiriq: 500 metr masofaga yugurish musobaqasida 5 ta sportchi qatnashdi. Har bir sportchi qancha masofaga yugurgan? (Javob: 500 m) 4-topshiriq: Stolda 70 dona qog‘oz turibdi. Har 10 soniyada 10 ta qog‘ozni sanash mumkin. Bu xolda 50 ta qog‘oz sanab olish uchun necha soniya vaqt ketadi?(20 soniya. 10 soniyada birinchi o‘ntasi, keyingi o‘n soniyada ikkinchi o‘ntasi sanaladi. Stolda esa 50 ta qog‘oz qoladi.)

4-topshiriq: Bitta tayoqning 2ta uchi bo‘lsa, bir yarimta tayoqning nechta uchi bo‘ladi? (4ta)

Ushbu ijodiy topshiriqni o‘quvchi faqatgina mantiqan fikrlab yecha oladi. Bunda o‘quvchi quyidagicha mushohada qilishi mumkin: Nodirning opa-singillari soni uning akalari soniga teng. Uning singlisi Umidaning akalari soni opasi sonidan uch marta ko‘p. Demak, Umidaning 1 ta opasi va 3 ta akasi bor ekan. Oilada 3 ta o‘g‘il va 2 ta qiz bor.

Xulosa qilib aytganda, hayotdan olingan turli mantiqiy masala-topshiriqlar o‘quvchiga zavq bag‘ishlaydi. O‘quvchi topshiriqni yechish yo‘llarini qidiradi.

Bunday topshiriqlar o‘quvchining nafaqat matematik bilim va malakalarini mustahkamlaydi, balki uning mantiqiy tafakkurini o‘stiradi, o‘quvchini izlanishga, topqirlikka, maqsad sari intilishga da'vat etadi.

Bunga o`xshagan mantiqiy topshiriqlar darslikda ko`p uchraydi. Ular o`quvchilar diqqatini darsga qaratishga va ularning ijodiy faoliyatlarini oshirishda katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak”. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-shtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan shtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bagishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza. 2017-yil 14-yanvar.

2. Farberman B.L. Progressinie pedagogicheskie texnologii.-T.,1999. 165-bet.

3. SOROS xalqaro ochiq jamiyatining «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» fanlararo dasturi. T. 2004.

4. Aganov I.G. K voprosu o formirovaniye kriticheskogo obrazovaniye. 2001.№

5. Nishonov A, Xaydarov B, Nuriddinov B. va boshqalar. Baholash metodlari. O‘quv metodik qo‘llanma. T., 2003. 190 bet.

ALISHER NAVOIY IJODIDA SO‘Z SEHRI VA TIL JOZIBASI

Ermatova Ma’rifat Ahmadjonovna
Farg‘ona viloyati Buvayda tumani 12-son umumiy
o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7437541

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy ijodi haqida, uning ijodida so‘zning naqadar ahamiyatli, jozibali sanalganining sabablari va ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, Mahbub ul-qulub asari orqali namunalar keltirib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: she’riyat, adabiyot, nasr, janr, Mahbub ul-qulub, janr, til.

“Til muncha sharaf bila nutqning olatidir va ham nutqdurki,
agar nopisand zohir bo‘lsa, boshning ofatidir...”
(A.Navoiy “Mahbub ul-qulub”dan)

Navoiy o`z asarlarida nutqning kishilar kundalik ehtiyojini qondiruvchi nodir vosita ekanligini qayd etdi. “Mahbub ul-qulub” asarida voizlar til odobi xususida fikr yuritsa, “Muhokamat ul lug‘atayn” asarida o`zbek adabiy tilining boyligini e`tirof etdi. Nainki e`tirof etdi, balki tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ta`kidladi. So`zning tarixiy-madaniy xizmati beqiyos, ammo til imkoniyatlari nutq jarayonidagina ochib beriladi. Agar nutq bo`lmas ekan, tilning, so`zning cheksiz imkoniyatlari ruyobga chiqib chiqmay qolaveradi. “Majolisun-nafois” da so`zning voizlari hayotida tutgan o`rni haqida ham shaxsiy mulohazalar bayon qilinadi. “Nazmul javohir” asarida esa so`z qudratli vosita ekanligi, insonga hayotiy zarurat sanalishi aytib o`tiladi. Tarixdan ma`lumki, Navoiyning o`zi ham mohir notiq bo`lgan va shirin kalomi, o`tkir tafakkuri bilan xalq qalbidan joy olgan va o`z asarlarida ham xaloyiqqa nafi tegadigan, el yuragidan joy oladigan shirin-zabon so`zlar so`zlashni, chiroyli va ravon nutq tuzish yo`llarini o`rganish lozimligi haqida mukammal fikrlar bayon etgan.

Navoiy tilni o`sib, rivojlanib boruvchi, jamiyatning ehtiyojiga muvofiqlashuvchi zarurat ekanligini anglab, tillar o`zaro aloqada bo`ladi, bir-biriga chatishadi deb hisoblaydi. Navoiy kishining nutq qobiliyatini tug‘ma ekanligini ta`kidlaydi. Alisher Navoiyning nutq madaniyati masalalariga bag‘ishlangan fikrlari yanada mukammalroq ifodalangan asari “Mahbub ul-qulub” dir. Chunki shoir bu asarida tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq so`zlovchi dilidagi fikrni to`g‘ri aks ettirish lozimligi haqida fikrlar bayon qiladi. “Saodatbaxsh ruh zuloliga matla` ham til. Tilga iqtidorlig‘-hakimi xiradmand, so`zga ixtiyorsiz-layni najand. Tilki fasih va

dilnazir bo`lgay, xubroq bo`lgay agar ko`ngil bila bir bo`lgay” deb yozadi Navoiy. Ma`nosi: “Saodatbaxsh ruhning tiniqligi manba ham til, baxtsizliklar yulduzining boshlanishiga sabab ham til. Tiliga kuchi yetadigan kishi aql podshosidir: so`zga ahamiyat bermaydigan kishi la`natlangan, pastdir. Til go`zal va dillarni olovlantiruvchi bo`lishi bilan birga, so`zlovchining dilidagini aks ettirsa, yanada yaxshiroq bo`ladi”. Navoiy til deganda nutqni ko`zda tutgan. Til, ya`ni so`z o`zining ko`p yaxshi fazilatlari bilan nutq uchun material ekanligini, nutqning qo`polligi, maqsadga muvofiq bo`lmasligi so`zlovchiga zarur yetkazishini alohida ta`kidlab o‘tadi.

Mayin, yoqimli, shirali ovoz bilan so`zlash odobi haqida, o`ylamasdan so`zlamaslik lozimligi haqida: “Tildin azubat dilpisanddur va miynat sudmand. Chuchuk tilki achig‘liqqa evruldi, zarari oni bo`ldi. Chuchuk so`z sof ko`ngullarga nushdir... So`zni ko`ngulda pishqormaguncha tilga kelturma, harnakim ko`nglungda bo`lsa, tilga surma” deydi. Buning ma`nosi shundayki, tilning shirin, yoqimli va yumshoqligi foydadir. Chuchuk til achchiqqa aylansa tinglovchiga zarar yetkazadi. Qandni mast qiluvchi aroq qilsalar, harom bo`ladi. Chuchuk so`zni toza ko`ngullar simiradi. So`zni ko`ngulda pishitib olmaguncha so`zlamagin, ko`nglingda bo`lgan har qanday fikrni ham ayta berma. Nutqdan maqsad fikr anglatishdir: “Ammo so`zlar va saboqlardin murod ma`nodur”.

Nutq nazariyasi bilan jiddiy shug‘ullangan shoir “Mahbub ul-qulub” asarining 24-bobini voizlik ilmiga bag‘ishlaydi. Navoiyning o`zi ham notiqlik san`atini o`z davrida yuksak darajaga ko`targan. “Tilga ixtiyorsiz-elga e`tiborsiz” yoki “Ma`dani inson gavhari so`z durur, gulshani odam samari so`z durur” deb yozadi. Navoiy 24 bob “Nasihat ahli va voizlar zikriga” bag‘ishlangan bo`lib, shoirning fikricha “voiz uldurki, majlisg‘a kirgan to`lg‘ay va to`la kirgan holi bo`lg‘ay”. “Mahbub ul-qulub” da “Og‘ziga kelganni demoq-nodonning ishi”, “Aytar so`zni ayt, aytmas so`zdan qayt”, “Chin so`z-mo``tabar yaxshi so`z-muxtasar” kabi hikmatli so`zlar, maqollar anchagina. Navoiy ham shu mazmundagi baytlar yaratadi. Shoir nazarida so`z o`likni tiriltirish kuchiga ega:

Ham so`z ila elga o`limdin najot,
Ham so`z ila topub o`luk tan hayot.

Ba`zan bir so`z bilan tirik vujud, salomat inson ham jonsiz o`lukka aylanishi mumkin. Yolg‘on so`z ham shunday qudratga ega:

O`luk gar andin erur joni pok,
Valekin tirikni ham aylar haloq

Navoiy ta`kidlashicha, shirin so`z bilan ko`p ishlar amalga oshadi. Achchiq may, boda ham chuchuk til bilan uzatiladi. Hatto “chuchuk so`z elga izhor” etish orqali u kim bo`lmasin, “har nechakim ag‘yor zurur yor” ga aylanadi. Xalqimiz tili achchiq, inson ko`ngliga ozor beruvchi kishilarga “tili zahar”, “tilidan zahar tomadi”

kabi nisbatlarni beradi. Bunday kishilardan hamma o`zini chetga tortadi. Dildan suhbatlashishni istamaydi, aksincha, zarurat yuzasidangina muomala qilishga majbur bo`ladi. Navoiy bu taxlit “achchiq so`z, anfos” lik kishilardan “istig‘no” zarurligini o`rinli ta`kidlaydi:

Har kimki achchiq bo`ldi so`zi, anfosi,
Bor suhbatidin xalqning istig‘nosi.

So`zlashning ham me`yorlari bor. “*Boisi g‘aflat ko`p so`z*”- ko`p gapirish ham g‘aflat, g‘ofillikka sabab. Har qancha suxandon bo`lsa ham, imkon bo`lguncha so`zni qisqa gapirish zarur. To`g‘ri va rost so`z mavjud. Yolg‘on va yolg‘onchilik bor. Shoir o`gitiga so`zlayotgan kishilarning kimligi, qandayligi uning ko`rinishi bilan emas, so`zlanayotgan gaplaridan ayon bo`ladi. Ko`ngilga kelgan har bir fikrni tilga chiqaraverish beburdlikka olib keladi. Behuda, beburd va masxaraomuz so`zlash kishining o`ziga ozor yetkazadi. Tili kesilishiga olib keladi. So`zni ko`ngilda pishitib, mulohaza qilib, so`ng “tilga surmoq” kerak. Har bir kishining so`zi-uning ko`nglini aks ettiradi. Shoir aytmoqchi:

Senga bor esa so`z bilurdin mazoq,
O`zim sari boqma, so`zim sari boq.

“*So`z*” deganda Navoiy nimalarni nazarda tutadi? Professor ***A.Hayitmetov*** shunday yozadi: “Navoiy “so`z” ni o`z asarlarida ko`p ma`noda ishlatadi. U “*so`z*” termini ostida insoniyatning hamma ma`naviy boyligini-alohida ijtimoiy kategoriya bo`lgan tilni ham, ideologiya shakllaridan hisoblangan falsafa va badiiy adabiyotni ham tushuna beradi hamda ularni ko`p vaqt bir-biridan farq qilmaydi”.

Navoiy “so`z” haqida gapirganda qo`yidagilarni e`tiborga oladi:

1. So`z-til ma`nosida.
2. So`z-muomala, gapirish, nutq mohiyatida.
3. So`z-badiiy ijodda, mazmunni shakllantiruvchi vosita tarzida.

Navoiy talqinicha, so`zning (tilning) insoniyat hayotidagi o`rni beqiyos. U insonning insonligini, barcha jonzotlardan yuksak ekanligini anglatuvchi unsur. Ollohning bashariyatga in`om etgan ulug‘ ne`mati tildir:

Tengriki, insonni qilib ganji roz,
So`z bila hayvondin anga imtiyoz.

Tangri, insonni “ganji roz”-sirlar xazinasi qilib yaratdi. U bir mo``jiza. Odamning hayvondan “imtiyozi”-farqi “so`z bila”-til bilan bo`ldi. Agar bu baytda gap bevosita til haqida borayotgan bo`lsa, ba`zan til va so`z alohida-alohida hodisa sifatida talqin etiladi. Shoir tilni po`lat xanjarga qiyoslaydi. So`z esa, shu xanjarga bezavk beruvchi, unga qadalgan injulardir: Mana bu baytda ham shunga xos ifoda:

So`z bila kufr ahli musulmon bo`lib,
So`z bila hayvon degan inson bo`lib.

Birinchi misrada “Shirin so`z”, “ta`sirli so`z”, “nasihatomuz so`z”, “yumshoq va muloyim so`z” va xokazo-gap bilan “kufr ahli” iymonsiz, e`tiqodsiz kishilar ham “musulmon” bo`lishi, to`g‘ri, yo`lga kirishi ta`kidlanadi. Ikkinchi misrada esa, odamni hayvondan ajratuvchi vosita-til haqida gap boradi. Navoiy so`zni ajib, sehrli va qimmatbaho gavhar sifatida e`zozlaydi. Ko`pgina baytlarda, ayniqsa “Xamsa”, “Mahbubo‘l qulub” singari asarlarida so`z, uning o`rni, inson hayotidagi ahamiyati, so`zlash madaniyati, so`zning badiiy ijoddagi mavqie, so`z odobi kabi tomonlar xususida mulohazalar bildirgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 11-tom. Xamsa. Saddi Iskandariy. T.:“Fan”, 2002.
2. Qosimov B. Maslakdoshlar. – T., Sharq, 1994. – 160 b.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T., «Xalq merosi» nashriyoti, 2004.

ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH ASOSLARI

Saparboyeva Nasiba Baltaboyevna
Eshchanova Hamida Xudoyorovna
Xorazm viloyati Shovot tumani 15-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Ona tili adabiyot fani o‘qituvchilari
https://doi.org/10.5281/zenodo.7437574

Annotatsiya: Ushbu maoqlada umumiy o‘rta ta’lim maktablari ona tili darslarida yangi pedagogik metod-uslublardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ona tili, metod, pedagogika, interfaol metodlar, innovatsiya, fikr-mulohaza, ta’lim tizimi.

Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg`ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo`llanilganda mustaqil ishlash ko`nikma va malakasi rivojlanadi. Ma`lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo`lib, ularning aksariyati tajriba–sinovdan o`tib, yaxshi natija bergan. *Ta`lim texnologiyalarini o`quv jarayoniga tadbiq etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:*

- darsni o`qitish jarayonida har bir o`quvchining bilimlarni o`zlashtirishda erkin muloqatga kirishishini rivojlantirish;
- ta’lim jarayonida asosiy e`tiborni bilim oluvchining faolligini oshirishga va dars jarayonida ham faollikni oshiruvchi metod va zamonaviy ta`lim vositalaridan foydalanish.

O`qituvchi darsga tayyorgarlik ko`rish mobaynida o`quv vositalarini dars mavzusiga qarab tanlaydi va asosiy e’tiborni qo`llaniladigan metodlar va o`quv vositalariga qaratadi. O`qituvchi har bir mavzuga mos yangi usullar va texnik vositalardan o`z o`rnida va unumli foydalana olsa, shundagina ko`zlagan maqsadga erisha oladi. Bu esa o`quvchilarni mustaqil bilim olishga, berilgan aniq mavzu bo`yicha atroflicha fikrlashga va ijodiy faol bo`lishga yo`naltiradi.

Hozirgi kunda keng qo`llaniladigan usullar –“*Klaster”,”Aqliy hujum”,”Debat”, Muammoli vaziyat*” kabilardan foydalanib, o`qituvchilar darsda samarali natijalarga erishmoqda. Ona tili va adabiyot darslarida ham zamonaviy usullardan foydalanish o`quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda yaxshi samara beradi. “*Nihol o`stiramiz*” usuli orqali yangi mavzuni mustahkamlash mumlin. Bunda dars

boshida o`quvchilarini guruhlarga bo`lib olamiz. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida har bar guruhga 1 donadan oq qog`oz beriladi. O`quvchilar bu usul asosida yangi mavzu bo`yicha olgan bilimlarini mustahkamlashadi o`quvchilar oq qog`ozga nihol chizadi va niholni parvarishlab o`stiradi. O`quvchilar yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlari bilan niholni parvarishlaydi. Har bir olgan ma`lumot bilan niholda bitta shox paydo bo`ladi. Shu tariqa nihol bir daraxtga aylanadi va o`qituvchiga o`quvchilar yangi mavzuni qay darajada o`zlashtirganini aniqlashga qulaylik yaratadi. Bunda o`quvchilarning tasviriy san’at faniga bo`lgan qiziqishi ortadi, daraxtni qay darajada tasvirlashi orqali ularning fikrlashini rivojlantirib boradi. Shoir yoki adibning hayoti va ijodi haqidagi ma`lumotlarni o`quvchilar qay darajada eslab qolganini, shu bilan bir qatorda uning yaratuvchanlik menatsevarlik qobiliyatlari shakllanib boradi. O`quvchilarninhg tabiatga bo`lgan mehr-muhabbati ortib boradi.

Ona tili va adabiyot darslarida ham zamonaviy usullardan foydalanish o`quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda yaxshi samara beradi. “Nihol o`stiramiz” usuli orqali yangi mavzuni mustahkamlash mumlin. Bunda dars boshida o`quvchilarini guruhlarga bo`lib olamiz. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida har bar guruhga 1 donadan oq qog`oz beriladi. O`quvchilar bu usul asosida yangi mavzu bo`yicha olgan bilimlarini mustahkamlashadi o`quvchilar oq qog`ozga nihol chizadi va niholni parvarishlab o`stiradi. O`quvchilar yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlari bilan niholni parvarishlaydi. Har bir olgan ma`lumot bilan niholda bitta shox paydo bo`ladi. Shu tariqa nihol bir daraxtga aylanadi va o`qituvchiga o`quvchilar yangi mavzuni qay darajada o`zlashtirganini aniqlashga qulaylik yaratadi.

Bunda o`quvchilarning tasviriy san’at faniga bo`lgan qiziqishi ortadi, daraxtni qay darajada tasvirlashi orqali ularning fikrlashini rivojlantirib boradi. Shoir yoki adibning hayoti va ijodi haqidagi ma`lumotlarni o`quvchilar qay darajada eslab qolganini, shu bilan bir qatorda uning yaratuvchanlik menatsevarlik qobiliyatlari shakllanib boradi. O`quvchilarninhg tabiatga bo`lgan mehr-muhabbati ortib boradi Ta`lim-tarbiya bir joyda to`xtab qolmaydi, u doimiy takomillashuv jarayonida.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o`sib kelayotgan yosh avlodga bilim berishning yangi usullarini ishlab chiqib, o`quv jarayoniga tavsiya etish dolzarb masalalardan biridir. Ta`lim-tarbiya bir joyda to`xtab qolmaydi, u doimiy takomillashuv jarayonida. Shunday ekan, o`sib kelayotgan yosh avlodga bilim berishning yangi usullarini ishlab chiqib, o`quv jarayoniga tavsiya etish dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizov B. R "Ta‘limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari" ped. fanl. dokt.daraja olish un yozilgan dess. T: 2003, -280 b

2. Adizov B. R Ijodiy ta‘lim jarayoniga tizimli yondashuv// "Xalq ta‘limi" jurnali. -2001. 4-son.

3. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘quvchisining psixologiyasi. T., O‘zbekiston 30 bet.

4. Karimova V.M. Sunnatova R. va boshqalar. Mustaqil fikrlash. Akademik litseylar va kasb- hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma.- T.: SHarq, 2000.

5. Matchonov S. Kitob o‘qishni bilasizmi? -T.: O‘qituvchi 1993-114 bet.

TARIXIY ASARLARDA AYOLLAR OBRAZI TALQINI

Hasanova Hulkaroy Raximovna
145-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi O‘zbek tili fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7437588

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy tarixiy asarlarda ayollar obrazining talqin xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar yurutilgan. Shuningdek, ushbu tahlilni Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani namunasida tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: Badiiy adabiyot, ayollar obrazi, talqin xususiyati, O‘tkan kunlar, ilmiy tahlil, psixologiya.

Tarixiy badiiy adabiyotshunoslikda asar tahliliga doir muammolarni psixoanalistik jihatdan o‘rganish va uni anglash zarurati ijtimoiy sohalarda jiddiy masalalarni kun tartibiga qo‘ymoqda. Ayniqsa, filologiya sohasida g‘oyaviy pishiq, mazmunan mukammal, sifat jihatidan o‘ta yangi ilmiy izlanishlar olib borish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ayol psixologiyasini tahliliy o‘rganish insonning ma’naviy olami, dunyoqarashi, tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni kashf etishda muhim. Adabiy jarayon doim ishtimoiy muhit, adabiy-ma’naviy, madaniy hayot bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Zero, bashariyatning ongu tafakkuri, ruhiyatidagi yangilanishlar, asosan, adabiyot va san’atda o‘z aksini topadi. Bunda adabiyotshunoslik fani ham o‘z obyektiga yangi nigoh bilan qarash, ayol ruhiyatiga oid muammolarni chuqurroq anglash yo‘lidan bordi. Badiiy adabiyotda ayolning ruhiy dramalarini to‘laqonli aks ettirishda jahon nasrining ilg‘or ijodiy tendensiyalariga xos jihatlar namoyon bo‘lmoqda. Adabiy jarayonda ayolning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni, uning sohir tuyg‘ulari, murakkab ruhiy olamini tasvirlashda falsafiy-psixologik, ramziy-majoziy obrazlilik ustunlik qilmoqda. Bunda eng muhim vazifa muayyan xilqat ruhiyati, tasvir va ifodaning yangicha talqini bilan bog‘liq.

Yozuvchi o‘z asariga qahramonlar, personajlar va hayotiy unsurlar tanlar ekan, uning bu ishi doimo ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu sababli adib har bir obrazga ma’lum ma’no yuklaydi va uni individual sifatlar bilan tasvirlaydi, ana shu ma’no, maqsadga xos so‘zlatadi, harakat qildirtiradi. Bunda har bir leksik - stilistik unsur juda muhim rol o‘ynaydi.

Buni biz XX asr o‘zbek adabiyotining buyuk darg‘alaridan biri bo‘lgan Abdulla Qodiriyning «O‘tgan kunlar» romani misolida ko‘rishimiz mumkin. Ushbu asar bamisoli ulkan va tiniq kuzgu, unda o‘zbek millatining muayyan tarixiy sharoiti, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlari, ruhiy-ma’naviy dunyosi, bo‘y-basti, qiyofasi keng ko‘lamda aniq-ravshan tasvirlanadi. Shu bilan birga asarda ko‘rsatilgan ayollar ya’ni

Kumush, Zaynab Xushruy va O‘zbekoyim, Oftoboyim obrazlari o‘ta ta’sirchan bayon etilgan. Bu xotin-qizlar bir ijtimoiy muhit va bir jinsga mansubligiga qaramasdan bir-biridan o‘ta farqli, yorqin obrazlardir. Masalan Kumush, Oftoboyim ijobiy obrazda, Zaynab va Xushruh salbiy obrazda tasvirlanmoqda. Yozuvchi o‘zgacha muhabbat va samimiyat bilan go‘zal, Otabekka bo‘lgan sof va butun vujudini qamrab oluvchi sevgi ila hayot sinovlarini yengib o‘tuvchi Kumush obrazini yaratadi. Kumush – Orzubob obraz. Uning xatti harakati tasviriga kelsak Abdulla Qodiriy uni faqat erkalab chizgilar keltiradi. Uning portreti, har bir xatti-harakatida muallif mislsiz inju latofat kuzatadi. Bizning fikrimizcha, o‘zbek adabiyotidagi biror ayol qahramoni ijodkor tomonidan bunday erkalatilgan emas.

Muallif Kumush obraziga jiddiy yondoshgani kabi, O‘zbek oyim obraziga nisbatan komik talqin usulini qo‘llaydi. “O‘zbek oyim uncha-muncha to‘y azalarga” “kovshim ko‘chada qolgan emas”, deb bormas edi. Yani muallifning “O‘zbek oyim uncha-muncha to‘y azalarga bormas edi” degan axboroti-gapiga qaxramon tilidan “kovshim ko‘chada qolgan emas” iborasining qo‘shilishi natijasida obraz tabiatidagi oqsuyaklik sifati yaqqol ko‘ringan. Obraz tabiatidagi komik qirra ham aynan shu - “kovshim ko‘chada qolgan emas” iborasi bilan bog‘liq. Agar o‘zbek oyim fikrini “ular mening tengim emas” shaklida ifoda etganida u bilan o‘quvchi o‘rtasida dramatik vaziyat yuzaga kelar edi. Fikrning ayni ibora vositasida ifoda etilishi esa o‘quvchiga O‘zbek oyimga nisbatan nafrat emas, komik tuyg‘u uyg‘otadi. Aslida O‘zbek oyim esa qotib qolgan xarakter emas. Voqealar jarayonida, muhit ta’sirida mana shu o‘jar ayol ongida, tabiatida o‘zgarishlar sodir bo‘ladi; chunonchi, bir vaqtlar orqavarotdan «andi» sanalib yurgan Marg‘ilonlik keliniga ilk bor duch kelganda mehri jo‘shib, uni mahkam bag‘riga bosadi, yuzidan o‘pib, negadir yig‘laydi, endi Zaynab qolib Kumush tomonga o‘tib ketadi.

Shuningdek, Zaynabning ayollik sha’ni, nafsoniyati tahqirlanganligi, javobsiz sevgi alamida o‘rtanib, sevmagan odam Otabek quchog‘iga o‘zini tashlab «jonsiz haykalni» o‘pib quchoqlab yolvorishlari manzarasini ko‘rganda Zaynabning shu qadar yurak dardi borligini bilib o‘quvchi unga behad achinadi. Lekin asar yakunida Kumushni zahar berib, o‘limiga sababchi bolganini ko‘rib Zaynabga bo‘lgan achinish hissi so‘nadi.

Kumushning Toshkentda qolgani Zaynabga nechog‘lik og‘ir ekanligini bilish qiyin yemas. Kumush kelgan kundanoq Otabekdagi jonlanish, Yusufbek hojining Marg‘ilonda shunday kelinim bor ekan, bilmay yurgan yekanmiz degan so‘zlari, Zaynabga qanchalik og‘ir yekanligini tasavvur qilish kerak. O‘zbek oyimning Zaynabga bo‘lgan munosabati o‘zgaradi. Zaynab o‘tirsa o‘poq, tursa so‘poq, undan faqat xato va kamchilliklar axtaradi. Hammaning tilida Kumush. Kumush va Zaynabning o‘zaro urushlari Otabekni ham qiyin ahvolga solib qo‘yadi. Yusufbek hoji Zaynab bilan Kumushni xonasiga kirgizib pand-nasihat qiladi, ikkisini

yarashtirib qo‘yadi. Bu mojarolar davom yetsa ikkalalaringdan bittalaringning javoblaringni beraman degan Otabekning achchiq so‘zlari Zaynabga qattiq ta’sir qilardi. Chunki Zaynab bilardi, Otabek Kumushni qanchalik sevishini. Otabekning bu gaplari Zaynabga aytilayotgandek tuyilar edi.

Kundoshlik muhitida bo‘sh-bayov, mut’e Zaynab sekin-asta «haqi» ni tanib, qasoskorga aylana boradi. Biroq u hali qotil darajasiga borgan emas. Ehtimol, egachisi Xushro‘y uning ko‘zini ochmaganida, o‘ziga «o‘zligini anglatmaganida» bir umr kuydi-chiqdilar ichida Kumush bilan murosa qilib o‘tavergan bo‘larmidi. Demak, Zaynab ko‘ngliga g‘ulg‘ula solgan Xushro‘y ham muayyan darajada Kumush halokatiga sababchi. Biroq yozuvchi bu ayolni ham oshkora qoralamaydi.

Odamni titratib yuboradigan yana bir yorqin milliy lavha: Kumush zaharlanib o‘lim to‘shagida yotibdi. Qaynotasi Yusufbek hoji Kumushning boshiga kelib o‘tirdi. Kelinning ko‘zi yumiq, sochlari yuzi ustida parishon. Hoji kelinning sochlarini tuzatib, manglayiga qo‘lini bosdi, «Oyim... oyim» deb murojaat yetadi. Bunaqa tig‘iz holatda yoshi ulug‘ odam, qaynotaning kelin yoniga kelib parishon sochlarini tuzatishi, manglayiga qo‘lini qo‘yib hol-ahvol so‘rashi tabiiy bir hol. Shunga qaramay Kumush ko‘zini ochib besaranjom unga nazar tashlaydi va tanib... qo‘zg‘olmoqchi buldi. Qarangki, behush yotgan kelin bir dam o‘ziga kelib qaynotasini tanib, uning oldida hijolat chekib, o‘sha nochor holatda ham odob bilan qo‘zg‘olmoqchi, o‘rnidan turmoqchi bo‘ldi.

Kumushning ahvoli borgan sari og‘irlashdi va kuchli qonli qaytlardan keyin bu dunyoni tark yetdi. Zaynab nima bo‘ldi degan savollar tug‘iladi. U Kumushning hayotiga nuqta qo‘yibgina qolmay, balki o‘zining baxtli hamda baxtsiz kuniga nuqta qo‘ydi. U telbaga aylanib, men Kumushman deya qabristonlarda kezib yurardi.

«O‘tgan kunlar» romanidagi voqealarga xulosa qilib aytganda romanni o‘qigan har bir o‘quvchi undagi Otabek, Kumush, Yusufbek hoji, Qutidor, Oftob oyim kabi ijobiy obrazlardan bahra oladi. Zaynab, Xushro‘y, Homid kabi baxil, qora niyatli salbiy obrazlarning taqdiri hamisha shu ahvolga tushushini asar davomida biladi. «O‘tgan kunlar» romanini o‘qiganda boshdan-oyoq qulog‘ingiz ostida voqea-xodisalar ruhiga mos musiqiy ohang yeshitilib turganday bo‘ladi. Bu ohanglar o‘quvchi dilida har xil kayfiyatlar uyg‘otadi. «O‘tgan kunlar» romani hayot haqiqatlarining xilma-xil qirralarini o‘zida mujassam yetgan, sir-sehrga to‘la noyob go‘zalliklar obidasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Y.Eshmatova. Istiqlol davri o‘zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. PhD, Dissertatsiya. B– 4.

2. U.Jo‘raqulov. Qodiriy va roman tafakkuri. – Toshkent “Nurafshon business” 2020. B –93.

3. A.Qodiriy. O‘tgan kunlar – Toshkent “Navro‘z” 2019. B – 310,314,340,375.

O‘ZBEK ADABIY TILI DARAJALANISHINING LEKSIK ASOSINI YARATISH ZARURATI

Irisqulova Dilfuza Kamalovna
145-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi O‘zbek tili fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7437595

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo tilshunosligida til darajalarining o‘rganilishi, shuningdek, hozirgi o‘zbek adabiy tilida darajalanishning leksik asosini yaratish zarurati xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: til darajalari, axborot texnologiyalari, elektron lug‘atlar, CEFR, Milliy sertifikat.

Til ma’naviy merosimizni asrash va boyitishning asosiy vositasi hisoblanadi. Tillarni saqlab qolish milliy ma’naviyatni saqlab qolish demakdir. Zero, asl ma`naviyat faqat milliy shakldagina mavjud bo‘ladi. Mamlakatimizda tilga e`tibor ma’naviyatga e`tiborning ustuvor yo‘nalishlaridan biri darajasiga ko‘tarildi. Shu bois, ona tilimizni avaylab-asrash, boyitish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, o‘zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo‘llanishiga erishish kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifaga aylandi. Chunki ona tilimizning jahonga chiqishiga erishish milliy ma’naviyatni takomillashtirish va yuksaltirishning asosiy yo‘llaridandir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari tilning funktsional imkoniyatlaridan foydalanish borasida benihoya keng qulayliklar eshigini ochdi. Kompyuter tarjimasi, tahriri, tahlili, elektron lug‘atlar va tezaurus(til xazinasi)lar fikrimiz tasdig‘idir. Ayniqsa, zamonaviy elektron lug‘atlar tuzish va ulardan foydalanish madaniyatini shakllantirish til imkoniyatini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda har bir sohada axborot-texnologiyalaridan unumli foydalanishga, dasturiy ta’minot asosida tuziladigan loyihalarga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining bir qancha qarorlari va farmonlari, farmoyishlari qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-maydagi “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrdagi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 1-fevraldagi “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1730 sonli qarori va shu kabilar misol bo‘la oladi.

Bugungi kunda amaliy tilshunosligimiz oldida turgan eng muhim masalalardan biri – o‘zbek tili birinchi, ikkinchi va uchinchi darajalarining leksik, morfologik va

sintaktik asosini yaratishdir. Jahon tajribasiga tayanib, o‘zbek tilining tabiatini hisobga olgan holda o‘zbek tili darajalarining leksik asosini yaratish lozim. Tilning lingvistik sathlararo darajalanishida quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- Tilning leksik sathining ko`lamini o`rganish, ya’ni o`zbek tili izohli lug`atlari bilan tanishib chiqish;
- Leksik darajalanishda chastotali lug`atlardan unumli foydalanish ko`nikmasini shakllantirish;
- Tilni o`qitish va uni baholash metodlari bilan tanishib chiqish;
- Birinchi daraja uchun muhim bo‘lgan leksik qamrovni aniqlashda o‘quvchilar, talabalar va til o‘rganuvchilar uchun maxsus eksperiment metodlarini ishlab chiqish;
- Tillarni o‘qitish va baholashda Yevropa standarti va DTS talablarini solishtirish hamda o‘zaro moslashtirish;
- Leksik sathni darajalash va bu orqali o‘zbek tili profillarini yaratishga tavsiya berish va b.q.

Hozirgi o‘zbek tilshunosligining nazariyasi, grammatik qonuniyatlari XX asrdan tilning sistem tabiatiga ko‘ra tizimlashtirila boshlandi. Tilshunoslikda ushbu nazariyalarga asoslangan tizimli amaliyotga yondashish vaqti kelgan bir paytda o‘zbek adabiy tilining darajalanishi ayni muddao. Bunda jahon tilshunosligi nazariyasi va amaliyotiga tayanib, CEFRL va IELTS qonun-qoida va ko‘nikmalariga asoslangan holda ona tilimizning yangi darajalanish qolipi yaratiladi. Tilni darajalash xalqaro maqomdagi tillar va jahon tillari miqyosida amalga oshirilgan bo‘lib, o‘zbek adabiy tili uchun nazariy va amaliy yangilik hisoblanadi.

O‘zbekistonning davlat tili - o‘zbek tili ham tarixiy taraqqiyot natijasida adabiy til sifatida shakllanib, hozirda butun dunyo bo‘yicha ellik milliondan ortiq iste’molchilariga egadir. O‘zbek tilidan foydalanuvchilar ko‘lamining oshishida o‘zbek tilining mukammal grammatikasini ishlab chiqish va o‘rgatishning oson va aniq me`yorlarini belgilash nafaqat xorijliklarning til o‘rganishi, balki o‘zbek xalqi savodxonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Xalqaro tillarning o‘ziga xosligi ularning grammatikasi ma’lum me’yorlar, qonun-qoidalar asosida barcha uchun umumiy o‘rgatish va o‘rganish qolipi - darajalanganligi bilan bog‘liqdir. Jahonning barcha tillarida tipologik universal hodisalar ularni o‘rganish metodlari uchun ham amal qiladi, ya’ni tillar nazariyasi va amaliy metologiyasi bir-biri bilan o‘zaro oziqlanadi. Shundan kelib chiqib, o‘zbek adabiy tilini darajalash tilshunoslikda zamonaviylik va aniqlikka asoslangan hodisa sifatida tub burilish yasaydi. Buning uchun, avvalo, lingvistik darajalangan tillar, ularning qonuniyatlari, darajalanish tamoyillari bilan tanishish va darajalangan tillarning umumiy hamda differensial jihatlarini aniqlash lozim. Bu borada biz o‘z-o‘zidan mamlakatimizda eng keng

tarqalgan va boshqa tillarga nisbatan qiziquvchilar soni ko‘pligi jihatidan ingliz tilining darajalanishiga asoslanamiz.

Bugungi kunda dunyoda yetti mingdan ortiq tillar ichida ikki yuzga yaqini rasmiy davlat tili sifatida iste’moldadir. Biroq, tilning “tirikligi” milliy tilga rasmiy til maqomini berish bilan o`lchanmaydi. Dunyoda har bir tilning nufuzi va mavqeyini oshirish ushbu tilda gaplashuvchilar sonining oshib borishi hamda iste’mol ko`lamining kengayishi bilan bog`liq. Bu esa tilning ijtimoiy yashovchanligini belgilovchi omillardan biridir. Tilning “tirikligi” o`z navbatida o`sha xalqning etnik barqarorligini ta’minlaydi. Shunday ekan, o‘zbek tili darajalarining leksik asosini yaratish bugungi tilshunosligimiz oldidagi eng ustuvor vazifalardan bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dr. Yohann Shustereder. Beshinchi o`quv moduli: Chet tilini o`qitish (FCG International Ltd, tarjima ingliz tilidagi versiya asosida). - Finlandiya. 2017.

2. Tillar leksikasini Yevropa standati (CEFR) bo`yicha baholanish tamoyillari; - Yevropa kengashi, 1996.

3. Franchoise Kusseling. Fransus tilini o`qitish va o`rganishda so`z boyligining Yevopa standarti (CEFR) bo`yicha baholanishi//Dsc. –Fransiya, 2012.

TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN DARS JARAYONIDA FOYDALANISH ASOSLARI

Rahmonqulova Nargiza Erkinovna
145-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi
O‘zbek tili fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7437606

Annotatsiya: Ta’limda innovatsion faoliyat-pedagogning o‘z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta’limdagi innovatsiyalar va innovatsion faoliyat haqida barqaror, hammaga ma’qul bo‘lgan ilmiy tasavvurlar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma’qul bo‘lgan ilmiy tasavvurlar tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e’tirof etish lozim.

Kalit so‘zlar: texnologiya, innovatsion, konsepsiya, manbalar, tashkiliy, metodik, psixologik, pedagogik jamoalar, parametrlari, innovasiyon o‘qitish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ***Shavkat Mirziyoyev*** Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2018-yilga faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash yili deb nom berishni taklif etdi. Davlatimiz rahbari innovatsiyaning ahamiyati tog‘risida quyidagilarni ta’kidladi: «Innovatsiya bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak». 2018-yilda respublikamizda innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar belgilandi: «Kelgusi yilda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash vazifasi e’tiborimiz markazida bo‘ladi».

Demak, bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mavzuga kirishishdan oldin «*innovatsiya*» so‘zining ma’nosiga biroz to‘xtalishni lozim topdik. Innovatsiya tushunchasi (lotincha novus yangi) tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda XIX asrlarda qo‘llanila boshlagan. Avval u alohida elementlarni bir sohadan boshqa sohaga kiritishni ifodalagan. Texnikaviy yangiliklar kiritish qonuniyatlarini o‘rganib firmalar foyda olish uchun «innovatsion siyosatni» butun bir tizim sifatida o‘zlashtirishdi. Mazkur faoliyat jamiyat hayotining ixtiyoriy bo‘g‘inini yangilash bo‘yicha umumiy belgilarga, qonuniyatlar, yangilik kiritish mexanizmiga ega.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir o‘quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o‘quvchi uchun qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo‘llanilganda o‘quvchilar o‘qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar. O‘quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba sinovlar o‘tkazish asosida o‘zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta’lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlarga bo‘lingan holda ishlaydilar. O‘quv topshiriqlari alohida bir o‘quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a’zolariga beriladi. O‘qitish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Hozirgi paytda darsning xilma xil noan’anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o‘quvchining ijodiy qobiliyatini o‘stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to‘la qabul qila olish ko‘nikma va malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg‘otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o‘zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o‘qituvchi mahoratli bo‘lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to‘g‘ri rejalashtirishi, mashg‘ulot davomida barcha o‘quvchilarni faol va ongli ishlashlariga erishmog‘i lozim. Zero, o‘qituvchi ta’lim islohotining bosh ijrochisidir. Bunda har bir o‘qituvchini qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi axborot to‘plamini o‘zlashtirish, qayta ishlash va amalda qo‘llay olishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Uni hal qilishda o‘qituvchiga o‘qitishning an’anaviy usullari bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan kompyuterlardan foydalanish yordam beradi.

Pedagogik innovatsiyalab samaradorligining o‘lchovi sifatida optimallik o‘qituvchi va o‘quvchilarning kafolatlangan natijaga erishishi uchun kuch-quvvat sarflashlarini taqozo etadi. Turli o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy pedagogik hamda o‘quv faoliyatlari jarayonida turlicha darajadagi samaradorlikka erishadilar. Xuddi mana shuning o‘zi pedagogik innovatsiyalarning optimallik darajasini belgilaydi. Innovatsion usullarning eng muhim belgisi sifatida natijalanganlik o‘qituvchi faoliyatida ijobiy yutuqlarga erishilgandagina namoyon bo‘ladi. O‘lchovlardagi texnologiklik, kuzatuvchanlik, natijalarning qayd etilganligi o‘qitishning yangi usullari, metodlarini baholash orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur o‘lchovning ahamiyatli jihati shaxs, uning idroki va tushunchalarini shakllantirishning bir butunligida namoyon bo‘ladi. Shu munosabat bilan innovatsion jarayonni ilmiy g'oyani amaliy foydalanish bosqichiga olib chiqish va shu bilan bog'liq ijtimoiy pedagogik muhitdagi o'zgarishlarni amalga oshirish jarayoni deb

hisoblash mumkin. G'oyalarning innovatsiyaga aylanishini ta'minlaydigan va bu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradigan faoliyat bu innovatsion faoliyatdir. Innovatsiya jarayoni rivojlanish bosqichlarining yana bir o'ziga xos xususiyati mavjud. Pedagogik tajribada pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo‘llash alohida o‘qituvchilar ish faoliyatining boshlang‘ich bosqichida namoyon bo‘ladi. Mazkur innovatsiyalar tajribasi sinovdan o‘tkazilib, ob’ektiv baholangandan so‘ng ommaviy tarzda qo‘llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini beradigan innovatsion usullardan foydalangan holda o‘qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.Pedagogik innovatsiyalarni baholash mezonlarini bilish o‘qituvchining pedagogik ijodning rangbarang shakllarini o‘zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik madaniyatning oddiy esda qolgan bilimlarni takrorlash shaklidan boshlab, ilmiy pedagogik jamoatchilikka ma’lum bo‘lgan g‘oyalar, konsepsiyalar, texnologiyalarni o‘z shaxsiy faoliyatiga singdirishdan ularni evristik, kreativ ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qadar bo‘lajak pedagoglarning kundalik harakati mazmunini tashkil etishi lozim.

Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo‘llash metodlarini bo‘lajak o‘qituvchilar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko‘lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi choratadbirlarni kullash talab etiladi. Shu maksadda bulajak ukituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil kurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o‘rgatish vazifasini kuyish lozim. Pedagogika fanida ta'lim tizimidagi yangilik masalalari muttasil mutaxassislar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Biroq, ijtimoiy-pedagogik yangiliklar mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlantirish omili sifatida, bir tomondan, nisbatan yaqinda tez rivojlanayotgan ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida nisbatan yaqinda paydo bo'lganligi sababli, boshqa tomondan, ta'limni markazsizlashtirish va mintaqalashtirishning ijtimoiy tendensiyasining nisbiy yangiligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, xususiy, to'g'ri pedagogik (masalan, uslubiy) yangiliklarning samaradorligi, agar ular ijtimoiy-pedagogik rejada qo'llab-quvvatlanmasa, qo'llab-quvvatlanmasa, ancha past bo'ladi. Shunday qilib, xususiy innovatsiyalar va ijtimoiy-pedagogik yangiliklarni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy-pedagogik kontekstni yaratish ham, ma'lum hajm, miqyos va daraja umuman mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlanishini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin.

Xususan, turli xil innovatsion jarayonlarning hayotiy davrlarini o'rgangan pedagogik innovatsiyalar sohasi mutaxassisi ***V.I.Zagvyazinskiy*** ta’kidlashicha yangilikni rivojlantirish natijasida ijobiy natijalarga erishgan holda, o'qituvchilar uni

asossiz ravishda uni universallashtirishga, uni pedagogik amaliyotning barcha sohalariga tatbiq etishga intilayotganliklarini ta'kidlaydilar. Ko'pincha muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi va umidsizlikka olib keladi, yangilikka soviydi.Boshqa bir tuzilmani (hozir aytilganiga juda yaqin) aniqlash mumkin. Bu moddiy ishlab chiqarish sohasidagi innovatsiyalar nazariyasidan olingan innovatsiya genezisining tuzilishi. Ammo o'quvchi yetarlicha rivojlangan tasavvurga ega bo'lsa, maktabdagi innovatsion jarayonlarga o'tish juda qulay: g'oyaning paydo bo'lishi - rivojlanishi - dizayn (qog'ozda nima bor) - ishlab chiqarish (ya'ni amaliy ishda o'zlashtirish) - boshqa odamlar tomonidan foydalanish.

Yuqoridagilardan tashqari har qanday innovatsion jarayonda yangiliklarni yaratish va yangiliklardan g‘oydalanish (o'zlashtirish) kabi tuzilmalarni ko'rish oson; bir-biri bilan bog'liq bo'lgan mikroinnovatsion jarayonlardan iborat bo'lgan butun maktabning rivojlanishi asosida yotadigan murakkab innovatsion jarayon. O‘qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikirlashga yónaltirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, o‘qituvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma‘naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo‘llashga ham alohida e`tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // «Xalq so‘zi» gazetasi, 2017 yil 23 dekabr

2. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlapini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. 77-b.

3. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o'rganish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. - M., Akademiya, 2009 y.

TA’LIM SIFATI: ISLOHOTLAR, MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLARI HAQIDA FIKR VA MULOHAZALAR

Hakimova Gulnoza Shakirovna
145-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi
O‘zbek tili fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7437614

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish yo‘lidagi muammolar, ularni bartaraf etish hamda istiqbolini beligilash yo‘lidagi fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: fan va texnika, ta’lim, tarbiya, o‘quv dasturi, davlat ta’lim standarti, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, kasbiy sifat.

Ma’lumki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta’lim tizimining rivojiga bog‘liq bo‘lib, bu borada mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tadbirkor, tashabbuskor shaxsni voyaga yetkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu vazifalar respublikamiz Prezidentining qator farmon va qarorlarida o‘z aksini topgan.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ta’lim sifatini oshirishda o‘quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy innovasion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, mavjud muammolarni bartaraf qilish ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir.

Fan va texnika jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko‘plab ilmiy bilim, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib boradi. Bu, bir tomondan, fan-texnikaning yangi sohalari rivojlanishi tufayli uning differensiallashuvini ta’minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayoni vujudga keladi. Bunday sharoitda malakali pedagoglarga bo‘lgan talab ortib, fanning fundamental asoslari, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuqori bo‘lgan hamda zamonaviy innovasion pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo‘llay oladigan ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan foydalanish jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Bu o‘z navbatida, mamlakatda modernizatsiya jarayonining tez sur’atlarda rivojlanayotganligi sababli ayni davrda ta’lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e’tibor qaratishni

taqozo etadi. Ammo, bu sohaga o‘qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini joriy etish bo‘yicha pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo‘lmaydi.

Darhaqiqat, yangilangan ta’lim tizimini joriy etishda har bir pedagog ta’limga oid yangiliklarni muntazam o‘rganib, ularni o‘z mehnat faoliyatida izchil qo‘llay bilish mahoratiga ega bo‘lishi muhim. Bugun fan va texnika sohasidagi yangiliklarni o‘quv dasturi mazmuniga tez kiritish talab etiladi va bu orqali zamonaviy bilimlarni shakllantirishga zamin hozirlanadi. Bundan tashqari zamonaviy o‘qitish texnologiyalari, ular bilan bog‘liq metodik yondashuvlar bo‘lajak pedagoglarda zaruriy bilim, muhim qonuniyat va ko‘plab fundamental tushunchalarni chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Ta’limning sifatini oshirishda pedagoglar bilim va kasbiy mahoratining davr talablariga mosligi, o‘qitishda innovasion ta’lim texnologiyalaridan oqilona foydalanishi, tashkil etilayotgan darslarning samaradorligi, ta’lim oluvchi yaxshi o‘zlashtirishi uchun har bir mavzuning pedagogik va axborot texnologiyalarni qo‘llagan holda o‘tilishini ta’minlash talab etiladi. O‘qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limni amaliyotga joriy etish, ta’lim oluvchilarda egallagan bilimlarini hayotda qo‘llay olish, kasb tanlash, mustaqil ta’lim olish, o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Bugungi kunda respublikamizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini joriy etish, mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik kabi kasbiy sifatlarga ega yoshlarni tayyorlash hamda pedagoglarni rag‘batlantirish maqsadida katta ahamiyatga ega, sazovor ishlar amalga oshirilmoqda.

Lekin, tahlil va o‘rganish natijalari hozirgacha ta’lim tizimimizda saqlanib kelayotgan muammolar borligini ko‘rsatmoqda. **Jumladan:**

- *ta’lim muassasalarida malakali pedagoglarning yetishmasligi, ularni tayyorlashda amaliyotga joriy etilgan o‘quv reja va dasturlarining yaratilishida sohadagi islohotlar to‘liq inobatga olinmasligi hamda ular mazmunan eskirganligi;*
- *ta’lim oluvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashda hamda iqtidorli yoshlarning kreativ g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etilishida tizimli va innovasioln faoliyat to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi;*
- *pedagoglar tomonidan ta’lim oluvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etilmaganligi;*
- *pedagoglar tomonidan innovasion pedagogik texnologiya va metodlarini amaliyotga keng joriy etilmasligi;*
- *ta’lim muassasalari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi;*

Bu muammolarni bartaraf etish pedagoglarning malakasini muntazam oshirishni, bunda alternativ usullarni qo‘llash hamda tinimsiz izlanishlarini yo‘lga qo‘yish kabi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bu o‘z navbatida pedagoga katta mas’uliyat yuklaydi.

Hozirda o‘quv dasturi mazmuni va strukturasini qayta ko‘rib chiqish juda muhim. U pedagog uchun “ko‘zgu” vazifasini bajarishi lozim. Chunki, inson ko‘zgu (oyna)ga qarab o‘zining butun bir vujudini ko‘radi. Shuning uchun ham pedagog o‘z fani bo‘yicha o‘quv dasturiga qarab, butun bir faoliyatini, o‘quv mashg‘ulotida ta’lim oluvchilarga yetkazishi lozim bo‘lgan jarayon borishini, unda amalga oshirishi lozim bo‘lgan vazifalarni eslaydi.

Ta’lim sifati, uning maqsad va vazifalarini, mazmunini, shakl, metod, texnologiya va vositalarini to‘g‘ri tanlash muhim. Har bir mashg‘uloti ta’lim oluvchilarda o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga, o‘quv adabiyotlaridan kerakli axborotlarni mustaqil topishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Mashg‘ulot sifati o‘qilayotgan, tahlil qilinayotgan mavzuga pedagogning mas’uliyat bilan yondashishi, uning mazmunini ta’lim oluvchilarga yetkazishga qaratilgan mahorati, mashg‘ulotni bugungi kun talabi asosida tashkil etish va boshqarish uslubiy faoliyati bilan belgilanadi. Pedagog mavzuni yoritish uchun uning muhim bo‘lgan nazariya bilan asoslanganligi, fikrlarni mantiqan bog‘langanligini tushuntira olsa, ma’lum maqsadga erishgan bo‘ladi. Buning uchun zamonaviy o‘qitish texnologiyalari imkoniyatlari va usullaridan foydalanish zarur.

Ta’lim sifatini oshirishdagi mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish, bu yo‘ldagi maqsad va vazifalarni aniq belgilash, buning uchun jahonda tan olingan tajribalardan foydalanish, axborot texnologiyalarini pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llash bo‘lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy tayyorgarlik sifatini yaxshilashga xizmat qiladi, bu jarayon samaradorligini oshiradi. Ta’lim maqsadlarini oydinlashtirish, o‘qitish va o‘zlashtirish jarayonlarida qo‘llaniladigan turli texnologiya va usullardan foydalanish, mazmunga e’tiborni qaratish ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF-4947-sonli Farmoni. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-

3151-son Qarori. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son).

URUSHNING SO‘NGI QURBONI

Tashbekova Dilobar Hasan qizi
Toshkent viloyati Yangiyo‘l shahri 2-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7437618

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, yozuvchining “urushning so‘ngi qurboni” asaridan parcha berilgan. Hamda yozuvchi ijodidagi asarlarda an’ana, qadriyatlar, insoniy g‘oyalar, milliylikning talqini bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy adabiyot, an’ana va qadriyat, milliy g‘oyalar, yozuvchi, darlik, ta’lim tizimi.

O‘tkir Hoshimov katta iste’dod egasi edi. Adib – o‘ndan ortiq roman va qissa, ko‘plab ta’sirchan hikoyalar, bir necha sahna asarlari muallifi. U dastlabki yirik asari bilanoq ulkan adibimiz Abdulla Qahhorning nazariga tushgan, undan «Sof, samimiy, tabiiy, iliq, rohat qilib o‘qiladigan asar» yozgani uchun maqtov olgan yozuvchidir. O‘tkir Hoshimov 1941-yil 5-avgustda Toshkentning Do‘mbirobod mahallasida tug‘ilgan. O‘quvchilik chog‘laridayoq ijod bilan shug‘ullangan. Dastlabki kitobi esa talabalik yillarida chop etilgan. Adib asarlarining hayotiyligi, o‘quvchiga tez ta’sir etishi uning tarjimayi holi bilan bog‘liq. Darhaqiqat, yozuvchi yoshligidan ijodiy ishni amaliy mehnat bilan barobar olib borgan. Uning hayot yo‘liga diqqat qiladigan bo‘lsak, nashriyotda xat tashuvchi, musahhih, muxbir, gazetada bo‘lim mudiri, nashriyotda va jurnalda bosh muharrir bo‘lib ishlaganini ko‘ramiz. Adibning «Urushning so‘nggi qurboni», «Muhabbat» kabi ko‘plab hikoyalari, «Odamlar nima derkin?», «Shamollar esaveradi», «Ikki karra ikki – besh», «Bahor qaytmaydi», «Dunyoning ishlari» qissalari, «Nur borki, soya bor», «Ikki eshik orasi», «Tushda kechgan umrlar» nomli romanlari mamlakatimizda va chet ellarda sevib o‘qilmoqda.

«Qatag‘on», «Inson sadoqati», «To‘ylar muborak» nomli dramalari respublikamiz teatrlarida sahnalashtirilgan. Bundan tashqari, yozuvchining ko‘plab axloqiy-ma’rifiy mavzudagi ssenariylari televideniyeda ekranlashtirilgan. O‘tkir Hoshimov O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1991-yil) unvoni, «Mehnat shuhrati» (1996-yil) va «Buyuk xizmatlari uchun» (2001-yil) ordenlari bilan taqdirlangan. Adib 2013-yil 24-mayda vafot etdi. Aziz o‘quvchilar! Siz bilan sevimli adibimizning «Urushning so‘nggi qurboni» hikoyasi haqida gaplashamiz va bu asarni to‘liq o‘qib chiqishni maslahat beramiz. Chunki asar urush haqida, urushning fojiali oqibatlarga olib kelishi haqida. Darhaqiqat, insoniyat tarixida eng dahshatli qirg‘inbarot – Ikkinchi jahon urushi millionlab kishilar yostig‘ini quritishdan tashqari, odamlar ongi, ruhiyatida

ham yomon o‘zgarishlar yasadi. Ochlik, muhtojlik odamlarni asabiy, bir-biriga g‘anim qilib qo‘ydi, ayrimlarni egri yo‘lga boshladi. «Urushning so‘nggi qurboni» hikoyasi qahramoni Umri xola urush ketayotgan joylardan minglab kilometr uzoqda bo‘lsa-da, halok bo‘ladi. Umri xola o‘limi sabablarini asarni o‘qigach, anglab olasiz.

URUSHNING SO‘NGGI QURBONI (hikoya)

Shoikrom ayvon to‘ridagi sandal chetida xomush o‘tirardi. Allaqachon bahor kelib kunlar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo bu to‘g‘rida hech kim o‘ylab ko‘rmaganini u endi payqaganday g‘ashi keldi. Bo‘z ko‘rpa ustidan yopilgan, shinni dog‘i tekkan quroq dasturxon ham, hozirgina go‘jadan bo‘shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog‘och qoshiq ham uning ko‘ziga xunuk ko‘rinib ketdi. Ammo beparvolik bilan qo‘l siltadi-yu, do‘ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi.

Yarim kecha bo‘lib qolgan, atrof jimjit. Faqat olislarda it uliydi. Ayvon to‘sinidagi uzun mixga ilig‘liq lampochka xira nur taratadi. Chiroq atrofida o‘ralashgan chivinlar bir zum tinmaydi. Hovlining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay pushtalari orasida suv yaltiraydi. Onda-sonda rang olgan qulupnaylar ko‘zga tashlanib qoladi. Qayoqdandir shamol keldi. Hovli etagidagi yong‘oq shoxlari bir guvullab qo‘ydi. Shoikrom uyqu elta boshlagan ko‘zlari bilan o‘sha tomonga bir qarab qo‘ydi-yu, ter hidi anqib turgan lo‘labolishga boshini tashladi. Shu ondayoq yana o‘sha tovoqqa, bandi kuygan qoshiqqa ko‘zi tushib, tag‘in g‘ashlandi. «Ziqna bo‘lmay o‘l! – deb o‘yladi xotinini so‘kib. – Azaldan qurumsoq edi, zamon og‘irlashgandan buyon battar bo‘ldi». Ichkarida chaqaloq yig‘ladi. Beshikning g‘ichirlagani eshitildi. Bola xuddi shuni kutib turganday battar big‘illay boshladi. Kattasi ham uyg‘onib ketdi shekilli, qo‘shilishib yig‘lashga tushdi. Shoikrom siltanib qaddini rostladi. – Ovozini o‘chir, Xadicha! Ichkaridan xotinining beshikni mushtlagani, zardali tovushi eshitildi. – Ovozi o‘chsa koshkiydi! To‘qqiz kechasida jin tekkan bunga! «Kambag‘alning ekkani unmaydi, bolasi ko‘payadi o‘zi, – deb o‘yladi Shoikrom ijirg‘anib. – Shu kunimdan ko‘ra urushga borib o‘lib keta qolganim yaxshiydi». Uni urushga olishmadi. To‘qimachilik kombinatida montyor yetishmasmidi yo o‘zi yaxshi ishlarmidi, harqalay, uni olib qolishdi. Shoikrom urushning boshlanishidan sal oldin uylangan edi. Urush bo‘ldi-yu, zamona o‘zgarib ketdi. Bir xil odamlar tirnoqqa zor.

Uning xotini bo‘lsa yonidan o‘tib ketsa ham boshqorong‘i bo‘laveradi. Xudo bergandan keyin tashlab bo‘larmishmi deb ketma-ket uchta qiz tug‘ib berdi. Urushning qora qanoti uzoqlab ketgan bo‘lsayam, erta-indin Gitlerning to‘ng‘iz qo‘pishi ko‘rinib qolgan bo‘lsayam, hamon uning soyasi odam-lar boshiga ko‘lanka tashlab turibdi. Hali u qo‘shninikida aza ochiladi, hali bu qo‘shninikida. Hovli etagidagi pastak eshik g‘iyqilladi. Shoikrom kafti bilan ko‘zini chiroqdan pana qilib qaradi-yu, shu tomonga kelayotgan onasini ko‘rdi. U uylangandan keyin otadan

qolgan hovlini o‘rtadan ikki paxsa devor olib bo‘lishgan. Bungayam bir chekkasi Xadichaning injiqligi sabab bo‘lgan edi. Har xil ikir-chikir gaplar chiqavergandan keyin Umri xola ro‘zg‘oring boshqa bo‘lsa, o‘zingga qayishasan deb ularning qozonini boshqa qilib berdi. O‘zi kichik o‘g‘li Shone’mat bilan narigi hovlida qoldi. Rangi uniqqan chit ko‘ylak ustidan nimcha kiyib olgan Umri xola sharpaday unsiz yurib keldi-da, yapaloq musulmon g‘ishtdan yasalgan zinadan ayvonga ko‘tarildi. – Hali uxlamovmiding? – dedi u zinadan enkayib chiqayotganida surilib ketgan ro‘molini qayta o‘rab. – Ko‘rmaysizmi, chaqaloq tinchitmayapti. O‘zim itday charchaganman. – Bola bo‘lgandan keyin yig‘laydi-da, – dedi Umri xola yupatuvchi tovushda. – Yotaver, bolam. – U yana o‘sha unsiz odimlar bilan ichkari uyga kirib ketdi. Qaynona-kelin bir balo qilib bolalarni tinchitishdi. Keyin ikkovlari boshlashib chiqishdi. Xadicha bir qo‘lida choynakpiyola, bir qo‘lida zog‘ora non keltirib dasturxon ustiga qo‘ydi. – Choy o‘lib qopti, – dedi u zog‘ora ushatarkan. Umri xola Shoikromning yonboshiga, shaparak ko‘rpacha1 ga o‘tirdi. – Ol o‘zing ham,– dedi u tomirlari bo‘rtib chiqqan qo‘llari bilan sochilgan uvoqlarni yig‘ib og‘ziga solarkan. Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi. Ilgari ham shunaqamidi, yo‘qmidi, eslay olmadi. – Ovqatingdan qoldimi? – dedi u cho‘kkalab o‘tirgancha choy quyayotgan xotiniga qarab.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normatov U. Ijod sehri. -T.: Ma’naviyat, 2006. -289 b.
2. Pospelov A. Vvedenie v literaturavedenii. –M.: Nauka, 1988. –234 b.
3. Rasulov A. Yangi zamon yangi qahramon. -T.: Adabiyot va san’at, 1978.
4. Sarimsoqov B. Badiiyat asoslari va mezonlari.-T: Fan, 2004. -194 b.
5. Uorren O., Uellek R. Teoriya literaturы. –M.:Progress, 1978. –S.308.

NEMIS TILI DARSLARIDA MUAMMOLI O‘QITISHNI TASHKIL ETISH

Yusupova Saida G‘opurjon qizi
Yangiariq tumanidagi 13-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
Nemis tili fani o'qituvchisi
Sobirova Hurriyat
28-son umumiy o'rta ta'lim maktabi Nemis tili fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7437632

Annotatsiya: Ushbu maqolada agrar soha talabalariga nemis tili darslarida muammoli o‘qitishni tashkil etish, o‘qitishning samarali usullaridan foydalanish, ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: muammoli o‘qitish, mustaqil fikrlash, muammoli vazifalar, muammoli vaziyatlar, shaxsiy yondashuv.

O‘quv jarayonini takomillashtirish metodlari muammoli o‘qitish jarayonida samaradorligi bilan alohida ahamiyatga ega. Ulardan talaba ijodiy shaxsni – bo‘lg‘usi mutaxassisni shakllantirish nuqtai nazardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday o‘qitishda talabalarning bilish mustaqilligini shakllantirish va rivojlantirish katta ahamiyatga ega, chunki u talabalarda bilimga bo‘lgan barqaror qiziqishni shakllanganligini, tashabbus va mustaqil faoliyatning muntazamligini, muayyan aqliy harakatlar va aqliy sifatlar tizimini ko‘zda tutadi.

Muammoli o‘qitishda pedagogik faoliyatning xususiyatlari o‘quv axborotlari mazmunini muammoli vazifalar va muammoli vaziyatlarga ko‘chirish orqali maqsadlarni oydinlashtirish jarayonidan iborat bo‘ladi. Ijodiy o‘quv faoliyati muammoli o‘qitishning asosiy qoidasini saqlagan holda – ma’lum darajada harakatlarga erkinlik berish va bu harakatlarni bilish jarayonining butun tuzulmasi tizimida tartibga tushurish bilan boshqariladi.

Muammoli o‘qitishdan foydalangan holdagina talabalarda o‘quv muammolari va kasbiy vaziyatlarni yechishda ilmiy tekshirish jihatdan yondashuvni tarbiyalash, mustaqil bilish malakasi va metodlarni shakllantirish mumkin. Muammoli o‘qitishni qo‘llash, bilishni tushunishni shakllantirishga yordam beradi, pedagogik ijod va kasbiy mahoratni, psixologik hamda kasbiy tayyorgarlikni shakllantiradi.

Muammoli o‘qitish talabalarning faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘lishini taqazo qiladi. U ilmiy tafakkur uslubini rivojlantiradi. Muammoli vazifalar o‘zida operatsion-prosessual tarkiblarni birlashtiradi. Ular axborot mazmunini yangilash va yangi bilimlar olish orqali tahlilga, tushunish va izohlashga, o‘rganilayotgan ilmiy muammolarni nazariy jihatdan fikrlashga diqqatini qaratadi.

Muammoli o‘qitishni tashkil etish natijasida talabalarda kasbiy bilim va ko‘nikmalar hamda fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishning ijodiy imkoniyatlari yuzaga keladi. Muammoli texnologiyani amalga oshirish uchun quyidagilarga rioya qilish kerak bo‘ladi:

- ❖ *eng dolzarb, ahamiyatli vazifalarni tanlash;*
- ❖ *o‘quv ishlarining barcha turlarida muammoli o‘qitishnig o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash;*
- ❖ *muammoli o‘qitishning eng maqbul tizimini ishlab chiqish, darslik, o‘quv va metodik qollanmalar, tavsiyanomalar yaratish;*
- ❖ *shaxsiy yondashuv va o‘qituvchi mahorati.*

Masalan, nemis tili darslarida turli mavzularga oid osondan murakkabga qaratilgan har xil topshiriqlarni ishlab chiqish mumkin. Bu topshiriqlar talabani zerktirmasligi, uni fanga bo‘lgan qiziqishini orttirishi hamda topshiriqlar o‘tilgan mavzular bo‘yicha bo‘lishi kerak. Darslarda lug‘atlardan samarali foydalanish kerak. Topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan qiziqish talabani lug‘atdan foydalanishga majbur qiladi. Agar talaba notanish so‘z tarjimasini o‘zi izlab topsa, bu so‘zni u xotirasida uzoq vaqt saqlaydi. Chunki u lug‘atdan o‘sha so‘znig tarjimasini topguncha beixtiyor shu so‘zning yozilishiga bir nechabor qaraydi va takrorlaydi. Bu esa o‘sha so‘zning yodda qolishiga sabab bo‘ladi. O‘qituvchining galdagi vazifasi esa shu so‘zni qisqa gaplarda va matnlarda qo‘llashni o‘rgatishdir. O‘qishni, yozishni, gaplar va matnlar tuzishni oson o‘zlashirayotgan har qanday o‘quvchining tilga bo‘lgan ishtiyoqi yanada ortadi. Endi u o‘zi xohlab o‘qituvchidan topshiriqlarni so‘raydi. So‘ngra esa o‘zi mustaqil ravishda vazifalarni bajaradi.


Deylik, “*yil fasllari*” mavzusi yuzasidan topshiriqlarni tuzish kerak. Avvalo talabalarga yil fasllarining nemis tilidagi nomlari, yil fasllarining o‘ziga xosliklari tushuntirilgan va o‘tilgan bo‘lishi kerak. Boshida ularga turli rasmlar va shu rasmlarni ifodalovchi gaplar beriladi. Ular mustaqil ravishda qaysi gap qaysi rasmga tegishli ekanini topishadi. O‘qitvchi savolga javob olishi bilanoq to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblarni baholamasligi, balki talabalardan savollarga har tomonlama javob talab qilishi, noto‘g‘ri javoblarni esa to‘g‘risini aytmasdan ularni to‘g‘rilash imkonini berish kerak. Talabalar lug‘atdan foydalangan holda vazifalarni bajarishi lozim.

Aufgabe 1. *Ordnen Sie zu.*

(A) Es regnet.

(B)Es sind 25 Grad. Es ist warm.

(C) Die Sonne scheint.



(D) Es ist windig.

(E) Es sind nur 7 Grad. Es ist kalt.

(F) Es scheint.







Undan so‘ng navbatdagi topshiriq beriladi. Topshiriqlar turli shakllarda, rasmli va rangli qilib berilsa yanada maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Masalan, yil fasllari ta’riflanadi, lekin o‘sha yil faslining nomi aytilmaydi. Talabalar ta’rif qaysi yil fasliga tegishli ekanini topishlari kerak. Bu topshiriqlarni bajarish davomida talabalar so‘zlarni nafaqat yozuv balki rasm orqali ham eslab qolish imkoniga ega bo‘ladi.

Bilamizki, chet tili darslarida albatta matnlar ustida ham ishlash kerak. Bu talabaga bir oz qiyinlik qiladi va zeriktiradi. Buning uchu ularga matn ichidagi tanish so‘zlarni toping yoki „yil fasllari“ matnida keltirilgan ob-havoga oid gaplarni aniqlang kabi topshiriqlar berilsa, u o‘ziga tanish bo‘lgan so‘zlar yoki gaplarni topish jarayonida beixtiyor matnni o‘qib chiqadi. Yuqoridagi savolimizga javob olgandan so‘ng, qaysi notanish so‘zlarni uchratdingiz? - degan savolni berish mumkin. Bir talaba uchun notanish bo‘lgan so‘z ikkinchisi uchun tanish bo‘lishi mumkin. Ular o‘zaro muhokamaga kirishadi. Yakunda barcha uchun noma’lum bo‘lgan so‘zlar yana lug‘at yordamida aniqlanadi. Bu jarayonda o‘qituvchi kuzatuvchi vazifasini bajaradi, talaba esa faol bo‘ladi.

O‘qituvchi talabalar tomonidan bajarilgan ishlar natijasini baholab, u ishda muvaffaqiyatli qatnashganlarni alohida ta’kidlab o‘tadi. Shuningdek, ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yganlarni ham qayd qiladi va ishlash usullarini kelgusida takomillashtirish, ya’ni keyingi mashg‘ulotlarda qanday vazifalar qo‘yilishini belgilab beradi. Bu jarayonlar talabani o‘ylashga va o‘z ustida ishlashga yo‘naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.M. Hamidov, T.R. Hamidova - DEUTSCH Toshkent 2014

2. H.T. Omonov, N.X. Xo‘jayev, S.A. Madiyarova, E.U. Eshchanov – Pedagogik texnologiyalar va pedagogic maxorat. Toshkent – 2009

3. N.N. Azizxo‘jayeva - Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent 2006

4. Schritte 1 international. Nevau A1/1, 2006;

TARIX KELAJAK KO‘ZGUSI

Raxmatullayeva Shahribonu Shavkatovna
258-makatab o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7437640

Annotatsiya: Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o‘zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu - tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o‘zi tug`ilib voyaga etgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi. Ushbu maqolada tariximiz haqida nafaqat o‘quvchi yoshlarimiz balki]har bir inson uchun kerakli bo‘lgan fikrlar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: maktab, o‘quvchi, o‘qituvchi, tarix, tamoyil.

Har bir inson o`z xalqi tarixini bilish, o`rganish va o`zga xalqlar o`tmishi va madaniyatiga hurmat ko`zi bilan qarashi lozim. Tarixning jamiyatimizdagi eng muhim ahamiyati – u o`tmishimizdan saboq berib, umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma’naviyat timsolida bunyodkorlik va ezgulikka qarab intilishni, hech qachon, yovuzlik bilan maqsadga erishib bo`lmaslikni, har qanday vaziyatda ham tarixiy haqiqat bilan yondashishni o`ragatadi. O`zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Vatanimiz tarixini va xalqimizning boy madaniy merosini haqqoniy xolisona o`rganish va yangicha tadqiq etish dolzarb vazifaga aylantirgani barchamizga sir emas. Shu munosabat bilan ta’lim tizimimizning har bir yo`nalishiga tarix fanini o`qitish yo`lga qo`yilgan. Yoshlarning ma’nan yetuk bo‘lib shakllanishida turli sohadagi bilimlar suv va havodek zarur. Xuddi shu bilimlar orasida tarixiy bilimlarning o`rni o`zgachadir. Yoshlar ongida ma’naviy bo`shliq bo`lmasligi, uning o`rniga tarixiy bilimlar ahamiyatini oshirsak kelajak avlod o`zining kimlarning avlodi ekanliklarini har soniyada his etib tursa, tarix haqiqatini to`la-to`kis bilsa, o`rgansa bunday avloddan yorqin kelajakni kutish mumkin.

Tarixning ne-ne sinovlarni boshidan kechirgan xalqimiz to`g`risida kelajak avlodni boxabar qilish barchamizning asosiy maqsadimiz bo‘lishi kerak. Zero,yoshlar tarix haqiqatini qancha chuqurroq bilsa, kelajagimiz shuncha yorug` va istiqboli buyuk bo`ladi. O`zbekistonning birinchi prezidenti Islom Abdug`aniyevich Karimov “Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir” asrida “Inson har qanday sharoitda ham o`zining o`tmishini bilmasa, xato qiladi. Biz kechagi tariximizda ro`y bergan mudhish kunlar haqidagi ma’lumotlarni yosh avlodga o`z vaqtida yetkazsak, ularning ongida hech qachon bo`shliq paydo bo`lmaydi. Bo`shliq degani shuki, kimlardir doim uning o`rnini bir narsa bilan

to`ldirish payida bo`ladi va qo`yib bersangiz, bunday “chaqqon”lar istagancha topiladi. O`zining egri niyatiga erishish uchun, kerak bo‘lsa, katta pul ishlatadi, eng yomoni, muqaddas islom dinini buzib ko`rsatishga urunib, yoshlarimizni to`g`ri yo`ldan chalg`itishdan ham toymaydi”. Bu jumlalar zamirida olam-olam ma’no bor, albatta. Barchamizga sir emas aqidaparastlik, diniy ektremizm, terrorizm oqimlarlarining yo`liga kirib ketganlarning ko`pchiligini asosan yoshlar tashkil etadi. Yoshlarning bu yo`lga kirib qolishi ularning ongida ma’naviy bo`shliqdan darak bermaydimi?. Undan ko‘ra shu bo`shliq o`rnini kerakli bilimlar bilan to‘ldirsa, o`z xalqi tarixini o`rgansa, hech qachon bunday razil yo`llarga kirib ketmaydi.

Tarix bizning bugungi kunimizni, kelajagimizni yanada yorutuvchi mash’ala. Tarixini unutgan xalq ko`zi ko`r insonga o`xshaydi. Bu fikrimizni buyuk bobomiz Islom Karimov ham o`z asarlarida quyidagicha fikrni ilgari surgan.“Tarixni unutgan xalq, jamiyat o`z yo`lini yo`qotadi. Bunday xalq va jamiyatning kelajagi yo`q.

Bugun yurtimizda kechagi kunni eslamaydigan,ajdodlarini, bobolarini yodga olmaydigan odamning, o`zi yo`q desam, adashmagan bo`laman. Dunyo tarixida qudratli saltanat yaratgan sohibqiron Amir Temur bobomiz, o`z aql-zakovati, ulkan ilmiy salohiyatim bilan jahon tamadduniga beqiyos hissa qo`shgan buyuk allomalarimiz Samarqandda bo‘lib o`tgan”O`rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarimiz, aziz-avliyolarimiz bilan kim faxrlanmaydi deysiz? O`tgan yili Samarqandda bo`lib o`tgan “O`rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyasiyada dunyoning 50 mamlakatidan kelgan atoqli olimlar bu tarixiy merosni butun insoniyat manfaati yo`lida birgalikda o`rganish, uni targ`ib-u tashviq qilish, amaliy qo`llash kerakligini alohida ta’kidlangani, aytinglar, hammamizga g`urur va iftixor bag`ishlamaydimi?

Biz ko`pincha bu borada ham kamtarlik qilamiz. Lekin mening tilagim, istagim shuki, bu haqda ko`proq gapirish, merosimizni ko`proq gapirish, merosimizni ko`proq va chuqurroq o`rganish kerak. Buyuk ajdodlarimizni, ota-bobolarimizni eslash degani – bu o`zimizga tan berish deganidir. Men ana shunday fikrdaman. O`zimizga tan beradigan bo`lsak, avvalambor, bizdan oldin o`tgan ajdodlarimizga tan beraylik. Ular qanday insonlar edi, qanday hayot kechirgan, o`zidan qanday nom qoldirgan edi, degan savollar haqida o`ylash lozim. Shu o`rinda dog`istonlik mashhur shoir Rasul Hamzatovning, agar sen o`zingdan oldin o`tganlarni miltiq bilan otadigan bo`lsang, avlodlaring seni zambarakdan o`qqa tutadi, degan mazmundagi fikri yodimga tushdi. Bu gapda haqiqatan ham chuqur ma’no bor.

Shu borada yana bir fikrga e’tibor berishingizni istardim. Fashizmga qarshi jangga kirgan bizning ota-bobolarimiz qandaydir bir tepalik yoki qaysidir bir “ulug` dohiy” uchun jon bermagan. O`zbek o`g`lonlari, avvalambor, o`zi tug`ilgan shahar va qishloqni, o`z ona-yurtini, o`z yaqinlarini, mehribon otasi va onasi, sevikli yori,

jondan aziz farzandlarini ko`z oldiga keltirgan holda beomon jangga kirgan, shu muqaddas Vatanimiz uchun jonini fido qilgan.” Darhaqiqat ajdodlarimizning shuncha zahmatlari evaziga biz mustaqil davlat bo`ldik. Mustaqillik esa bizlarga erkinlik, tinchlik,hotirjamlikni tuhfa etdi.

Mana bugun bizlar uchun shodiyona kun ya’ni mustaqilligimizning chorak yoshga to`ldi. Mustaqil O`zbekistonimiz karvon misol uzoq va olis, asosiysi yetuklik yo`liga ildam qadam tashlab bormoqda. Hozirgi kunda o`sib kelayotgan yosh avlodga tarixiy bilimlarni berish juda ham yaxshi yo`lga qo`yilgan. Biz yoshlar mustaqillik bolalarimiz. Sobiq sho`ro davridagi tariximiz, ma’daniyatimizga bo`lgan munosabatlarni faqat shu to`g`risida yozilgan xotiralardan o`qib bilib olamiz. Xuddi shu masala xususida buyuk bobomiz Islom Karimov shunday deydi:

“Ilgari maktablarda O`zbekistonning haqiqiy tarixi o`rgatilmas edi. O`tgan asrning 17 yilidan boshlab yozilgan tarix kitoblari yolg`on g`oyalar asosida yaratilgani sir emas.

Toshkent shahrida Qatog`on qurbonlari xotirasi muzeyini ochganimizdan xabaringiz bor. Maqsad – odamlar haqiqiy tarixni bilsin. Lekin mana shu yaqin va uzoq tarix haqidagi haqiqatni yozishga, uni farzandlarimizga yetgazishga intiladigan fidoiy odamlar, afsuski, juda kam. Sovet davridagi zulm va qo`rquvga asoslangan mafkura, siyosatning ta’siri bizning qon-qonimizgacha singib ketgan, ichimizdagi qo`rqoqlik hali ham, taassufki, to`liq barham topgani yo`q.

Kechagi tarix biz uchun hayot maktabi, bamisoli tiniq bir ko`zgu. Unga qarab saboq olamiz, xulosa chiqaramiz, kelajak yo`lini belgilaymiz.

Tarixga e’tibor jamiyatga, kelajakka e’tibordir. Shu sababdan bobomiz Islom Karimov barchamizga tarix ilmini chuqurroq o`rganishga, undan saboq chiqarib yashashimiz lozimligini ko`p bora ta’kidlardi. Bobomiznizning shu jumlalarini o`qigan har bir yosh avlod menimcha o`z xalqining o`tmish tarixini yanada chuqurroq o`rganishga harakat qiladi desam aslo adashmasam kerak.

“Men, avvalambor, yoshlarimizga qarata aytmoqchiman: o`qing, tarixni o`rganing, tarixini, o`tmishini bilgan odam kelajakda adashmaydi.”

Xulosa qilib aytishim mumkinki, tarix – bizning kamchiliklarimizni, xatolarimizni to`g`irlovchi dasturamaldir. Tarix – borlig`imiz, kelajagimizdir. Shunday ekan tarixsiz kelajakni tasavvur qilib bo`lmaydi. Tarixiy bilimlar orqali kelajakni barpo etamiz. Keling, aziz yoshlar vaqtimizni bekorchi narsaga sarflamasdan boy tariximizni o`rganaylik, o`sib kelayotgan yosh avlodga biz kimlarning avlodi ekanligimizni ham yetkazaylik. Zero, ular fahr va g`urur tuyg`usini his etib yashasin va ajdodlarga munosib avlod bo`lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://fayllar.org/tarixiy-xotirasiz-kelajak-yoq.html

2. http://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/mamlakatimiz-maktablarini-bitiruvchi-ogil-qizlarimizga
3. https://yuz.uz/uz/news/yoshlarga-etibor-kelajakka-etibor
4. https://www.standart.uz/mobile/news/view?id=1858
5. https://yoshlikjurnali.uz/publitsistika/talimga-etibor-kelajakka-poydevor/

TARIXIY XOTIRASIZ KELAJAK YO‘Q

Eshmurzayeva Gavhar Elhom qizi
258-maktab o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7437650

Annotatsiya: Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o‘z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o‘zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu - tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o‘zi tug`ilib voyaga etgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi. Ushbu maqolada tariximiz haqida nafaqat o‘quvchi yoshlarimiz balki]har bir inson uchun kerakli bo‘lgan fikrlar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: maktab, o‘quvchi, o‘qituvchi, taraqqiyot, IT, ta’lim, texnologiya, tarbiya.

Hozir O‘zbekiston deb ataluvchi hudud, ya’ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko‘rku fayzini, mahobatini yo‘qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me’morchilik va shaharsozlik san’ati yuksak bo‘lganidan dalolat beradi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo‘lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me’morchilik, dehqonchilikka oid o‘n minglab asarlar bizning beqiyos ma’naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda kam topiladi. SHuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin, deb dadil ayta olaman. Ota-bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan bu nodir qo‘lyozmalarni jiddiy o‘rganish davri keldi. Chunki, o‘zingizga ma’lum, sho‘rolar zamonida tarixiy haqiqatni bilishga intilish rag`batlantirilmas edi, hukmron mafkura manfaatlariga xizmat qilmaydigan manbalar xalq ko‘zidan iloji boricha yiroq saqlanardi.

Ahvol shu darajaga borgan ediki, o‘z tariximizni o‘zimiz yozish huquqidan mahrum bo‘lib qoldik. Birovlar tomonidan yaratilgan tarix darsliklarini o‘qir edik. "SSSR tarixi" deb atalgan darslikda O‘zbekistonday mamlakatga bor-yo‘g`i 3-4

sahifa o‘rin berilib, tarixiy voqealar va shaxslar haqida noxolis fikrlar aytilar yoki umuman, lom-mim deyilmasdi. Fandagi bunday soxtakorlik, ko‘zbo‘yamachilikni bugun eng olis qishloqlarda yashayotgan oddiy fuqaro ham, maktab o‘quvchisi ham yaxshi biladi. Endi, mustaqillik tufayli yaqqol namoyon bo‘layotgan tarixiy haqiqatni bilishga, o‘zligini anglashga chanqoqlikning tub sabablari mana shunda, deb o‘ylayman.

Olimlarimiz tariximizning turli davrlariga doir risolalar yozishmoqda, tarixiy mavzuda yirik nasriy, nazmiy, sahna asarlari yaratilmoqda. Ommaviy axborot vositalari ma’naviy qadriyatlarimizni keng targ`ib qilayotgani, suhbatlar, muloqotlarda fikrlar rang-barangligi paydo bo‘layotgani diqqatga sazovor. Yoshlarning Vatan, millat taqdiri uchun o‘zlarini mas’ul sezib, bu bahslarda daxldorlik tuyg`usi bilan ishtirok etayotgani meni, ayniqsa, quvontiradi.

Millat, mamlakat haqida katta-katta minbarlarga chiqib gapirishning o‘ziga xos mas’uliyati bor. Muayyan voqea, shaxsga munosabat bildirayotganda, bu faqat bir kishi yoki muayyan toifadagi kishilarning nuqtai nazari bo‘lishi mumkinligini unutmaylik. Yomon tomoni shundaki, sub’ektiv fikr yuquvchan bo‘ladi. Chuqur tahlil, mantiqqa asoslanmagan biryoqlama fikr odamlarni, eng avvalo, tarix o‘qituvchilarini chalg`itadi. Ular eshitganlarini haqiqat shu ekan, deb o‘quvchilarga ham etkazishadi. Faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo‘lgan xulosalargina bizga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi mumkin. Bu - birinchidan.

Ikkinchi masala shundan iboratki, biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e’lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo‘lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko‘radi. O‘z fikr-o‘yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi etuk odam bo‘ladi.

Erkin, demokratik jamiyat quryapmiz. Biz uchun yopiq mavzuning o‘zi yo‘q. Umumxalq minbari - televideniemiz, radiomiz, matbuotimiz bor. Yaxshi niyatli kishilarga chegaralarimiz hamisha ochiq. Xorijdan mehmonlar kelishyapti, biz chet davlatlarga chiqyapmiz. Kunda bo‘lmasa, kun ora xalqaro anjumanlar o‘tib turibdi. Bizga mana shu anjumanlarda manman degan olimlar bilan xohlang iqtisod, xohlang siyosat, xohlang tarix, ma’naviyat sohalari bo‘lsin, bemalol bahslasha oladigan bilimdon, zukko, ma’rifatli odamlar kerak.

Nega men ma’rifat so‘zini ko‘p takrorlab, unga alohida urg`u beryapman? Chunki, jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch -ma’rifatdir. Asrimiz boshida Turkistonda kechgan voqealarni bir eslang. Nega bu o‘lkada o‘sha yillari ma’rifatchilik harakati har qachongidan ham kuchayib ketdi? Negaki, chor Rossiyasi asoratiga tushib qolib, butkul tanazzulga yuz tutgan o‘lkani uyg`otishga, xalqning ko‘zini ochishga faqat ma’rifat orqaligina

erishish mumkin edi. Ma’rifatparvarlik biz uchun bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, yo‘qotmaydi ham. Aql-zakovatli, yuksak ma’naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi. Agar shu muammoni echolmasak, barcha toat-ibodatlarimiz bir pul: taraqqiyot ham, kelajak ham, farovon hayot ham bo‘lmaydi!

Aynan shuning uchun ham o‘z paytida Respublika Ma’rifat va ma’naviyat markazini tashkil etdik. Markazning viloyat, tuman bo‘limlari ochildi. Gap hozir respublika byudjetidan ajratilgan katta mablag` haqida emas. Kerak bo‘lsa, yana yordam beramiz. Mazkur sohadagi ishlarning talab darajasida emasligini, tashkilotning rasmiyatchilikka berilib ketayotganini qanday tushunish mumkin? Bu holni ko‘rganda beixtiyor, baraka topkur, sen sho‘rolar zamonidagi dompolitprosveщenie, ya’ni siyosiy maorif uyi xodimi emassan, mutlaqo boshqa odamsan, biz bu markazni faqat maosh olish uchungina tashkil etmadik, degingiz keladi. Qolaversa, ma’naviyat, ma’rifatni targ`ib qilish har bir ziyolining vijdon ishidir. Ma’rifatchi fidoyi bo‘lmog`i kerak. Tushunamiz, ularning ham tirikchiligi, bola-chaqasi bor. Shuning uchun ham maosh tayinlab qo‘yibmiz. Lekin yana takror aytaman: ma’rifatchi, eng avvalo, fidoyi bo‘lmog`i, o‘zidan kechmog`i kerak.

XX asr boshidagi ma’rifatchilik harakati haqida gapirgandim. O‘sha harakatning namoyandalari boylik uchun, shon-shuhrat uchun maydonga chiqishdimi? Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Tavallolarga maktab ochganlari, xalqni o‘z haq-huquqlarini tanishga da’vat etganlari uchun birov maosh to‘laganmi? Birov ularga oylik berganmi? Albatta, yo‘q! Ular o‘t bilan o‘ynashayotganlarini, istibdodga qarshi kurashayotganlari uchun ayovsiz jazolanishlarini oldindan yaxshi bilishgan. Bilaturib, ongli ravishda mana shu yo‘ldan borganlar. Chunki, vijdonlari, iymonlari shunga da’vat etgan.

Endi asosiy masalaga o‘tsak. Xo‘sh, tarixning ma’naviyatimizda tutgan o‘rni qanday? Tarixni yaxshi bilmasdan turib, yuksak ma’naviyatga erishish mumkinmi? Albatta, mumkin emas! Ma’naviyatini tiklashi, tug`ilib o‘sgan yurtida o‘zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko‘tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak.

O‘ar qaysi inson men shu millat farzandi ekanman, mening ajdodlarim kimlar bo‘lgan, millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turishi, tiklanish, shakllanish jarayoni qanday kechgan, degan savollarni o‘ziga berishi tabiiy. Nega jahonga Ahmad Farg`oniy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Amir Temur, Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergan bu millat XVII-XIX asrlarga kelib, to shu choqqacha erishgan yuksalish darajalaridan tushib ketdi? Nega so‘nggi uch asr mobaynida boshimiz qoloqlikdan chiqmay qoldi? Ajdodlarimizning qattiq qarshiligiga qaramay, chor Rossiyasining

o‘lkamizni nisbatan oson zabt etishida ana shu qoloqlikning ham o‘rni bo‘lmaganmikan?

Tarixiy ildizini izlagan odam, albatta, bir kun mana shunday savollarga duch keladi va, aminmanki, to‘g‘ri xulosalar chiqaradi. Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson. Takror aytaman, irodali insondir.

Kim bo‘lishidan qat’i nazar, jamiyatning har bir a’zosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo‘ldan urish, har xil aqidalar ta’siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi.

Yuqoridagi mulohazalardan tabiiy ravishda shunday savol tug`iladi: xo‘sh, O‘zbekistonning, o‘zbek xalqining bugun keng ommaga etkazishga arziydigan haqqoniy tarixi yaratildimi-yo‘qmi? Sovet davrida yozilgan tarixni men tarix sanamayman. O‘zgalar yozib bergan tarixni o‘qitishga mutlaqo qarshiman. Mustamlakachi o‘ziga qaram bo‘lgan xalq haqida qachon xolis, adolatli fikr aytgan? Ular bor kuch-g`ayratlarini Turkistonning o‘tmishini kamsitishga, bizni tariximizdan judo qilishga sarflaganlar. Tarixdan judo bo‘lish nimaligini yaxshi bilsangiz kerak. Inson uchun tarixidan judo bo‘lish - hayotdan judo bo‘lish demakdir.

Xorazm davlati tarixini biz 2700 yillik tarix deb bilamiz. Lekin Rossiyaning xoh o‘tmishdagi, xoh bugungi ko‘zga ko‘ringan biror bir tarixchisidan so‘rab ko‘ring-chi, shuni tan olarmikin? Tan olmaydi, bilmaydi, bilishni xohlamaydi ham. Xo`jarlikning sababi esa bitta: basharti, tan olgudek bo‘lishsa, tarixiy xulosalari chippakka chiqadi, ilmda soxta yo‘l bilan borganlari fosh bo‘ladi. Eng mo‘‘tabar, qadimgi qo‘lyozmamiz "Avesto"ning yaratilganiga 3000 yil bo‘lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig`ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma’naviy, tarixiy merosidir. "Avesto" ayni zamonda bu qadim o‘lkada buyuk davlat, buyuk ma’naviyat, buyuk madaniyat bo‘lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi. Lekin, yuqorida aytganimdek, biron-bir xorijiy jurnalistning, umuman, o‘arb adiblarining "Avesto"ni eslashganini bilmayman. Xulosa shuki, olis-olis joylarda xalqimiz, mamlakatimiz o‘tmishi haqida aytilayotgan mulohazalarning aksariyat qismi soxta, g`ayriilmiydir.

Men bilganimni aytyapman, shunday xulosa chiqarishga majburman. Ajablanadigan joyi yana shundaki, tariximiz haqida gap ketganda, biz hamon rus olimlarining tadqiqotlariga tayanamiz, iqtibos ko‘chiramiz. "Bartold unday degan, Gumilev bunday degans" va hokazo. Men rus olimlarining mehnatini kamsitmoqchi emasman. Lekin qachongacha biz tariximizni birovlarning nuqtai nazari, qarichi bilan baholaymiz? Shunday ulkan davrda yurtimizda kechgan davlatchilik taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayoti atroflicha tahlil etilgan tadqiqotlar nega yaratilmayapti? Arxeologiya, Tarix, Sharqshunoslik va boshqa bir qator institutlarimiz bor. Mutaxassislar nima bilan mashg`ul, qayoqqa qarashyapti? O‘zbek

davlatchiligi qachon paydo bo‘lgan? Nima emish, O‘zbekiston XX asrning 20-yillarida, aniqrog`i, 1924 yili davlat maqomini olgan emish. Biz shu gapga ishonishimiz kerakmi? Maqtanish emas, yangidan shakllanayotgan o‘zbek davlatchiligi boshida turgan inson sifatida aytishga haqqim bor, kerak bo‘lsa, bu ish uchun jonimni, borlig`imni berishga tayyorman. Chunki, hayotimning mazmuni shundan iborat. Lekin faqat bir men emas, butun xalq bilishni istaydi: o‘zbek davlatchiligi qaysi asrda paydo bo‘ldi? Qanday tarixiy bosqichlarni bosib o‘tdi? Mutaxassislar, balki, tushuntirib berarlar, balki aniq javoblari bordir? Targ`ibot, tashviqot ishlarini olib borayotgan olimlar, balki, allaqachon bir fikrga kelishgandir? Lekin hozircha na matbuotdan, na darsliklardan men mana shu savollarga javob topolmadim.

Yana aytaman, bu sohada ishlayotgan olimlarimizni tanqid qilish u yoqda tursin, ayblashga ham haddim sig`maydi. Ko‘pchilik olimlarimizning ilmiy tafakkuri, qarashlari qaysi davrda shakllanganini ham yaxshi bilaman. Tarix olamida mehnat qilayotganlarni vatanparvar, elparvar safdoshlarim, deb bilganim uchun ularga shu talabni qo‘ymoqdaman: qachon lo‘nda, asosli qilib haqqoniy tariximizni farzandlarimizga etkazasizlar?

Davlatchilik bugungi kunda o‘ta siyosiy masala bo‘lib turibdi. Nega deganda, O‘zbekistonda davlatchilik bo‘lmagan, deb orqavarotdan tashviqot yuritayotgan, shu fikrni ongimizga singdirmoqchi bo‘layotgan, kerak bo‘lsa, xalqaro jamoatchilikni shunga ishontirishga urinayotgan kuchlar hali bor. Bunday g`alamislarning orasida qanday qilib bo‘lsa ham bizni yana sobiq SSSRga qaytarish niyatida yurganlar yo‘q deysizmi? O‘zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifasi mana shu da’voning puch ekanligini isbotlash, davlatchiligimizning ilmiy nuqtai nazardan asoslangan tarixini yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://fayllar.org/tarixiy-xotirasiz-kelajak-yoq.html
2. http://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/mamlakatimiz-maktablarini-bitiruv-chi-ogil-qizlarimizga
3. https://yuz.uz/uz/news/yoshlarga-etibor-kelajakka-etibor
4. https://www.standart.uz/mobile/news/view?id=1858
5. https://yoshlikjurnali.uz/publitsistika/talimga-etibor-kelajakka-poydevor/

TARIX SABOQLARI VA TARAQQIYOTNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI

Suyarova Zumrad Abdurashidovna
258-maktab o‘qituvchisi
zumradsuyarova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7437674

Annotatsiya: So'nggi bir necha yil davomida, tarix nuqtai nazaridan o'ta qisqa vaqt mobaynida dunyo yangi ko'rinishdagi O'zbekiston vujudga kelganini e'tirof etmoqda. Avval sovet totalitar tuzumining saqlanib qolgan oxirgi orolchalaridan biri sifatida ta'riflangan, insoniyat taraqqiyoti shohko'chalaridan chetda qolib, iloji boricha o'zgarishlar, chinakam islohotlardan voz kechib, rivojlanishning “o'zining alohida modeli” sifatida palleativ yarim choralarni tanlagan davlat birdaniga dunyodagi islohotlarning etakchilaridan biriga aylandi. Xalqaro miqyosda batamom o'zga qiyofaga ega bo'lgan O'zbekiston paydo bo'ldi. Mamlakatning jahondagi obro'si va ta'siri misli ko'rilmagan darajada ko'tarildi.. Ushbu maqolada yurtimizda olib borilayotgan o‘zgarishlar, taraqqiyotimizning zamonaviy tamoyillari haqida so‘z yurtilgan.

Kalit so‘zlar: svilizatsiya, ibtidoiy jamoa, arxeologiya, etnografiya, antropologiya, neolit, paleolit.

Ko'p yillar mobaynida mamlakat rivojiga xos bo'lgan sustkashlik, turg'unlik, ko'ndalang turgan vazifalarni bajarmasdan, ularni paysalga solish, muammolar va ziddiyatlarni berkitish siyosatiga barham berildi. Me'daga tekkan “bosqichma-bosqich, asta-sekin” degan gaplar unutilib, bugun jadallik bilan chuqur islohotlar olib borilmoqda. Jamiyatda yangi muhit yaratildi. Ilgari deyarli bo'lmagan ijtimoiy, siyosiy hayot paydo bo'ldi, ommaviy axborot vositalari jonlandi, fuqarolik jamiyati faollashmoqda.

Eng muhimi, odamlar o'z erkinligi va huquqlarini anglamoqda, ularda daxldorlik hissi va jamiyat taqdiri uchun mas'uliyat oshmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoev “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” da'vatkor g'oyasini ilgari surdi. Bunda nihoyatda chuqur ma'no bor. Milliy tiklanish, o'zligimizni anglash, milliy davlatchiligimizning asoslarini qaytadan barpo etish bosqichi tugadi. endi O'zbekistonni o'z tarixiy, tsivilizatsion o'rnini yangidan tiklash, o'zbek xalqining genetik insoniy salohiyatiga monand taraqqiyot darajasini ta'minlash, uchinchi Renessans barq urish davri keldi.

Bu faqatgina shior yoki umumiy da'vat emas. Uning aniq yo'nalishlari, muayyan dasturlari mavjud. Birinchi navbatda, biz tarixga nazar tashlab, ilgarigi Renessanslar

saboqlaridan xulosa chiqarib, harakatlarimizni zamonamiz talablari, davr imperativlari bilan uyg'unlashtirmog'imiz lozim.

Avvalgi ikkita Renessans davrida o'lkamiz dunyo mamlakatlari orasida rivojlanishning eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ilmiy salohiyat bobida o'sha yillarda hech bir boshqa mamlakat o'lkamizga tenglasha olmas edi.

Manbalarga qaraganda, birinchi Renessans davri, ya'ni 9-10 asrlarda Samarqandda zarb etilgan dirham tangasi butun Evropa va YAqin SHarq mamlakatlarida muomalada bo'lgan pul mablag'larining uchdan birini tashkil etgan. Hattoki skandinaviyalik vikinglar ham o'z ulushlarini dirhamlarga almashtirishga harakat qilgan. YA'ni aynan Samarqand dirhami o'sha paytda kuchli qiymatga ega, umume'tirof etilgan xalqaro ayirboshlov vositasi, xalqaro valyuta funktsiyasini bajargan. Bunda o'sha davlatning mavqei, salohiyati, unga bo'lgan ishonch, uning iqtisodiy salohiyati va quvvati namoyon edi.

Tabiiyki, bugun biz uchun muhim savol — o'sha davrdagi zalvorli yutuqlar zaminida nima yotgan? Qaysi omillar Markaziy Osiyo Renessanslari vujudga kelishini ta'minladi? Ularning tugashiga nima sabab bo'ldi?

Birinchidan, insoniyat ko'rgan barcha Renessanslarga — Evropa, Islom, Markaziy Osiyodagi uyg'onish davrlarining barchasiga birdek xos bo'lgan xususiyat antropotsentrizmdir. Ularning barchasida fan, ta'lim va madaniyat gumanistik g'oyalarga tayanib, avvalambor, dunyoviy xarakterga, ratsional mazmunga ega bo'lgan. Ilmiy izlanish, madaniyat va san'at ijodi markazida hazrati inson, uning hayoti va faoliyati, fikr va hissiyotlar, umid va istaklar, muammo va ziddiyatlar gavdalangan. Bundan xulosa shuki, Renessans inson ehtiyojlari, erkinliklari va huquqlarini ta'minlashdan boshlanadi.

Bejiz emaski, so'nggi to'rt yil mobaynida bu sohaga mamlakatimizda alohida e'tibor berilmoqda. Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiya izchil amalga oshirilmoqda. Diniy erkinlikni ta'minlashga qaratilgan qator huquqiy va institutsional choralar ko'rildi. Sud-huquq tizimida insonparvarlik jarayoni ildiz otmoqda. endi u faqatgina jazolash emas, balki, birinchi navbatda, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish muassasasiga aylanmoqda. Majburiy mehnatga jalb qilish holatlarini tugatish bo'yicha amaliy natijalarga erishildi.

Gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda. YAngi parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobar ko'paydi. Korruptsiyaga qarshi murosasiz kurash yangi bosqichga ko'tarildi. Oktyabr` oyida esa mamlakatimiz milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy organlaridan biri bo'lgan Inson huquqlari bo'yicha kengashga a'zo bo'ldi.

Maktablar zamonaviylashtirilmoqda. Ularning qariyb 6 mingi o'ta tez internetga ulandi. Zamon talabiga monand, tabiiy fanlarga ixtisoslashgan maktablar soni ko'paymoqda. Faqatgina shu yilning o'zida matematik yo'nalishda 56 ta va kimyo-biologik yo'nalishda 27 ta maktab barpo etildi. Kelgusi yili 82 ta informatsiya-kommunikatsiya maktabi ochiladi.

Ta'lim tizimi diversifikatsiyalashmoqda: uch yil mobaynida xususiy maktablar soni 6 barobar ortdi.

Uchinchidan, Markaziy Osiyoda ma'rifat davri paydo bo'lishi jamiyatda yuqori iqtidorli, ilmga intilgan, erkin fikr yurituvchi va davlat tomonidan e'zozlangan hamda rag'batlangan shaxslar mujassamlangani bilan bog'liq.

Fan, innovatsiya har bir Renessansning poydevoridir.

Bugungi dunyoda raqobat tobora keskin tus olmoqda. To'rtinchi sanoat inqilobi davrida raqobatbardosh bo'lish faqat zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish bilan bog'liq.

Innovatsiya — bu bugun xohishga bog'liq ixtiyoriy qaror emas. Bu — zaruriyat, davr talabi, mamlakat, jamiyatning taqdirini hal qiluvchi, hayot-mamot masalasidir.

So'nggi to'rt yilda mamlakatimizda 43 ta yangi oliy ta'lim muassasasi tashkil etilib, ularning soni 125 taga etdi. Bu yil oliy o'quv yurtlariga kirish uchun bir yarim millionga yaqin yosh hujjat topshirdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yildagiga nisbatan 40 foiz ko'pdir.

Milliy davlatchiligimiz va o'zligimiz timsoli bo'lgan ona tilimizni rivojlantirish, uni to'laqonli zamonaviy fan va oliy ta'lim tiliga aylantirish bu borada eng muhim yo'nalish bo'lib qoladi.

Uyg'onish davri, Renessans — fikr monopoliyasiga zid. U g'oyalar xilma-xilligini talab qiladi.

Bugun jamiyatimizda tobora erkinlashtirish, so'z va matbuot erkinligi, ochiqlik va oshkoralik tamoyillari ildiz otmoqda. Bu ortga qaytmas tus olganini yana bir bor ta'kidlamoqchiman.

Ommaviy axborot vositalari hukumat faoliyati haqida aholini xabardor qilish va ayni vaqtda unga xalq fikri, orzu-umidlari, noroziligini etkazish, hokimiyat shaffofligini ta'minlashda tobora faol rol` o'ynamoqda. Bu ham davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, ham jamiyat barqaror rivojining omilidir.

Beshinchidan, Renessans, uyg'onish davri haqida gapirar ekanmiz, uning hal qiluvchi omillaridan biri — bu dunyoga ochiqlik va tashqi aloqalarning keng qamrovligidir.

Avvalgi Renessanslar yirik makromintaqada mushtarak madaniy, gumanitar makon vujudga kelgani bilan izohlanadi. Mintaqamizga azal-azaldan xos bo'lgan doimiy xalqaro muloqot, madaniy almashinuv xalqimizda o'ziga xos mentalitet shakllanishiga sabab bo'ldi. Uning belgilari sifatida bag'rikenglik, ksenofobiya va

diniy fanatizm deyarli yo'qligi, o'zga madaniyat, dunyoqarash va yangiliklarga ochiqlikni ko'rsatish mumkin.

Xulosa shuki, O'zbekistonda bugun jadallik bilan kechayotgan ana shunday islohotlar, jamiyatdagi yangilanishlar mamlakatda kezayotgan uyg'onish ruhidan dalolatdir. Uchinchi Renessans uzoq istiqbol masalasi emas. U bugun, ushbu onda jamiyatimiz, uning har bir jabhasida muttasil etilib kelayotgan real voqelikdir. Ishonchimiz komilki, yurtimizda boshlangan bu yangilanishlar izchil davom etadi va xalqimiz orzu qilgan buyuk davlat, farovon kelajak barpo etishda mustahkam poydevor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://fayllar.org/tarixiy-xotirasiz-kelajak-yoq.html
2. http://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/mamlakatimiz-maktablarini-bitiruv-chi-ogil-qizlarimizga
3. https://yuz.uz/uz/news/yoshlarga-etibor-kelajakka-etibor
4. https://www.standart.uz/mobile/news/view?id=1858
5. https://yoshlikjurnali.uz/publitsistika/talimga-etibor-kelajakka-poydevor/

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА ПЛЕТЕНИЯ "УМНЫХ" ТКАНЕЙ НА СОВРЕМЕННЫХ ТКАЦКИХ СТАНКАХ

Муртазаева Мунира Бадриддиновна
Бухарский инженерно-технологический институт
магистрант 2 ступени
https://doi.org/10.5281/zenodo.7438492

Аннотация: В статье рассмотрены основные виды умных тканей от защиты человека из разных природных воздействиях от холод или тепло, а также распознавать водостойкость, антибактериальные и другие необходимые свойства. Изучены процесс плетения умных тканей на современных ткацких станках применяемые в ритм жизни человека предъявляет все новые требования к уровню комфорта и функциональности его одежды.

Ключевые слова: умная одежда, защита человека, защитные и эксплуатационные свойство, передовая технология, антибактериальная, оптоволокно, ткань, ткацкий станок.

Текстильные технологии тесно связаны с различными аспектами культуры использующего их народа. Одежда отражает этническую принадлежность своего обладателя. Интерьерный текстиль ткани, из которых сшиты предметы гардероба, демонстрируют богатство и статус человека, а ритуальный текстиль и ткани, найденные в погребениях, позволяют приоткрыть завесу тайны над верованиями и обычаями. Уровень конкуренции за ткани, современные передовые технологии, создание оборудования, позволяющего быстро менять тип ткани, необходимость увеличения производства качественной и конкурентоспособной готовой продукции важны в развитых странах - Китае, США, Японии, Германия, Италия и Узбекистан.

Ритм жизни современного человека предъявляет все новые требования к уровню комфорта и функциональности его одежды. Для защиты не только от непогоды, но также от травм и других непредвиденных ситуаций, разрабатываются особые «умные» (интеллектуальные) — ткани, которые могут распознавать изменения окружающей среды и адаптироваться к ним посредством функциональных трансформаций, например, менять цвет, «включать» водостойкость, антибактериальные и другие необходимые свойства. Передача света в оптоволокне основана на законах геометрической оптики. Согласно этим законам свет движется по ядру зигзагообразными линиями. Поскольку показатель преломления n1 сердцевины больше, чем показатель преломления n2 оболочки, оптический свет распространяется только

вдоль сердцевины. Это объясняется отклонением преломленного света от нормального света на границе между двумя средами, когда показатель преломления смещается от большой среды к малой. Например, это можно наблюдать, когда свет переходит из воды в воздух. По мере увеличения угла падения на границе между двумя средами отклонение преломленного света от нормального света также увеличивается. Когда угол преломления света относительно нормального света достигает O2 900, преломленный свет начинает распространяться вдоль граничной поверхности.

Инновационные материалы, которые раньше были только воображаемыми, входят в индустрию моды. Одежда остается «нарядной» - она реагирует на холод или тепло, заряжает мобильные устройства, демонстрирует окружающим наше настроение и передает эмоции на расстояние. Дизайнеры уже используют высокотехнологичные ткани для создания потрясающей одежды для нового поколения.

Smart - многофункциональные материалы - новые элементы завтрашнего дня. Эти материалы выполняют свою традиционную роль в то же время с информацией (смыслом) для мониторинга работоспособности системы самих данных при условии, что они также используют датчики, имеют возможности связи будут включать инструменты самовосстановления и многое другое. Мы движемся вперед в будущее Они независимы в выявлении и решении многих проблем включая интеграцию.

Оптические волокна как чувствительные элементы для структурного здоровья предлагает следующие преимущества в использовании: более низкая стоимость, меньший размер, к большей точности, большей гибкости и большим обычным датчикам чем надежность.

Оптические волокна по следующим направлениям в текстильных материалах применение дает эффективные результаты. Это анимированная стены панели, для аппликаций в интерактивной одежде, интерактивные бумажные поверхности, низкие рабочие элементы, работающие в условиях видимости, а также в текстиле так как мы используем оптические волокна для отражения одного цвета сбоку мы можем видеть задуманное.

Оптические волокна предназначены для бокового отражения одного цвета. Кроме того, мы контролируем цвет отдельных волокон, мы можем изменяться динамически.

Относительно окружающего света интенсивность — это переменная, которая допускает творческие возможности способность создавать свет и создавать текстильные полотна В повседневной жизни оптоволокно как средство передачи информации на большие расстояния используется, потому что потери передачи оптоволоконного света в электрическом проводе будет

намного ниже, чем потери электроэнергии. Классификация оптических волокон в основном функциональна, длина волны и пропускание, распределение преломления, сырье и обработка на основе методов выпуска.

Использование оптических волокон в текстильной и легкой промышленности создание новой структуры, на их основе современные, интеллектуальные текстуры начать получать и нуждаться в сферах безопасности, медицины, дизайна добиваться достижений, развивать эту область и производить новые служит для повышения уровня.

Ткачество, как достаточно консервативный вид деятельности, развивалось относительно медленно на протяжении длительного времени. Однако постепенно в нем всё же происходили перемены, вызванные потребностью в большем количестве текстиля, изменении его характеристик и скорости изготовления.

Существует много типов оптических волокон, в зависимости от области применения, изменено его функционирование в необходимых функциях.

Классификация оптических волокон основана на рабочей длине волны и показателе преломления в зависимости от распределения, режима передачи, сырья и методов производства.

Светопроводящие оптические волокна состоят из сердцевины и оболочки, они близки по величине к разным показателям преломления,
имеющая ядро является передающей средой, а оболочка образует границу между собой и ядром используется как исполнитель. Этот предел является физическим каналом, который направляет свет формируя пучок света, носитель передаваемого через него сигнала.

Чтобы луч света распространялся только по сердечнику должно выполняться следующее условие:

$$n1>n2>n3>n0$$

n1- показатель преломления сердцевины; n2, n3 — показатели преломления оболочек; n0- показатель преломления внешней среды.




Рис.1 Светопроводящие оптические волокна

Оптическое волокно (оптоволокно) – это волновод с круглым поперечным сечением очень малого диаметра (сравним с толщиной человеческого волоса), по которому передается электромагнитное излучение оптического диапазона. Длины волн оптического излучения занимают область электромагнитного спектра от 100 нм до 1 мм, однако в ВОЛС обычно используется ближний инфракрасный (ИК) диапазон (760-1600 нм) и реже – видимый (380-760 нм). Оптическое волокно состоит из сердцевины (ядра) и оптической оболочки, изготовленных из материалов, прозрачных для оптического излучения (рис.2,3).




Рис.2 Структура оптического волокна




Рис. 3. Конструкция оптического волокна

Свет распространяется по оптоволокну благодаря явлению **полного внутреннего отражения.** Показатель преломления сердцевины, обычно имеющий величину от 1,4 до 1,5, всегда немного больше, чем показатель преломления оптической оболочки (разница порядка 1%). Поэтому световые волны, распространяющиеся в сердцевине под углом, не превышающим некоторое критическое значение, претерпевают полное внутреннее отражение от оптической оболочки (рис. 4). Это следует из закона преломления Снеллиуса. Путем многократных переотражений от оболочки эти волны распространяются по оптическому волокну.



Рис. 4. Полное внутреннее отражение в оптическом волокне

На первых метрах оптической линии связи часть световых волн гасят друг друга вследствие явления интерференции. Световые волны, которые продолжают распространяться в оптоволокне на значительные расстояния, называются пространственными **модами** оптического излучения. Понятие моды описывается математически при помощи уравнений Максвелла для электромагнитных волн, однако в случае оптического излучения под модами удобно понимать траектории распространения разрешенных световых волн (обозначены черными линиями на рис. 4). Понятие моды является одним из основных в теории волоконно-оптической связи.

Ткачество – одна из самых гибких, удобных и выгодных технологий по переработке пряжи. Широчайший диапазон плотностей ткани и сырья для использования гарантируют неограниченные варианты и возможности производства с минимальными затратами. Ткачество это наиболее выгодный способ, когда речь идет об изготовлении целого ряда тканей, включая технический текстиль.

Люди носят одежду, пользуемся другими предметами текстильной промышленности, но порой не задумываемся о процессе их создания. Они выполняются из материалов, для изготовления которых применяется ткацкий станок. Это приспособление используется в течение нескольких тысячелетий, имеет свою историю и особенности. Одним из важных показателей технологического уровня развития текстильного производства являются станки.

Ткацкий станок — механизм для вырабатывания из нитей разных текстильных тканей, вспомогательный либо основной инструмент ткача. Существует большущее количество видов и моделей станков: ручные, механические и автоматические, челночные и бесчелночные, многозевные и однозевные, плоские и круглые. Ручные были изобретены сначала истории, они требовали тяжелого труда ткача. С развитием науки и техники поменялись и ткацкие станки. Сейчас один человек может обслуживать десяток автоматических ткацких станков. Станки могут быть узкими (вырабатывают ткань шириной до 100 см) и широкими, предназначаться для лёгких, средних и

тяжёлых тканей. Есть станки для тканей простых переплетений (эксцентриковые), для мелкоузорчатых тканей (кареточные) и для тканей с крупным, сложным узором (жаккардовые), для плетений оптического волокна.

.В связи с увеличением спроса в мировом рынке на изделия из оптических волокон, значительно возросли. При производстве умных тканей ключевым моментом является поддержание постоянного минимального натяжения нитей основы.

Станок R9500 terry оснащен Легким скало, конструкция которого создана для компенсации натяжения неэластичных оптических волокон. Облегченная конструкция имеет более широкую амплитуду движения, что позволяет немедленно реагировать на изменение натяжения основы в момент маха рам и прибоя бердом. Станок сочетает в себе высочайшее качество и универсальность с эффективностью и удобством использования во время перелетение. В зависимости от конструкции ткани, комплектация станка может быть дополнена приводными уточными ножницами для сложных переплетений или дисковым ножом Rotocut для простых переплетений.

Исключительность станка R9500terry заключается в его техническом совершестве, что делает его самым продвинутым станком на рынке на сегодняшний день. В нем были применены уникальные решения, заимствованные у станка R9500 для того, чтобы максимально увеличить эффективность, скорость и надежность. В первую очередь, это Турбопропеллер – эксклюзивная система привода рапиры и двигатель с прямым приводом – простой в работе и в настройках, и наконец, инновационные рапиры SK. Качество ткани повышено благодаря сложению трех инновационных устройств: нового позитивного скало для нитей ворса, устройства формирования петли и нового скало нитей грунта.

Станок R9500terry выигрывает за счет жесткой станины, обеспечивающей низкие вибрации на высоких скоростях, что позволяет увеличить производительность. Жесткий привод, расположенный на боковой опоре, полностью контролирует подвижные элементы и гарантирует минимальный износ даже при работе со сложными переплетениями.

Преимущества новой системы:

• механизм скрыт внутри станины для дополнительной стабильности и прочности;

• новая каретка и подвижные элементы изготовлены из аэродинамического сплава;

• непосредственное смазывание всех подвижных элементов.

R9500terry унаследовал и мощную систему NCP – новую общую платформу, электронную систему для простого контроля всех технических параметров станка.

ПО обеспечивает легкий и удобный обмен данными между оператором ткацкого цеха и техником. Интерактивный интерфейс гарантирует быстрый отклик и простоту в работе.

При работе с разными уточными нитями идеальное решение – это Приводные уточные ножницы, которые позволят установить индивидуальный момент резки для каждого утка. Наружные ткани и тенты для промышленного и домашнего применения на 100% изготавливаются из оптического волокна, которое обеспечивает высокую степень защиты от многих случаев, при этом сохраняет цвет и не имеет ограничений в дизайне. В результате принимаются меры по повышению качества выпускаемой продукции, удешевлению производства продукции легкой промышленности за счет принятых мер по созданию новой продукции, текстильной продукции, внедрению эффективного технологического оборудования и использованию роботизированных процессов.

Список литературы:

1. http://www.itemagroup.com/wp
2. Муртазаева М.Б., Рахимов С.С. Всероссийский форум молодых исследователей “Дизайн и искусство – стратегия проектной культуры XXI века” сборник материалов всероссийской научно-практической конференции “Диск-2021” СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА ПЛЕТЕНИЯ "УМНЫХ" ТКАНЕЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ШЕЛКА И ОПТИЧЕСКОГО ВОЛОКНА.
3. Основы оптической связи / Н. Юнусов [и др.]. Республика Узбекистан Министерство высшего и среднего специального образования — Т.: НМИУ им. Чолпона, 2014.
4. С. Горгуца, Ю. Берзовкса, М. Скоробогатый. Оптические волокна для умной фотоники Текстиль. Многопрофильное ноу-хау для Smart, Канада. 2013
5. Иоскевич, Я. Б. Новые технологии и эволюция художественной культуры / Я. Б. Иоскевич. — СПб., 2003.
6. Назаров Ю.В., Попова В.В. Инновационные материалы и «умные» ткани, используемые в дизайне костюма [Текст] // Дизайн и технологии. – 2014.
7. Смирнова Н. А., Замышляева В. В., Киселева Т. И. Исследование эксплуатационных свойств тканей для одежды специального назначения // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2016.

АМИР ТЕМУР ТАРИХИ БЎЙИЧА УНГА ЗАМОНДОШ БЎЛГАН МУАРРИХЛАР МАБАЛАРИНИНГ АХАМИЯТИ

Исломов Сарвар Аваз ўғли
Тарихшунослик, манбашунослик ва тарихий тадқиқот усуллари йўналиши (минтақалар бўйича) 2-босқич магистранти
https://doi.org/10.5281/zenodo.7438508

Аннотация: Ушбу мақолада Амир Темур ва Темурийлар тарихининг Амир Темурга замондош бўлган, асосан у билан шахсан учрашиб унинг саройида хизмат қилган ва бошқа темурий шахзодалар хизматида бўлган тарихчиларнинг асарлари ҳақида сўз боради. Шунингдек Амир Темурнинг ҳарбий юришлари туфайли Самарқандда бўлган тарихчилар ва олимларнинг асарлари ҳақида ҳам сўз боради.

Калит сўзлар: форс-тожик тилидаги манбалар, Ғиёсуддин Али ‘’Рўзнома-йе ғазовот-е Ҳиндустон’’, Низомиддин Шомий “Зафарнома”, Хожа Тожуддин ас-Салмоний "Тарихнома", ‘’Зайл-и Зафарнома" ("Зафарнома"га илова"), “Ҳусни дил”, Муиниддин Натанзий "Мунтахаб ут-таворих-и Муиний", Натанзий Амир Темур даври Фарғонаси ҳақида энг кўп маълумот берган муаррихдир, Ҳофизи Абру "Мажмуа-йе Ҳофиз-и Абру" ("Ҳофизи Абру мажмуаси"), Шарафуддин Али Йаздий "Зафарнома", Фасиҳ Хавофий “Мужмали Фасиҳий”, араб тилида Амир Темур ва темурийлар даври тарихига бағишланган асарлар, Абдураҳмон Абу Зайд ибн Халдун "Китоб ал-ибор" ("Ўгитлар китоби"), Аҳмад ибн Арабшоҳ "Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур" ("Темур тарихида тақдир ажойиботлари").

Кириш

Миллий ўзликни англаш, тарихий меросни тиклаш ва чуқур ўрганиш мамлакатимиз мустақилликининг дастлабки йилларидаёқ давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Мустабид тузум даврида сохталаштирилган ўтмиш воқелиги хусусида тарихий адолат қарор топди, тарихни илмий ва холисона ўрганиш имконияти юзага келди.

Ватан тарихини холисона яратиш иши давлат сиёсати даражасига кўтарилиб, бу хайрли ва шарафли ишга Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.А. Каримов бош-қош бўлдилар. И.А. Каримов айниқса, буюк давлат арбоби Амир Темурнинг пок номини тиклаш ва абадийлаштириш ишига беқиёс ҳисса қўшди. И.А. Каримов Амир Темур шахсияти ва сиёсий фаолиятига баҳо бериб қуйидагиларни айтган еди: “Биз ҳазрати Темурни буюк бунёдкор деб бошимизга кўтарамиз. Рўйи заминнинг сайқали бўлмиш

Самарқандда, Шаҳрисабз, Бухоро, Тошкент ва соҳибқирон қурган бепоён салтанатнинг бошқа ҳудудларида бунёд етилган нодир меъморий обидалар, тенгсиз боғу-роғлар Темурбек бобомизга хос амалий шижоат самарасидир. Шавкатли аждодимизнинг ўлмас хизматлари шундаки, у мураккаб тарихий шароитда халқнинг бошини қовуштира билди. Истилочиларга қақшатқич зарба бериб, Туркистон заминида илк бор истиқлол байроғини баланд кўтарди. Пароканда мамлакатлар, еллар, елатларни бирлаштириб, марказлашган қудратли салтанат тузди. Адолат кучда емас, куч адолатдадир, деган шиор Амир Темур салтанатининг барча ҳудудларида бирдай амал қилиб, ахлоқий-маънавий мезонга айланди”. [1, Б.147.]

Асосий қисм

Амир Темур тарихидан ҳикоя қилувчи кўплаб манбалар форс-тожик тилида яратилгандир. Амир Темур тарихидан ҳикоя қилувчи илк тарихий манба Ғиёсуддин Алининг "Рўзнома-йе ғазовот-е Ҳиндустон" ("Ҳиндистон ғазовоти кундалиги") номли асари бўлиб, унда дастлаб Амир Темурнинг Ҳиндистон юришигача бўлган даври қисқа сатрларда баён қилинган. Асосий эътибор эса Ҳиндистон юришини ёритишга қаратилган. Китоб Соҳибқирон томонидан Самарқанддаги Бибихоним жомеъ масжидининг бунёд этилиши воқеаси билан якунланади. [3, Б.4.]

Ушбу асарга Амир Темурнинг Ҳиндистонга юриши кундалигини юритган қози Носируддин Умарнинг қўлёзмаси асос қилиб олинганлиги таъкидланади. Асар мураккаб услубда ёзилганлиги, Амир Темурга нисбатан муболағалар кўп ишлатилгани учун ҳам Соҳибқиронга маъқул келмаган. Лекин, адолат нуқтаи назаридан қайд этиш лозимки, Низомиддин Шомий, Шарофуддин Али Яздий каби тарихчилар Амир Темурнинг Ҳиндистон юриши тарихини ёритишда ушбу асарга таянганлар.

Ҳозирда "Ҳиндистон ғазовоти кундалиги" асарининг ягона қўлёзма нусхаси ЎзР Фанлар академияси Шарқшунослик институти Қўлёзмалар фондида сақланмоқда. Унинг форсча матни Л.А.Зимин томонидан 1915 йилда Петроградда, рус тилига таржимаси эса А.А.Семёнов томонидан 1958 йилда Москва шаҳрида нашр қилинган.

Амир Темурнинг шахсий топшириғи билан ёзилган яна бир тарих асар Низомиддин Шомий қаламига мансуб “Зафарнома”дир.

Амир Темур 1393 йилда Бағдодни эгаллаганда шу шаҳарда бўлган Низомуддин Шомий Соҳибқирон билан илк бор учрашган. Шомийнинг ўзи қайд этишича, у тақдир тақозоси билан 1400 йили Шомнинг Ҳалаб шаҳрида Соҳибқирон билан яна учрашган. Бу вақтда Ҳижоз сафирига кетаётган Низомиддин Ҳалаб ҳимоячилари томонидан асир олинган. Уни асирликдан Амир Темурнинг саркардаларидан бири амир Жалол ус Ислом озод қилган ва

Соҳибқирон ҳузурига олиб келган.[4,Б.4.] Шу вақтдан бошлаб унинг Амир Темур саройидаги фаолияти бошланган дейиш мумкин. 1404 йилга қадар у Соҳибқирон ҳузурида воқеанавис сифатида хизмат қилган. Ҳижрий 804, милодий 1401-1402 йилда Амир Темур унга ўзининг тарихини ёзишни топширган. Муаллифга асарни содда, равон ва айни пайтда маданиятли кишиларга ҳам маъқул бўладиган тилда ёзиш шахсан Соҳибқирон томонидан буюрилган. Низомиддин Шомий Амир Темурнинг бир қатор ҳарбий юришларида иштирок этган. У Суриянинг Ҳалаб, Грузиянинг Биртис каби бир неча қалъаларни Амир Темур қўшинлари томонидан забт этилишини эса ўз кўзи билан кўрган. Асар 1404 йилнинг баҳорида “Етти йиллик юриш”дан қайтаётган Амир Темурга топширилган. Асар муаллифи Амир Темур билан Самарқандга қайтмаган. Низомиддин Шомий кўп ўтмай вафот этган. Ҳофизи Абру 1412 йил воқеалари баёнида Низомиддин Шомийни марҳум сифатида эслаганлиги шундан далолат беради.

Низомуддин Шомий ўз “Зафарнома”сини яратишда Ғийосуддин Алининг "Рузнома-йе ғазовот-е Ҳиндустон", Амир Темурнинг уйғур ёзуви бўйича котиблари томонидан битилган "Тарих-и хоний" ("Хон тарихи") асарларидан фойдаланган.[4, Б.4.]

Темурийлар даври тарихини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга бўлган тарихий манбалардан бири Хожа Тожуддин ас-Салмонийнинг "Тарихнома" асаридир. Ушбу асарда Амир Темур вафотидан кейин темурий шаҳзодалар ўртасида юз берган ўзаро урушлар кенг ёритилган. Асар "Зайл-и Зафарнома" ("Зафарнома"га илова") ва “Ҳусни дил” номлари билан ҳам аталади. Тожуддин ас-Салмоний хаттот сифатида Музаффарийлар сулоласи девонхонасида (девони иншо) хизмат қилган. Шероз шаҳри Амир Темур томонидан забт этилгач, Тожуддин ас-Салмоний бир қатор олимлар қатори Самарқандга кўчирилган. Шундан бошлаб у темурийлар саройида хизмат қила бошлаган. 1409 йилда Шоҳрух мирзо томонидан Самарқанд забт этилгач, кўпчилик олимлар билан бирга Ҳиротга кўчиб ўтган. Айнан шу вақтда ас-Салмоний Шоҳрухнинг топшириғига биноан “Тарихнома” асарини ёзишга киришди. [3,Б.6.]

Ас-Салмоний ўз асарида Амир Темур ҳаётининг сўнгги йиллари ва Шоҳруҳ мирзо даври ёритишни кўзлаган эди. Шундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, ушбу асар Низомиддин Шомийнинг “Зафарнома”сини давом эттириши лозим эди. Лекин унга тақдир фақат 1404-1409 йиллар воқеаларини қаламга олиш имконини берди, холос. “Тарихнома”да Амир Темурнинг Хитой юришини бошланиши, Халил Султон томонидан Самарқанд тахтини эгаллаб олиниши, ҳукмронлиги ва ҳалокати воқеалари батафсил баён этилган.

Муиниддин Натанзий қаламига мансуб "Мунтахаб ут-таворих-и Муиний" китоби Амир Темур тарихига бағишлаб ўзидан аввал ёзилган Ғиёсиддин Али

Яздий ва Низомиддин Шомий асарларидан мустақил манбалар асосида ёзилганлиги билан аҳамиятлидир.

Муниддин Натанзий аввал Фарғона вилоятини бошқарган, кейинчалик Форс вилояти ҳокими этиб тайинланган Султон Искандар мирзо саройида хизмат қилган. Амир Темурга набира бўлган мазкур шаҳзода, Умаршайх мирзонинг ўғли эди. Натанзий ўз асарини айнан Искандар мирзонинг топшириғига биноан ёзишга киришган ва ҳижрий 816 (милодий 1413/1414) йилда тамомлаган.[3,Б.11.]

Муниддин Натанзийнинг ушбу асари умумий тарих шаклида ёзилган бўлиб, Эрон, Олд Осиё, Мовароуннаҳр, Дашти Қипчоқ ҳудудларидаги давлатлар тарихини асар ёзиб тугалланган давргача бўлган тарихини қамраб олган. "Мунтахаб ут-таворих-и Муиний" асарининг сўнгги қисмлари Ўрта Осиёнинг XV аср тарихини тадқиқ этишда муҳим манба бўлиб хизмат қилади. Муаллиф 1399-1400 йиллари Фарғона ҳокими бўлган Мирзо Искандар ва унинг отаси, 1376-1393 йиллари водийни бошқарган Мирзо Умаршайх фаолиятига алоҳида эътибор қаратган. Тадқиқ этилаётган давр тарихига оид асарлар орасида “Мунтахаб ут-таворихи Муиний” асари Фарғона тарихи бўйича энг кўп маълумот бера олувчи манба ҳисобланади.

Натанзий Амир Темур даври Фарғонаси ҳақида энг кўп маълумот берган муаррихдир.

Амир Темур ва темурийлар даври тарихини ўрганишда тарихчи ва географ олим Ҳофизи Абру (1430 йилда вафот этган) қаламига мансуб "Мажмуа-йе Ҳофиз-и Абру" ("Ҳофизи Абру мажмуаси") ва "Мажма’ ат-таворих" ("Тарихлар тўплами") номли асарлар ҳам муҳим аҳамиятга эга. Ҳофизи Абру тахаллуси билан шуҳрат топган муаллифнинг тўлиқ исми-шарифи – Шаҳобуддин Абдуллоҳ ибн Лутфуллоҳ ал-Ҳусайнийдир. Унинг умри Амир Темур ва Шоҳрух мирзо саройидаги турли хизматларда ўтганлиги ҳам асарларида келтирилган маълумотларнинг ишончлилигини оширади. [4,Б.7.] [3,Б.6.]

Амир Темур тарихи ҳақидаги энг машҳур асарлардир бири Шарафуддин Али Яздийнинг (1454 йилда вафот этган) "Зафарнома" асаридир. Ушбу асар Низомуддин Шомийнинг шу номдаги китоби асосида яратилган бўлсада, унга кўплаб қўшимчалар ва аниқликлар киритганлиги, янги материаллар билан бойитганлиги билан аҳамиятлидир. Асар Амир Темурнинг набираси, Форс вилояти ҳокими Иброҳим мирзо раҳбарлигида яратилган. Асарнинг манбавий асосини мустаҳкамлаш учун муҳим сиёсий воқеалар ва жангларнинг иштирокчиси бўлган 1000 ортиқ шоҳидлардан 50 нафар котиб томонидан ёзиб олинган маълумотлар жамланган.

Шарафуддин Али Йаздийнинг "Зафарнома"си муқаддима ва асосий қисмдан иборат. Фанда "Муқаддима-йе Зафарнома" номи билан машҳур бўлган

асарнинг биринчи қисмида Чингизхон авлодари тарихи ёритилган бўлиб, Амир Темур давлати ташкил топиши арафасидаги сиёсий вазият ва Мовароуннаҳрнинг этник ҳолатини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга. Тарихчи олим Р. Арслонзоданинг таъкидлашича, асарнинг муқаддимаси 1419 йилда, асосий қисм эса 1425 йилда ёзиб тамомланган.

Фасиҳ Хавофийнинг “Мужмали Фасиҳий” асари Амир Темур ва темурийлар даври тарихини ўрганишдаги муҳим манбалардан биридир. Ўзининг қисқа ва аниқ фактик маълумотларга бойлиги билан ажралиб турувчи ушбу асар ҳамда унинг муаллифи ҳақида манбашунослигимизда бир қатор тадқиқотлар яратилган. Фасиҳ Аҳмад ибн Жалолуддин Муҳаммад Хавофийнинг (1375 йилда таваллуд топган) асари умумий тарих типида ёзилган. Унда мусулмон Шарқида энг қадимги замонлардан 1442 йилга қадар кечган тарихий воқеалар, таниқли сиёсий арбоблар, олимлар ва шоирларнинг таржимайи ҳолига доир хронологик маълумотлар келтирилади.

Араб тилида ҳам Амир Темур ва темурийлар даври тарихига бағишланган бир қатор асарлар яратилган. Абдураҳмон Абу Зайд ибн Халдун (1332-1406) қаламига мансуб "Китоб ал-ибор" ("Ўгитлар китоби") номли асар ижтимоий тараққиёт фалсафаси, шунингдек, Машриқ ва Мағриб тарихини ўрганишга қўшилган муҳим ҳиссадир. Ушбу асарда Амир Темур тарихига оид бир қатор воқеалар ҳам ҳикоя қилинган. Ибн Халдун Амир Темур билан Дамашқ шаҳрида шахсан учрашган ва у билан бир неча бор суҳбатлашган. Ибн Халдун Амир Темурни тарихни яхши билган, ўткир фаросатли, илмий баҳсларга киришишга мойил ҳукмдор сифатида тасвирлаган.

Араб тилидаги манбалардан Аҳмад ибн Арабшоҳ (1389-1450) қаламига мансуб "Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур" ("Темур тарихида тақдир ажойиботлари") асар алоҳида ўрин тутади. Ибн Арабшоҳ Дамашқ шаҳрида таваллуд топган ва онаси, биродари, бошқа қариндошлари билан 1401 йилда, шаҳар Амир Темур томонидан забт этилгандан сўнг, мажбуран Самарқандга кўчирилган. У темурийлар потахтида 1408 йилга қадар яшаган. [2,Б.10.] Бу вақтда Ибн Арабшоҳ Самарқанд мадрасаларида таълим олганлиги тахмин қилинади.

Муаллиф "Ажойиб ал-мақдур..." асарини ҳижрий 840 (милодий 1436/1437) йилда ёзиб тугатган. Ибн Арабшоҳ Амир Темур тарихига танқидий ёндашган, унинг шахсига ўта салбий баҳо берилган, лекин кўп ўринларда қатор ижобий хислатларини эътироф эишга мажбур бўлган. Асарда бир бирини рад этадиган кўплаб маълумотлар келтирилган.

Хулоса

Амир Темур ва Темурийлар тарихини ёритишда биз келтириб ўтган манбалардан ташқари жуда кўплаб манба ва адабиётлар яратилган. Хусусан,

кейинги Темурий ҳукдор ва шаҳзодалар темурийлар тарихи бўйича кўплаб асарларга ҳомийлик қилишди. Бизнинг Амир Темурга замондош бўлган тарихчиларнинг асарларига етибор қаратишимизнинг сабаби улар асосан ўзлари шоҳиди бўлган ёки воқеалар гувоҳи бўлганлардан ешитганларини қоғозга тушурганлар. Биз бу фикримиз билан кейинчалик яратилган манбаларни камситаолмаймиз. Чунки Амир Темурга замондош бўлган тарихчиларнинг асарларида учрамайдиган ёки йўқ бўлиб кетган малумотлар кейинг вақтларда яратилган манбалар орқали тўлдирилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. 5 том. – Т.: “Ўзбекистон”, 1997.

2. Ибн Арабшоҳ. “Ажойибал-мақдур фи-тарихи Темур” (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). Сўзбоши, араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи У.Уватов. Масъулмуҳаррир А.Ўринбоев. 1-китоб. Т.: “Меҳнат”,1992.

3. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. “Ўзбекистон”-Т.: 2011.

4. Низомиддин Шомий. “Зафарнома”. Форс тилидан Ю.Хакимжонов таржимаси. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996.

5. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Нашрга тайёрлаш, сўз боши, изох ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Аҳмад, Ҳ.Бобобеков. –Т.: “Шарқ”,1997.

KUBRAVIYA TARIQATI AXLOQIY QOIDALARINING YOSHLAR TARBIYASIDAAGI AHAMIYATI

Mavzurov Nurali Shuhrat o'g'li
Nematov Azizbek Asliddin o'g'li
TATU Samarqand filiali Axborot xavfsizligi yo`nalishi
1-kurs talabalari
Email: nuralimavzurov@gmail.com
Email: azizbekasliddinovic@gmail.com
Samatov Xurshid O‘lmasjonovich
TATU Samarqand filiali dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori
https://doi.org/10.5281/zenodo.7438559

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kubroviylik tariqati asoschisi Najmiddin Kubroning hayot va ijod yo‘li haqida qisqacha ma`lumot berib o`tildi. Shu bilan birga, kubroviya tariqatining axloqiy qoidalarini hozirgi yoshlar tarbiyasiga ta`siri, asarlarida tariqatning mohiyati, o‘ziga xos talab va qoidalari bayon qilib berildi.

Kalit so`zlar: kubroviylik tariqati, diniy maktab, rahnamolik, tasavvuf,ilohiy ma’rifat, dunyoviy va ilohiy bosqichlar, uzlat, muroqaba, tavajjuh, rizo.

Mamlakatimizda ma’naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tiklanishi, yoshlarni har tomonlama yetuk, ma’nan yuksak, komil inson qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Zero, jamiyat ravnaqi «...o‘z haq-huquqini taniydigan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon atrofida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash»ga bog‘liq ekan, buning uchun fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada takomillashtirish katta ahamiyatga ega. Respublikamiz hamda dunyo xalqlari tomonidan keng e’tirof etilgan, shaxsga ma’naviy-axloqiy ta’sir ko‘rsatishda, o‘tmish allomalarning ta’lim-tarbiyaviy qiymatga ega bo‘lgan ma’naviy merosi bilan tanishish imkonini berdi. Mazkur ma’naviy meros orqali shaxsda iymon-e’tiqod, bag‘rikenglik, iroda, qalb pokligi, vijdon uyg‘oqligi, go‘zal axloq, o‘z-o‘zini anglash kabi sifatlarni qaror toptirish zarurligi allomalarning ma’naviy merosidan ta’lim jarayonida foydalanishni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish hamda o‘qitishning zamonaviy shakl, metod va vositalarini takomillashtirish katta ahamiyat kasb etadi.

Najmiddin Kubro (taxallusi; asl ism-sharifi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiy) (1145—Xiva—1221) — ulug‘ shayx, tasavvufning taniqli vakillaridan biri, kubroviylik tariqatining asoschisi (uning taxallusi «dinning ulug‘

yulduzi» ma’nosini beradi). Kubroning karomat ko‘rsatish, voqealarni oldindan bilish, o‘tkir nazari bilan ta’sir eta olish xislatiga ega inson bo‘lganligi haqida rivoyatlar tarqalgan.Kubro yoshligidan ilmga qiziqqan, qobiliyatli bo‘lgan. Islom asoslari, shariat, hadis va tafsirni juda tez o‘zlashtirib oladi. 16—17 yoshlarida tahsilni chuqurlashtirish maqsadida Xorazmdan chiqib, Eron, Misr, Shomu Iroq mamlakatlarini kezadi.Tariqatdan xabardor bo‘lishga intilib, bir necha shayx, darvishlar suhbatida bo‘ladi.

Shayx Najmiddin Kubroning «Fil-adab» («Odob qoidalari») risolasida Kubroviya tariqatining asosiy mohiyati va soliklar (tariqat a’zolari)ning axloqiy qoidalari o‘z ifodasini topgan. Soliklarning odoblari, yurish-turishlari va e’tiqodlari to‘g‘risidagi qoidalar esa tariqat a’zolari qat’iyan bajarishi shart bo‘lgan amallardir. Shayxning «Al-usul al-ashara» asarida Kubraviya tariqatining qoidalari ya’ni inson tarbiyasiga xos 10 usul keltirilgan:

1. Tavba. O‘z gunohini bilgan holda tavba aytish;

2. Zuhd. Barcha yomonlik va haromliklardan kechib, yaxshilik va halollik yo‘lini tutish;

3. Tavakkul. Barcha ishlarda faqatgina Ollohga suyanish. Hayotiy turmush, taqdir va rizqda, amal va harakatlarda faqat Ollohga tayanish;

4. Qanoat. O‘z nafsini tiygan holda boriga shukrona, yo‘g‘iga qanoat qilish;

5. Uzlat. O‘z-o‘zini, o‘z botinini tarbiyalash;

6. Tavajjuh. Kurash. O‘z-o‘zi bilan kurashi;

7. Sabr. Barcha ishlarda chidamli bo‘lmoq. Barcha og‘irliklarni sabr bilan yengmoq;

8. Muroqaba. Fikr qilish, kuzatib borish, to‘g‘ri sirni anglash;

9. Zikr. Solik har yerda, har qachon Ollohni til va dilidan ayrmasligi, Olloh nomini tilida va dilida takrorlab yurishi;

10. Rizo. Hamma ishlar, barcha nasiba, taqdir va qazolar Olloh irodasi bilan bo‘lganini anglab yetgan holda Haq ishiga rizo bo‘lmoq.

Ko‘rinadiki, Najmiddin Kubroning tasavvufiy ta’limotida ranglar ma’nolari keyingi vaqtlarda tasavvuf nazariyotchilari ta’riflagan ranglarning sharhidan tubdan farq qiladi. U yetti rang xislatini, ya’ni ma’nosini yetti tushunchaga moslab sharhlab bergan. Uningcha, oq rang – islomni, sariq rang – iymonni, zangori rang – ehsonni, yashil rang – itminonni (ishonchni), ko‘k rang – iqonni (to‘liq ishonch), qizil rang – irfonni, qora rang – hayajonni (hayratni) anglatadi.

Ta’kidlash joizki, Najmiddin Kubroning rang haqidagi ta’limotini Yevropaning Kafka, Shopengauer, Freyd kabi faylasuf olimlari XIX asrda isbotlashgan. Ya’ni, rangning kishi ruhiga ta’siri borligi, ranglar shunchaki rang emas, balki inson hissiyoti tufayli paydo bo‘lgan va uning tafakkuri orqali ko‘rinadigan narsa va ayni paytda, inson tuyg‘ulari va tafakkuriga ta’sir qilishi mumkinligini asoslab berdilar.

Najmiddin Kubroning «Faqirlar haqidagi risola»si insonni tarbiyalash bo‘yicha ibrat kitobi sanaladi. Shayx yozadi «Dunyoning bir qismini kezib chiqdim, ko‘p ishlarni tajriba qildim, qiyinchiliklarga yo‘liqdim, kishilar bilan suhbat qurdim, ulug‘ ishlarga qadam bosdim, tirikchilikning achchiq-chuchugini todim. Kitoblarga murojaat qildim, olimlar xizmatida bo‘ldim, umrni dunyo izlash bilan zoe o‘tkazmadim, ajoyibotlarni ko‘rdim. Ko‘rdimki, umr dunyodan ko‘ra tez, shoshib yo‘q bo‘lib ketadiganroq, o‘lim oxiratdan ko‘ra yaqinroq, orzudan ko‘ra uzoqroq, xotirjamlikdan ko‘ra go‘zalroq narsa yo‘q ekan....Muvaffaqiyatni sa’yi harakatda, muvafaqiyatsizlikni esa loqaydlik va dangasalikda, baloni tilda, halovatni sukutda ko‘rdim... Ko‘rdimki, eng noyob ne’mat rostgo‘ylik va qahramonlik, eng og‘ir og‘riq esa yomon va munofiq do‘stlar ekan. Ko‘rdimki, Olloh dunyo qulligidan ozod qilgan kishigina haqiqiy hur ekan».

Kubroviya ta’limotining asosini tashkil etadigan komil g‘oyasi bugungi kun yoshlarini tarbiyalashda ham muhim o‘rin egallaydi. Shayx Najmiddin Kubroning ruboiylari tarbiyaning yorqin namunasidir. Ruboiylaridagi tasavvufiy g‘oya komil insonni tarbiyalash, odamni halokatga boshlovchi nafs, xusumat, gumon, ta’ma, nifoq, riyo, fosihlik kabi illatlar bilan bog‘liq gunohlardan, ya’ni salbiy fe’l-atvordan xalos bo‘lib, faqat yaxshi axloq sohibi bo‘lishga, ruhiy poklik yo‘liga kirishga chorlashdan iboratdir:

Har sabzaki suv yaqosida yuz ochmish,
Bir ruhi farishtadur, magar ko‘z ochmish.
Bir hoki parivashki, yomon qo‘yma qadam,
Bu go‘shaki uchun lolavu nargis ochmish...

Shoirning tasavvufiy tushunchasiga ko‘ra, butun mavjudotning birinchi manbai Xudo, u jilolanib moddiy olamdagi borliq narsalarning yuzaga kelishiga sababchi bo‘ladi. Jumladan, inson ham uning jilosidan yaralgan. Shunday ekan, inson o‘zini doimo dildan Haq bilan his etgan chog‘dagina uni har qanday gunohlardan, yomon niyatlardan asrab, unga ruhiy poklik yo‘lini ochib beradi va arshi a’lo kengliklariga ko‘taradi:

Chun haq va talab yo‘liga kirmoq joiz,
Dunyo etagin tutib, yugurmoq joiz.
Ko‘rmoqqa o‘zingni sa’y etgil zero,
Olam ko‘zi birlan uni ko‘rmoq joiz.

Kubroviya ta’limotining asosini tashkil etadigan insonning komil g‘oyasi bugungi kun yoshlarini tarbiyalashda ham muhim o‘rin egallaydi. Demak, barcha tasavvufiy ta’limotlarning asosiy mohiyati: inson tarbiyasi, inson takomili, axloqi, insonni ulug‘lash va uni e’zozlashga qaratilgan. Shunga ko‘ra, Shayx Najmiddin Kubroning vatanparvarlik haqidagi qimmatbaho fikri ham hozirgacha benihoyat muhim, dolzarb sanaladi. Shayxning «Vatan himoyasi yo‘lida shahid bo‘lmoq –

Xudo vasliga noil bo‘lmoqdur!» – degan so‘zlari payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning «Vatanni sevmoq – iymondandir», – degan hadisi sharifiga hamohangdir.

XIII-asr boshida Xorazmda Najmiddin Kubro o`z tasavvufiy qarashlarini rivojlantirib, kubroviylik — tasavvuf tariqati asos solgan. Uning asarlarida tariqatning mohiyati, o‘ziga xos talab va qoidalari bayon qilib berilgan. Kubroning tasavvufiy ta’limotiga ko‘ra, inson o‘z mohiyati bilan kichik olamdir, u katta olam bo‘lgan koinotdagi barcha narsalarni va sifatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ammo ilohiy sifatlar yuqori samoviy doiralarda birin-ketin o‘ziga xos maqomlarda joylashganligidan, haqiqat yo‘lini qidiruvchilar bunday kamoga erishish uchun ma’lum riyozatli yo‘llarni o‘tishlari zarur.Bu yo‘lda unga piri komil rahnamolik qilishi kerak. Kubro kamolotga erishish asoslarini quyidagi o‘nta talab ("O‘nta usul") da ifodalab bergan: tavba — barcha amallarning boshi bo‘lib, Alloh oldida tavba qilish, bundan keyingi hayotni ilohiy ezgulik va xayrga bag‘ishlashga ahd qilish; zuhd — taqvo, parhez, haromdan hazar qilib, halollikka yuz tutish, Alloh man etgan ishlarni qilmaslik; tanakkul (tanak-kal) — barcha ishlarni qilishda Allohning mehribonligi va qudratiga tayanish; qanoat — hayot kechirishda oz narsa bilan qanoatlanish, mo‘’tadillik, tuban mayllardan ozod bo‘lish; o‘zlat — tanholikda bo‘lish, xilvatda ruhni poklash; tanajjuh (yuzlanish) — butun vujud bilan Allohga yuzlanib, undan madad so‘rash, u sari qalban intilish; sabr — solikning o‘z e’tiqodi, niyatini sivashi. Haq yo‘lining azobu iztirobiga chidagan kishilargina maqsadga erishadi; muroqaba (tafakkurga g‘arq bo‘lish) — qalb poklangani va tuban ehtiroslardan holiligini tuyib, xotirjam bo‘linganini eslab xayolga cho‘mish, Haq taolo rahm-shafqatini ko‘tib turish; zikr — Allohning ismini tildan qo‘ymaslik, kalimayu duolarni muntazam takrorlab turish; rizo — Alloh qudratini chu-qur his qilgan holda, o‘zini butkul uning irodasiga topshirish va bundan huzurlanish. Bu maqom solikni Haqqa, Haqning unga yaqinlashganligini bildiradi.

Kubro ilohiy ma’rifatni sufiy faqat foniylik holatida, ya’ni butkul o‘zligini yo‘qotib idrok eta oladi, degan fikrga e’tiroz bildiradi va Juvayd Bag‘dodiyning "sahv" (hushyorlik) yo‘lini to‘tib, tafakkuriy-aqliy bilimga e’tiborni qaratadi. Bunday yo‘lni Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband ham ma’qullagan. Kubro inson ruhiy kechinmalari, nozik holatlarini puxta bilgan. Shunga muvofiq "latoif" ("nozik ta’blilik") nazariyasini ishlab chiqqan. Bu nazariyaga ko‘ra, inson ruhi ko‘zga ko‘rinmas latif markazlardan iborat. Bu ong va tuyg‘u, ruh va jism orasidagi bir narsa. Uni ilg‘ab olish mushkul. Ammo inson hayotida bu markazlarning ahamiyati muhim. Sufiy ayni shu markazlarni ilg‘ab olishi lozim.Ana shu "latoif" insonning ilohiy hislatidir. Sufiy riyozatlar, mashqlar davomida bu latoifni turli holatlarning o‘zgarishi, ranglar va shakllarning almashinishi tarzida tasavvur qiladi. Kubro nazarida nuqta, dog‘ va doira murid ruhiy qolatlari o‘zgarishida muhim xizmat qiladi. Doira — falak doiralarining aylanishi, dog‘ — dunyo timsoli, nuqta —

vaxdatdir.Doira doimiy aylanishda, u dog‘ni ham o‘z ichiga oladi.Ammo bo‘lar markaz tomon, ya’ni nuqta sari intiladi. Nuqta mohiyatini anglash orqali Alloh olamini idrok etsa bo‘ladi.

Shunday qilib, Kubroviya ta’limotining asosini tashkil etadigan komil g‘oyasi bugungi kun yoshlarini tarbiyalashda ham muhim o‘rin egallaydi. Shayx Najmiddin Kubroning kubroviyya tariqati yoshlat tarbiyasining yorqin namunasidir. Tariqatdagi tasavvufiy g‘oyalar va ibratli fikrlar, mulohazalar komil insonni tarbiyalash, odamni halokatga boshlovchi nafs, xusumat, gumon, ta’ma, nifoq, riyo, fosihlik kabi illatlar bilan bog‘liq gunohlardan, ya’ni salbiy fe’l-atvordan xalos bo‘lib, faqat yaxshi axloq sohibi bo‘lishga, doim ilmga intilishga, sof fikrlashga, ruhiy poklik yo‘liga kirishga chorlashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. “Ma’naviyat yulduzlari” (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999).
2. Komilov N., Tasavvuf (2-kitob), T., 1999.
3. Snesarev G. P., Xorezmiyskiye legendi kak istochnik po istorii religioznix kultov Sredney Azii``, 1983.
4. Izbullaeva, Gulchehra, Pedagogika nazariyasi va tarixi (Pedagogika tarixi XIII – XIV asrlar), /G. Izbullaeva. - Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2019.
5. Vohidov SH, A. Qodirov. “Sharqning mashhur sulolalari”,– Toshkent: Akademnashr, 2013

QADIMGI DAVRDA QURILGAN TARIXIY-MADANIY QO‘RG‘ONLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ismailova Nilufar Baxramovna
Qoraqalpoq Davlat Universiteti 2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: dotsent **Salamat Sulaymanov**
https://doi.org/10.5281/zenodo.7438570

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal’a tumani va Xorazm hududidagi tarixiy-madaniy yodgorliklar, ularning yaqin va uzoq o‘tmishi, geografik joylashuv o‘rni haqida qisqacha bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: arxeolog, qal’a, ekspeditsiya, shahar, qarorgoh, g‘isht, qum, devor ,qo‘rg‘on, tanga, voqea, topilma, tekislik, qasr.

Yaqindagina 45 bahorni qarshilagan Ellikqal’a tumanimiz butun dunyodan tashrif buyurayotgan sayyohlarni, sarmoyadorlarni, ijodkor va san'atkorlarni, siyosat arboblarini kutib olmoqda.Tumanimizga bir marta kelgan mehmon qalbida ajib his tuyib, katta ta'surotlar bilan qaytishi aniq. Negaki, bir tomonda navqiron, ko'rkam va barkamol shahar tursa, ikkinchi tomonda o'z bag'riga qancha sir-u sinoatlarni yashirib, salobat to'kib turgan qal'alar namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi Ellikqal’aning uzoq tarixiga oid makonlar,mudofa qo‘rg‘onlari va eski qal’alarda arxiolog-tarixchi olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar va qazish ishlari natijasi bu hudud tarixining naqadar boy ekanligini ko‘rsatad.Ellikqal’a- juda ko‘plab tarixiy qal’alar va inshootlarni bag‘riga olgan mo‘jizaviy zamin.Bu qadimiy obidalarga boy makonni “ochiq osmon ostidagi muzey” deyishlari bejiz emas Buning boisi, qadimiy qal'alarga ega ushbu go'shada tarixiy obidalar bilan bo'ylasha oladigan ellik birinchi qal'a-mo'jazgina Bo'ston shahri qad rostladi.

Buyuk ipak yo'lida joylashgan ushbu qal'alarning har biri minglab asrlarning suronli to'fonlarini boshidan kechirgan, ajdodlarimizning tarixidan so'zlovchi "tirik" guvohdir.Qadimgi va o'rta asrlardagi Xorazm yodgorliklarini arxeologik tomondan o'rganish XX asrning 30-yillari o'rtalaridan boshlandi va bu izlanishlar hozirgi kunda ham jadal davom etmoqda.Bu izlanishlarni bevosita to'rt bosqichga bo'lish mumkin:

- urush davrigacha(1936-1940-yillar) olib borilgan tadqiqotlar;
- urushdan keyingi davrda (1945-1958-yillar) olib borilgan tadqiqotlar;
- 1959-1990-yillarda olib borilgan tadqiqotlar va mustaqillik yillarida olib borilayotgan tadqiqotlar.

M.Mambetullaev arxeologik izlanishlarida Janubiy Xorazm mudofaa inshootlari masalalariga stratigrafik ma'lumotlar va joylashtirish xususiyatlariga qarab Janubiy

Xorazm mudofaa inshootlarini nisbiy davrlashtiradi va dastlabki tipologik tasnifini beradi.

Tadqiqotlar natijasida muallif m.a. IV-III asrlarda Janubiy Xorazm chegaralarida shimoldagi kabi istehkomlar zanjiri yuzaga keladi deb xulosa chiqaradi.

Sulton Uvays tog'ining sharqiy tarmoqlari yonidan uchta qal'a xarobalari joy olgan bo'lib, ular baland tepalik ustida joylashgan Ayozqal'a (ya'ni Ayozqal'a-1); Ayozqal'a-1 tepaligidan janubdagi baland bo'lmagan do'nglikda joylashgan qasr Ayozqal'a-2; Ayozqal'a-2 dan 250-300 metr masofada tekislikda joylashgan xaroba esa Ayozqal'a-3 deb belgilangan.

Xorazm ekspeditsiyasi a’zolari Xorazm podshohlarining qarorgohi hisoblangan Tuproqqal’a xarobalaridan va uning tevaragidagi Norinjon va Burgutqal’a atroflaridan ,shuningdek ularga yaqin qasrlardan Anqaqal’a,Katta Guldursin Jeldikqal’a,Ayozqal’a kabi harobalardan dastlabki yillardayoq mingdan ortiq tanga nusxalarini,asosan mis tangalarni topganlar.Ma’lumki asli tanga-chaqa zarb qilish nafaqat davlatchilik rivojlangan , balki muayyan davlatning mustaqil ekanligidan dalolat beradi.

Tuproqqal’adan topilgan tangalarda ayrim podsholarning yoki afsonaviy qahramonlarning surati zarb qilishni ham bu yerda o‘zining ichki va tashqi siyosatini olib brogan qudratli davlat tuzumi mavjudligini tasdiqlaydi.Hatto kopchilik tangalar muayyan tamg‘alarga ega ekanligini inobatga olsak,bu davlatda nafaqat mustabid podsholar,balki ayrim xukumdorlar mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib brogan bolsa ajab emas.

Xorazm davlati xududida iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lib olgan bir qator hokimliklar vujudga keldi.Tuproqqal’a saroyi zallarining birida boshiga toj kiygan va qo‘liga burgut ushlagan podsho haykalining topilishi,shuningdek Anqaqal’a yaqinida ham boshida toj,qo‘lida burgut ushlagan kishi surati solingan tangalar topilishi,bu tangalarningshu joyda zarb etilganligi –mahalliy sulola hokimyati o‘rnatilganligidan dalolat beradi.

Tuproqqal’a o‘zining tuzilishi,devorlari va undagi shinaklar,u yerdagi xonalarning qurilishi va mudofa tizimi bilan antik davrdagi katta shaharlarga o‘xshab ketadi.Lekin u o‘zining ajoyib san’at boyligi bilan alohida o‘rin tutadi.Buyuk xorazmshohlarning ilk poytaxti bo‘lgan bu ajoyib tarixiy ibida Sulton Uvays tog‘ining janubrog‘ida, qadimiy qal’alarhududida joylashgan.Bu tiltilsim qal’a harobalari 17.5gektar maydonni(500x350metrni) ishg‘ol etadi.

S.P.Tolstovning ta’riflashicha, Tuproqqal’a shahari va undagi saroyning qurilishi ham dastavval muhim siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan voqea hisoblanadi.Chunki bu inshootning bunyot etilishi tarixida “Xorazm era”sining boshlab bergan voqea, deb yuksak baholanadi.

Ming yilliklar davomida xozirgi birgina Ellikqal’a tumani hududida 100 dan ortiq mudofaaga mo‘ljallangan ko‘hna qal’alar bo‘lgan bo‘lsa,bugungi kunga kelib 20 dan ziyotroq anashu eski qal’alar xarobasi saqlanib qolgan xolos.

S.P.Tolstov Tuproqqal’a va Jeldikqal’a kabi qadimiy binolarning poydevori qum g‘isht bilan to‘ldirib qurilganligi, bu esa o‘z navbatida nam van nam olib keladigan tuz tasirlardan saqlashda qadimgi xorazimliklarga xos usul ekanligini ta’kidlaydi.

Tumandagi qal’alarning eng qadimgisi va eng kattalaridan birini odamlar “Ellikqal’a” deb atashadi. Uni professor S.P.Tolstov o‘zining “Qadimgi Xorazm”,

“Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab”nomli asarlarida “Jeldikqal’a” nomi bilan tilga oladi. ”Jeldikqal’a” so‘zi esa “Ellikqal’a” so‘zining hozirgi qozoq tilidagi talaffuzidir. Har ikkalovi ham “Shabadali qal’a”, “Mayin shamolli qal’a” degan ma’noni anglatadi

Burgutqal’a uzoq moziydan darak beradi. Burgutqal’a qo‘shimcha past to‘siq devorlarning bo‘lganligi qadimgi harbiy san’atning yutuqlaridan foydalaninshning ko‘rinishidir. Past to‘siq devor urush paytida devor buzuvchi mashinalarning xujumidan qal’a axolisini himoya qilishga mo‘ljallangan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, xorazmshoh Chogon ukasi Xurshod turgan Burgutqal’aga qarshi urush ochadi. Xurshod boshligidagi burgutqal’aliklar shoh Chagon qo‘shinlarini yengib , vohadan va Xorazmdan surib tashlaydilar. O‘z ukasining qo‘shinlaridan yengilgan shoh Chagon nomardlik qilib , Xorazmni o‘zlariga qaram qilib olishga shay turgan arab bosqinchilariga Xurshodni yengib olisgda yordam so‘rab murojat qiladi. Natijada arab qo‘shinlari 712-yilda Xorazmning poytaxti Katni, keyin Burgutqal’ani va uning atrofidagi aholini punktlarini uzoq kurashlardan keyin bosib oladi va qarshilik ko‘rsatganlgi uchun aholini qirib tashlaydi.

Qo‘yqirilganqal’a zamonasining rasatxonasi bo‘lgan. S.P.Tolstov qal’adagi astranomik kuzatishlarga mo‘ljallangan besh derazali xonani sinchiklab o‘rganib va ayrim uskuna qoldiqlariga qarab , bu joyda rasatxona (abservatoriya)bo‘lgan degan dalillarni keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sergey Tolstov "Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab" T: 2004
2. Yaxyo G'ulomov "Xorazmning sug'orilish tarixi" T: 1959
3. Iso Jabborov "Ko'hna xarobalar siri" T: 1961
4. Iso Jabborov "Buyuk Xorazmshohlar davlati" T: 199
5. G'ayratdin Xo'janiyazov "Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari" T: 2007
6. Menges Allambergenov "Qadimiy mudofaa qo'rg'onlari" T: 2007

САИД АҲМАДНИНГ ЗАМОНДОШЛАРИ ҲАҚИДАГИ ХОТИРАЛАРИ

Нарзуллоева Нилуфар Сайфуллоевна
Ангрен шаҳар 6-мактаб
она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7440939

Аннотация: Мемуар асар бу реал воқеа-ҳодисалар иштирокчиси ёки гувоҳининг ўтмиш ҳақидаги хотира асари ҳисобланади. Мемуар асарларнинг тарихий ҳужжат сифатидаги қиммати, уларга асос қилиб олинган воқеаларнинг моҳияти, баёнининг изчил ва аниқлиги билан белгиланади. Хотиралар, эсдалик-эсселар, кундаликлар, ёндафтар-қайдларлари илмий-ҳужжатли мемуаристиканинг жанр турлари, тафаккур шакллари ниҳоятда ранг-баранглигидан далолат беради.[2,11] Мемуар асарларнинг илк намуналари антик давр адабиётига тегишли. Ўрта асрлар, Уйғониш ва кейинги даврларда мемуар асарларнинг хилма-хил турлари пайдо бўлган. Мемуар характеридаги асарларнинг яратилиши Шарқ адабиётида ҳам ўзига хос анъаналарга эга. Илмий-ҳужжатли мемуаристика кеча ёки бугун келибгина пайдо бўлган эмас; унинг илдизлари кекса классик адабиётимизда бориб туташади.[2,61] “Носир Хусравнинг “Сафарнома”, Зайниддин Восифийннг “Бадое ул-вақое”, Алишер Навоийнинг “Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер”, “Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад”, Бобурнинг “Бобурнома” асарлари мемуар асарларнинг ноёб намуналаридир.

ХХ асрнинг 70-80-йилларидан бошлаб ёзувчи ва санъаткор ҳақида хотира китоблар яратилди. Хотиралар ижодкорларнинг ижодий лабораторияси, биографиясини ўрганишда адабиёт илмини бойитишда ўзига хос ўринга эга. Абдулла Қаҳҳор, Ғафур Ғулом, Ойбек ҳақидаги “Замондошлар хотирасида” китоблари ана шундай хотира китоблар сирасига киради. Ушбу хотира китобларда турли ижодкорларнинг маълум бир ижодкорга нисбатан билдирган фикри ва ўзи гувоҳ бўлган ҳаёт талқини, хотиралари баёнини эътибор марказида бўлади.

Ўзбекистон халқ ёзувчиси, “Ўзбекистон Қаҳрамони” Саид Аҳмаднинг “Йўқотганларим ва топганларим” китоби ҳам ана шундай мемуар-биографик китоблардан, шу билан бирга бутунлай ўзига хос услуб ва композицион қурилишга эга асар ҳам ҳисобланади. Ушбу мақолада Саид Аҳмаднинг адабий жараён ва унинг яратувчилари билан боғлиқ қарашлари ўрганилган.

Калит сўзлар: мемуар асар, хотира, биография, далил, мемуаристика, эсдалик, адабий жараён, адабий танқид, танқидчи, тафаккур.

Ўзбек адабиётида XX асрнинг 70-80-йилларида ёзувчилар ва санъаткорлар ҳақида мемуаристик асарлар, хусусан, хотира китоблар яратиш анъанага айлана бошланди. Хотира- илмий-ҳужжатли мемуаристиканинг бир бўлагидир. Хотира яратишнинг афзаллиги жуда кўп. У, биринчидан, ёзувчи ва шоирларнинг ҳаёти ва ижоди, улар яшаган давр, адабий жараён ҳақида қимматли маълумотлар беради. Иккинчидан, улар асарларининг ёзилиш жараёни, руҳияти, кайфияти манзараларидан, илмий ва ижодий хаёлларининг тўлқинидан хабардор этади. Учинчидан, бу омиллар илмий-назарий, шу билан бирга илмий-бадиий йўналишдаги тадқиқот ишлари учун асос бўла олади» [6,56], - деб ёзади Ш. Ахмедова. Тўғри, улкан сиймоларнинг бетакрор илҳом дақиқалари, ижодий изланишлари, ўй-хаёллари, асарларининг ёзилиш жараёни билан боғлиқ ҳолатлар, шахсий ҳаёти билан боғлиқ хотиралар рус адабиётидагига нисбатан бизда кам яратилган. Шу кунгача талай адиблар ҳақида ўнлаб хотира китоблари дунёга келди. Ҳ.Қодирийнинг “Отам ҳақида”, замондошлари ёдномаларидан тартиб берилган “Абдулла Қодирий замондошлари хотирасида” ва “Қодирийни қўмсаб”, “Айний замондошлар хотирасида”, З. Саидносированинг “Ойбегим менинг”, Н.Каримовнинг “Зарифа ва Ойбек” ҳамда жамоанинг “Ойбек замондошлари хотирасида”, Саид Аҳмаднинг “Назм чорраҳасида” ҳамда “Йўқотганларим ва топганларим”, К.Қаххорованинг “Чорак аср ҳамнафас” ва жамоанинг “Абдулла Қаҳҳор замондошлари хотирасида”, “Мақсуд Шайхзода замондошлари хотирасида” ва бошқалар шулар жумласидандир. Бу хотира китобларда турли ижодкорларнинг ўзи яхши билган маълум бир ижодкорга нисбатан билдирган фикрлари, ижодига муносабати, баҳоси ва ўзи гувоҳ бўлган ҳаёт талқини, хотиралари баёнига эътибор қаратилади. Масалан, “Абдулла Қаҳҳор замондошлари хотирасида” китобида Абдулла Қаҳҳор шахси турли миллат ва ўзбек ижодкорлари томонидан хотирланади, унинг ижоди ва шахс сифатидаги қирралари кашф этилади.

Ўзбекистон халқ ёзувчиси, “Ўзбекистон Қаҳрамони” Саид Аҳмаднинг бутунлай ўзига хос услуб ва композицион қурилишга эга “Йўқотганларим ва топганларим” китоби ҳам ана шундай мемуар-биографик китоблардан ҳисобланади. Ушбу мемуар-биографик асари композицияси ўзига хос тарзда тузилган бўлиб, “Йўқотганларим” қисмида устозлари Ғ. Ғулом, А. Қаҳҳор, М. Шайхзода, Миртемир, Шуҳрат, замондошлари Саида Зуннунова, Асқад Мухтор, Туроб Тўла, Ў.Умарбеков ҳақида самимий мулоҳазаларини баён этса, “Топганларим” қисмини Ў.Ҳошимов, Н.Аминов, Тоғай Мурод, Н.Фозилов, М.Қориев, Тўлан Низом каби ижодкорларга бағишлайди.

Асарнинг жозибасини таъминлаган омиллардан бири шундаки, адиб ким ҳақида ёзмасин, уларни яхши билган инсон сифатида самимият билан, устозлари, тенгдошлари, шогирдлари ҳақида катта муҳаббат билан ёзади.

Ижодкорга, унинг асарига танқидчи сифатида баҳо беради. Масалан, “Миртемир жон-тани билан, вужуд-вужуди билан, сабр-бардоши билан, ўй-туйғулари билан шоир эди. Чинакам шоир эди”[4,161]. Айниқса, адибнинг Тоғай Мурод ҳақида ёзганлари самимий ва меҳрга, ҳиссиётга тўлалалиги билан китобхон қалбларни титратади: “Тоғай Мурод ўз она тилини бениҳоя яхши билади. Билгандаям бутун ранглари билан, оҳанглари билан билади. Шу боис соф ўзбекча битади. Тоғай Мурод ўзбек тилини куйлатди. Ўзбек тилнинг жами жилваларини офтобга солиб кўрсатди”[4,251]. Адиб хотираларининг яна бир аҳамиятли томони шундаки, у фақат хотираларни келтирмайди, балки тилга олаётган шоир ёки ёзувчи ҳақида фикр юритар экан, ўзининг адабиётга доир қарашларини ҳам баён этиб кетадики, бу эса мавзунинг долзарблигини ҳамда Саид Аҳмаднинг адабий-танқидий қарашларини тадқиқ этиш заруратини кўрсатади.

Саид Аҳмаднинг замондошлари ҳақидаги турли жанрдаги асарларини ўқир эканмиз, унинг, энг аввало, сўз санъатига, уни яратувчиларига бўлган юксак ҳурмати ва муҳаббатини сезиб турасиз. Китобни ўқишли қилган фазилатлардан бири ҳам мана шунда. Масалан, у атоқли шоир, носир, драматург ва таржимон Асқад Мухтор романлари, бир қатор қисса, ҳикоя ва драмалари, бой кузатувларга асосланган фалсафий лирикаси, жаҳон адабиёти намуналаридан бадиий юксак таржималари билан XX аср адабий жараёнида ўз услуби ва ўз китобхонига эга йирик сўз санъаткорлардан бири бўлган Асқад Мухтор ижодини ҳам ўрганади. *“Асқад Мухторнинг ҳалоллиги бор сурати-ю сийратидан, ёзган ҳар бир шеъри, достони, қисса-ю романларидан, лафзи-ўйларидан аён эди. Ўша қизил албонларга ўралган “Опа-сингил” лардан тортиб, “Аму” ё “Чинор” романларигача, “Дарёлар туташган жойда” ва “Қорақалпоқ қиссаси”дан “Бухоронинг жин кўчалари” қиссаларигача, “Зар қадри”, “Самандар” песалари, “99 миниатюра”дан “Сизга айтар сўзим” каби шеърий тўпламларигача, жаҳон адабиётидан таржима-ю публитсистик мақолаларигача бирор асар инсоний ва ижодий ҳалолликдан холи эмас”[5].*

Асқад Мухтор асарларининг қаҳрамонлари ҳаётнинг синовларига кўп дуч келган, умри давомида синовлардан қалби тобланган, вазмин характердаги шахслардир. Айнан бу хусусиятлар носирнинг ўз характери билан ўзаро боғлиқ. Чунки Асқад Мухтордаги теран фикр, жиддийлик асар қаҳрамонларида ҳам ўз аксини топади. *“Асқад болалигида ҳам ниҳоятда жиддий эди. Бора-бора бу жиддийлик ижодига ҳам кўчди. Китобларнинг қаҳрамонлари ҳам жуда жиддий одамлар. Улар фикр қиладиган, жамият тақдирида катта рол ўйнайдиган қаҳрамонлардандир”.[4,227]*

Асқад Мухтор ёзилажак асар воқеаларига, тасвирларига олдиндан кузатиш қилади. Қандай асар яратмасин у воқеаларни, тасвирларни реал ҳаётда кўриб,

реал тасвирлайди. Унинг илк асарлари саноат мавзусига бағишланган. Бу мавзуда лирик асарлар яратди. Мавзу кўлами кенглиги боис ижодкор йирик эпик асарларга қўл урди. Саид Аҳмад Асқад Мухторнинг шоир, носир бўлиш билан бирга моҳир таржимонлигига ҳам диққат қаратади. Унинг ижоди давомида рус адабиётининг йирик устунларининг асарларини она тилимизга маҳорат билан таржима қилганлиги, Софокл, Шекспир, Шиллер, Пушкин, Лермонтов, Т.Шевченко, М.Горкий, Р.Тагор, А.Блок, В.Маяковский каби жаҳон адабиёти улуғларидан қилган таржималари ҳозирги кунда ҳам ўқувчилар учун аҳамиятга эгалигига ўқувчи диққатини қаратади. Ўзга тилдаги асарни шакли ва шаклдаги гўзаллиги билан бирга таржима қилиш ҳам бир санъат эканлигини таъкидлар экан, Асқад Мухторнинг таржималари адабиётимизни безаб турибди”[4,227],-деб ёзади.

“Танқидчи ва адабиётшунослар асосан асар ҳақида гапирадилар. Ёзувчи ҳақида эса... Ваҳоланки, асар ёзувчидан униб чиқади: фарзандидай унда туғилади, улғаяди, камол топади. У фарзандини авайлайди; ҳимоя қилади. Асар ёзувчининг тақдири, керак бўлганда ёзувчи қурбон бўлишга ҳам тайёр. Унинг бу ғайритабиий садоқати, ёзмасдан туролмаслиги, руҳиятга, фалсафага, мушоҳадага мойиллиги, шахси, феъли, услуби, қарашлари, дарди, қийналишлари ҳеч кимни қизиқтирмайди”[5]. Дарвоқе, адабиёт назариётчилари ҳам ёзувчи шахсияти, ижодий лабораторияси ҳақида кам ёзадилар. Ҳолбуки, асар яратиш жараёнини бу унсурларсиз тўлиқ тасаввур қилиш мумкин эмас. В.Г.Белинский адабиётнинг умуммазмунининг ўзига хослиги ҳақида гапирганда, унинг талантли шахслар томонидан яратилишига сифат масаласи маъносида қарайди. Талантли санъаткоргина адабий асар яратишга қодирдир, аслида адабиёт тарихи талантли ёзувчилар тарихидир[1,56]. Саид Аҳмад ўзининг мемуар-биографик характердаги “Топганларим” асарида Асқад Мухтор шахсига қисқа ва лўнда баҳо беради, адиб ёшликдан қадрдон бўлган сафдошининг ҳаёти, характери, қисман ижодига тўхталади. “Асқад кўп китоб ўқиган, кўп мушоҳада қиладиган мулло ёзувчи. Адабиётга оид катта илмий баҳсларда Асқад бир олимдек гап айта оладиган, фикри тиниқ ижодкордир”[4,226].

Саид Аҳмад Асқад Мухторга бағишланган ҳажман қисқа хотира-мақоласини “Асқад билан ёнма-ён” деб номлаган бўлиб, “Тўрт роман, тўрт қисса, қатор достонлар, драмалар, том-том шеърлар, ҳисобсиз адабий-танқидий мақолалар” олтмиш ёшга кирган Асқад Мухторнинг қирқ йилда яратган мероси эканлигини таъкидлар экан, ижодкор дўсти билан фахрланиш туйғуларини ўртоқлашади.

Мазкур хотира-мақола адибнинг 60 ёшга кириши муносабати билан ёзилган, шу боис уни хотира-юбилей мақола деб аташ мақсадга мувофиқдир.

“Бинобарин, бадиий адабиётнинг фойдалилиги асарда фақат бугун учун хизмат қилувчи бирон маслаҳат ёки консультациянинг мавжудлиги билан эмас, “яхши одам бўл, ахлоқли бўл, одобли бўл” деган қуруқ насиҳатлар билан эмас, балки ҳар қандай асарнинг онгимизга ва қалбимизга берадиган озиғи билан, дунё ҳақидаги билимларимизни бойитиши, маънавий дунёмизни кенгайтириши, гўзаллик туйғусини ўткирлаштириши, ҳисларимизни тарбиялаши билан ўлчанади”[3,168]. Ўзбекистон халқ ёзувчиси Ўлмас Умарбеков юқорида зикр этилган фикрларнинг тасдиғи ўлароқ чинакам бадиий адабиёт намуналарини яратган истеъдодли ижодкорлардан биридир. “Ўлмас том маънода баркамол инсон эди” - дейди Озод Шарафиддинов. Саид Аҳмаднинг “Йўқотганларим ва топганларим” китобида ва Озод Шарафиддиновнинг қатор мақолаларида ижодкор шахсига ва ижодига тўғри таърифлар берилгани кўринади. Ушбу асарларда унинг ижодига, хусусан қиссалари ва романларига алоҳида тўхтанилади.

Саид Аҳмаднинг мемуар-биографик китобига кирган “Ёшлик кўчаларига саёҳат” асари тақриз жанрида ёзилган, чунки унда кўпроқ “Одам бўлиш қийин” романи (адиб уни “беғубор туйғулар достони” деб атайди), унинг ёзилиш тарихи, адиб яратган образлар ҳақида самимий бир тарзда баҳо берилгани кўринади.

Ўлмас Умарбеков “Севгим севгилим” қиссасини ёзди. Асар ҳажман кичик бўлса-да, унда сиёсий тузум инсонлар тақдирига ҳам таъсирини кўрсатгани ўз аксини топган. “Қисса ҳажман увоққина бўлса-да, худди Чингиз Айтматовнинг “Жамила”си ёки Одил Ёқубовнинг “Муқаддас”и каби ўша даврнинг адабий ҳаётида катта ҳодиса бўлди… Бу қисса ўзбек прозасида шахсга сиғиниш оқибатларини қарши ёзилган асарлардан бири эди”[3,168], -деб ёзган эди О.Шарафиддинов XX асрнинг 60-йилларида. “Севгим-севгилим” қиссаси Ўлмаснинг адабиётимизга дадил кириб келаётганига кафил бўлган эди. Бу орада у “Кимнинг ташвиши йўқ”, “Жўра қишлоқ”, “Ёз ёмғири” каби ниҳоятда яхши қиссалари билан ўз ўқувчисини топди, меҳрини қозонди”[4,232]. Ҳақиқатан ҳам талабалик йиллариданоқ мақола, лавҳа ва очерклар ёзган бўлажак адиб нафақат бадиий асарлари, балки ижтимоий-сиёсий фаолияти билан ҳам халқимиз ҳаётида муҳим из қолдирган истеъдодли носирнинг портретига чизгилар Саид Аҳмад қаламига ўзгача тароват бағишлайди.

Ўлмас Умарбековнинг яна бир йирик асари “Одам бўлиш қийин” романи бўлиб унда эрта уйғонган муҳаббат куртаклари қишнинг совуқ шамолига хазон бўлганини ҳис қиламиз. Қаҳрамонлар тақдири шамолдай ўз йўналишни ўзгартиради. Асар воқеалари, қаҳрамонлар ҳис-туйғуларилари қоғозга шундай тушириладики, уни ўқиган китобхон Абдулла каби виждонан қийналади, Гулчеҳрага ачинади ва яна кимдир икки ёшни айбдор қилади ёинки, айбдорни

қидиради.“Ўлмаснинг бу романини қўлга олганимда кўнглим алланечук бўлиб кетади. Ўт-олов болалигим, тўполончи ёшлигим, қанотли ўспиринлик йилларим бирдан лоп этиб кўз олдимга келиб, туриб олади. Фақат нурдан, фақат оҳанглардан яралган ишқ деб аталмиш йигитлик тонгларимни кўраман. Истиқбол дардида ўртанган кечаларим кўз олдимга келади… “Одам бўлиш қийин” китоби менда ана шундай ҳисларни уйғотди”[4,232].

Мемуар-биографик характердаги асарнинг “Топганларим” қисмида Ў.Умарбеков асарига баҳо берилар экан, танқидчи қаҳрамоннинг тақдирида ўз ўтмишини эслайди. Бадиий асар китобхоннинг қалбига етиб бора олгандагина ҳақиқий бадиий асар яралади. Саид Аҳмад адибнинг ижод лабораториясини кузатади. “Ўқувчи у ёзаётган манзараларга, одамларнинг хатти-ҳаракатларига ишонади. Чунки Ўлмас ёзаётган объектни кўриб туради. Кўриб, кейин ёзади. “Одам бўлиш қийин” романининг қаҳрамонлари Ўлмаснинг ўртоқлари, мактабдошлари, курсдошлари. Тасвирланган манзаралар унинг кўчаси, юрган йўллари”[4,233].

Саид Аҳмад Ўлмас Умарбеков Абдулла образи тасвирида ўз кўзи билан кузатган инсоннинг характерини кўради. “Романнинг қаҳрамони Абдулла менга Ўлмаснинг марҳум дўсти, талантли режиссёр Дамир Шокировни эслатади”

Саид Аҳмад адиб асарини танқидчиларга хос сергаклик ва теранлик билан ана шу йўсинда таҳлил этган. У романни таҳлил этганда асар ғоясини эмас, образларнинг ҳаётийлигига, асарнинг ёзилиш жараёнига эътибор қаратади. Саид Аҳмад баландпарвоз сўзламайди. У носирнинг асарларини борича, самимий таҳлил этади. Ў.Умарбеков асарлари бадииятининг реаллиги ва китобхон қалбига етиб бора олишини кўрсатиб беради, асарнинг ўзи учун қадрли ва севикли, ардоқли эканлигини, адиб “ижод жараёнидаги ўз ҳаяжонларини ўқувчига юқтира олган”и, дардига ҳамдард, қувончига шерик қила олгани, ўзи ҳам бу қувончу ҳаяжонлардан бебаҳра қолмаганини китобхонга маълум қилади. Саид Аҳмаднинг бу самимий ва асосли фикрларини ўқиган китобхоннинг адиб ижоди асарларига қизиқиши уйғониши аниқ. Саид Аҳмаднинг адабий-танқидий қарашларидаги содда тил, қалбдан чиққан самимийлик ўқувчини ҳам ўзига тортмай қолмайди.

Ўзбекистон халқ ёзувчиси Саид Аҳмад ўзининг ажойиб публицистик мақолалари, ҳикоя, қисса ва романлари билан адабиётимиз тараққиётига муносиб улуш қўшган Ўзбекистон халқ ёзувчиси Ўткир Ҳошимов ҳаёти ва ижоди ҳақида “Ижод ва жасорат” портрет-мақоласини ёзади. Ўзининг “Йўқотганларим ва топганларим” китобида адиб ижодига алоҳида тўхталади.

У мақолани халқ орасида машҳур бўлган донишманд гаплардан усталик билан фойдаланади. “… агар азамат чинорни бўй-басти билан кўраман, десанг, сал наридан туриб қара, агар ёнидан қарасанг, унинг фақат бир бўлагини

кўрасан, узоқдан қарасанг, бутун салобати билан кўрасан, деган экан”[4,236]. Ўткир Ҳошимов халқпарвар инсон бу хусусият унинг фаолиятида ҳам кўринади. “ Она халқининг дардига ҳамдард, қувончига шерик бўла оладиган, ҳар қандай мушкул шароитда ҳам уни ҳимоя қила оладиган, ижодкоргина меҳрга, иззат-ҳурматга сазавор бўлади”[4,237].

“Топганларим” да ёзувчи шахсига паъриф берилган. Ушбу асарда носирнинг турли асарларига Саид Аҳмад ўзининг муносабатини ифода этади. Ёзувчи Ўткир Ҳошимов асарларининг гултожларидан бири бу- “Икки эшик ораси” асар нафақат ўз даврида, балки ҳозирги замонда ҳам китобхонлар қўлидан қўймайдиган асарлардан биридир. Асарда жаҳон уруши инсонлар тақдирига қай даражада таъсир қилганлиги асарнинг барча қаҳрамонлари ҳаёти орқали тасвир этилади. “Роман уруш ва урушдан кейинг йиллардаги қишлоқ ҳаёти, урушнинг жами оғирликларини, маҳрумликларини азамат елкасида кўтарган, ўзи емай топганини жангчилар оғзига тутган, фидойи деҳқонлар жасорати мадҳ қилинган”[4,239]. Шунингдек, адиб Саид Аҳмад айрим асар қаҳрамонларини тақдирини мисол келтирар экан, Раъно, Робия, “Қора амма”, Шомуродлар образларига тўхталади. “Никоҳ кечасининг эртасига куёвини жангга жўнатиб келинлик либосини иш кийимига алмаштирган чиллали келинларнинг либосини иш кийимига алмаштирган чиллали келинларнинг оғир, машаққатли меҳнатлари, ота ўрнида кетмон кўтариб далага чиққан норасида гўдаклар, ўғли ўрнига ер чопган букчайган чол-кампирлар кўз олдингизда пайдо бўлади”.[4,239] Асарни ўқиш давомида қаҳрамонлар дарди китобхонга таъсир эта олса, демакки, асар қиммати ўзига хосдир. “Икки эшик ораси” асари уруш даврини тасвирлаган бебаҳо асарлардан биридир. Бебаҳолиги шундаки, асарни ўқиган китобхон уруш инсоният бошига қандай кулфатлар олиб келишини ҳис қилади. Саид Аҳмад асарга билдирган адабий-танқидий фикрлари сўнггида шундай дейди: “ “Икки эшик ораси” романи ўзбек адабиёти хазинасидан ўз ўрнини топган асарлардан бири бўлиб қолди. Бу асар халқлар бошига кулфат солган иккинчи жаҳон уруши тўғрисида ёзилган аччиқ ва аламли йилномадир”[4,239]

Саид Аҳмад таҳлил қилган асарлардан бири “Тушда кечган умрлар” романидир. Бу романда “Афғон уруши” ҳам инсониятга бахт олиб келмаганлигининг исботидир. Асарда шахсга сиғиниш йиллари, уруш ҳали-ҳануз инсонлар қалб ярасига айланиб бўлгани яққол кўринади. Хусусан, асарни ўқиган ёзувчи Саид Аҳмад ундан олган таассуротларини шундай ёзади. “Тушда кечган умрлар” романи Ўткир ижодида алоҳида ўрин тутади. Шахсга сиғиниш йиллари одамлар юрагида очган яралар ҳамон жазиллаб оғриб турибди. Қўлтиқтаёқда юрган уруш ногиронларининг ярасидан ҳамон қон томаяпти. Қанчалаб азамат ўғлонларнинг жасади олис, энди бориб бўлмайдиган чет

элларда қолиб кетди. Боласидан, ёридан, оғасидан жудо бўлганлар ҳамон қора кийимда. Улар ҳалигача йўл пойлайдилар. Бу даҳшатлар, бу айриликлар собиқ совет раҳбарларининг кўзини очмади. Генералларнинг маршал бўлгиси, маршалларнг бош қўмондон бўлгиси, битта “Олтин юлдуз”ини тўрт-бештага етказгиси келиб қолди. Уларнинг бундай орзулари фақат уруш бўлгандагина амалга ошиши мумкин эди. Қанча бегуноҳ йигитларимизнинг нимта-нимта бўлган жасадлари темир тобутларда қайтди”[4,240].

Ушбу асар ҳақида адиб Саид Аҳмад ўз қарашларини қисқа ва лўнда ифодалаган. “Романни лоқайд-ҳаяжонсиз ўқиб бўлмайди. У китобхонни ларзага солади. Халқ бошига кулфатдан бошқа нарса солмаган қонли урушни бошлаган телба урушқоқларга дил-дилидан қарғиш ёғдиради”[4,240].

Ўткир Ҳошимовнинг яна шундай асарлари борки, у кўп учрайдиган мавзуни бошқа шаклда қаламга олади. Саид Аҳмад таърифи билан айтганда, “сўз санъаткори” эканлигини исбот этади. У “Она” мавзусини ўзининг “Дунёнинг ишлари” асарида қиссасида ўзгача шакл ва ўзгача руҳда ёзган.

“Айниқса, “Дунёнинг ишлари” асарини қисса эмас, достон деб аташни истадим. У қўшиқдай ўқилади. Уни ўқиб туриб, ўз оналаримизни ўйлаб кетамиз. Шу мушфиқ, шу жафокаш оналаримизнинг олдидаги бир умр узиб бўлмас қарзларимизнинг ақалли биттасини уза олдикми, деган андиша, бир савол кўз олдимизга кўндаланг туриб олади. Қисса бизни инсофга, инсонни қадрлашга, ҳурмат қилишга чақиради”[4,240]. Саид Аҳмаднинг ушбу баҳоси тўғри ва ҳаққоний эканлигини қиссанинг китобхонлар орасида машҳур бўлиб кетганлиги ҳам кўрсатиб турибди.

“Йўқотганларим ва топганларим” китобида Саид Аҳмад Ўткир Ҳошимовнинг ижоди ва шахсига ўткир нигоҳ билан, муҳаббат ва эҳтиром билан назар ташлагани яққол кўринади.

Ўзбек адабиётида мемуар асарлар йўналишида ўзига хос асар яратган Саид Аҳмад турли жанрларда ўзининг замондошлари ҳаёти ва ижодига назар ташлаш орқали ўзининг адабиёт ва адиб ҳақидаги нозик кузатишларини, адабий-танқидий қарашларини намоён этганини уч ёзувчи ижодини таҳлил қилиш орқали кўрсатиб беришга ҳаракат қилдик. Адибнинг мунаққид сифатида ҳар бир адиб ижодига баҳо беришдан олдин, унинг шахсиятига ҳам назар солиши биографик характердаги асарлар учун энг муҳим хусусият сифатида кўринади. Бу эса таҳлил ва талқин жараёнида ёзувчининг, асарларининг характерини, моҳиятини очиб беришда,уларни тўлиқ таҳлил этилишига ёрдам беради.

Адабиётлар:

1. Адабиётшунослик назарияси: Олий ўқув юртлари учун дарслик. — Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. — 264 б-Б56

2. Нўъмон Раҳимжонов.Илмий тафаккур жилолари.Фан.Т.:1991-65б-Б-4

3. Озод Шарафиддинов. Адабий этюдлар. Бадиий адабиёт.Т.:1968.Б-168

4. Саид Аҳмад. Йўқотганларим ва топганларим. Тошкент: Сано-стандарт, 2019- 352б-Б226

5. https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/shuhrat-rizayev-asqad-muxtor.html

6. Ахмедова Ш. Ўзбек адабий танқидчилиги жанрлари.Т.:Фан, 2009. 56-бет

O‘ZBEK XALQ MILLIY O‘YINLARDAN “LANKA”O‘YINI HAQIDA

Allayev Shuxrat Tohirovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti magistranti
Toshkent viloyati Chirchiq shahar 25-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
jismoniy tarbiya o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7440949

Annotatsiya: Keltirilgan ushbu maqolada milliy o‘yinlardan “Lanka” o‘yini tarixi, inson salomatligiga qanchalik foydaligi va hayotda ahamiyatligi tutgan o‘rni.

Kalit so‘zlar: Lanka, o‘yin qoidasi, o‘yin texnikasi, qo‘y yoki echki terisi, qo‘rg‘oshin.

“Lanka”o‘yini O‘zbek milliy xalq o‘yini bir necha asrlar mobaynida xalq sayllarda ,” Navro‘z “ bayramlarida , xalqimiz orasida , kattalar va yoshlar o‘rtasida o‘yin–musobaqa sifatida o‘ynalib kelingan. Bugungi kunda mamalakatimizda hech bir o‘zbek xonadoni yo‘qki , “Lanka” o‘yinini bilmagan, sevib o‘ynamagan bo‘lsa. Ulug‘ mutafakkir tib ilmining sultoni Abu Ali ibn Sino qalamiga mansub “Tib qonunlari” asarida “Badantarbiyaning kuchli turiga maydonda kishining o‘z soyasi bilan olishish o‘yini (“Lanka”) kiradi”, - deb yozilgan. U nafaqat jismonanan balki tibbiy jihatdan ham inson sog‘ligiga juda foydali o‘yin hisoblanadi. ”Lanka” o‘yinini o‘ynagan odam tetik, so‘glom, to‘g‘ri nafas olish va hayoti davomida ko‘pgina kasalliklarni oldini oladi. Bu o‘yin millatni sog‘lomlashtirishda katta ahamiyatga ega. Sog‘lom bola faqat ota-onaning emas, balki jamiyatning ham boyligi hisoblanadi. Xitoyda ham juda keng ommalashgani, shu sababli ularda aholining salomatlik darajasini ancha yuqori ekanligini alohida e’tirof etiladi.

“Lanka” o‘yiniga tayyorlanish. Qo‘y yoki echki terisidan qirqib olib, tagiga og‘irroq narsa yoki qo‘rg‘oshin yopishtirib, lanka yasash mumkin. O‘yin tavsifi. o‘yinchilar juft-juft bo‘lib yoki guruh-guruh bo‘lib o‘ynashlari mumkin. 5-10 ta oddiy tepishdan so‘ngra 5-10 sach, 5-10 hisobdan boshlanishi kerak. Bular hammasini tushirmasdan bajarib bo'lgandan keyin, keyingi o‘yin boshlanadi. Agarda o‘yinchi qo'yilgan vazifani oxirigacha yetkaza olmasa, o‘yinni navbatdagi o‘yinchi boshlashi mumkin. Berilgan vazifalami to‘liq va aniq bajargan o‘yinchilar g‘olib chiqadi. Bu o‘yin epchillik, chaqqonlik, tezkorlik, chidainlilik, sakrovchanlik sifatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Oyin qoidalari: Bir qarashda oddiy, hech qanday moslamalar talab qilmaydigan o‘yin, lekin uni to‘g‘ri bajarish uchun alohida ko‘nikmaga ega bo‘lish va mashg‘ulotlar olib borish kerak.Bu o‘yinning mohiyati shundan iboratki , unda “Lanka” ni havoda uzoqroq muddat muallaq ushlab turish kerak , uni oyoqlar turli

holatlari yordamida murakkab sakrash va aylanma harakatlarni amalga oshirib boshqarish talab etiladi. Juntepgi tepish natijasida hamma tekisliklarda ya’ni sagittal ,frontal va garizontal tekisliklarda harakat amalga oshiriladi.

Har bir harakat ketma-ketlikda bajariladi. 2. O‘yinda dam olib yoki ushlab olish bilan bajarish man etiladi. 3. Yutqazgan o‘yinchichlar esa sh'er yoki ashula aytib berishlari, raqsga tushishlari mumkin. O yinning pedagogik ahamiyati.

O‘yin bolalarda jasurlik, botirlikni, koordinatsion harakatlanishni tarbiyalaydi. O‘yin sakrovchanlik, chaqqonlik va chidamlilikni rivojlantirishga yordam beradi. O‘yin qoidalari, harakat natijasida butun tana sinxron ishlaydi. Yosh bolalarda juntepgini tepish bilan birgalikda tepish sonini ovoz chiqarib sanab borishi , bolalarning nutqini ravon rivojlanishiga yordam beradi.O‘yin vaqtida ko‘z doimiy pastga, balandga qaraydi va bunda ko‘zdagi mushakalrni trenirovkasi bo‘ladi.

“Lanka” o‘yini deyarli barcha organ va sistemalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu o‘inda nafas ritmi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yiladi. To‘g‘ri nafas olinishi, diafragma faoliyatini o‘yin paytida qorin va ko‘krak qafasi a’zolariga ijobiy ta’sir qilishi natijasida to‘qimalar kislarod va qon bilan yaxshi ta’minlanadi, bu organizmda oksidlanish qaytarilash jarayonlarini narmallashtirib , moddalar almashinuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yurak faoliyati yaxshilanadi. Harakat natijasida kislorodga boyigan qon to‘qimalarga yuboriladi, organ va sistemalarida qon tomirlarda almashinuv jarayonlari tezlashadi. Yurakning o‘zida ham qon aylanishi yaxshilanadi, ishemik prosseslar kamayadi.

O‘yin paytida qorin a’zolari faoliyati qorin pressi mushaklar ishlashi, tonusi ortishi natijasida yaxshilanadi. Bu o‘z navbatida ichaklar peristaltikasi, o‘t pufagi, oshqozon osti beziga ta’sir qilib, ularning funksiyasi yaxshilanadi. Mushaklarning taranglashuvi qorinning old devorini mustahkamlaydi, bu esa bo‘lishi bo‘lgan churralarning oldini oladi.

Umurtqa pag‘onasi mushaklari ishlashi , tonusi ortishi natijasida tana to‘g‘ri bo‘lishi ta’minlanadi, qomat to‘g‘ri shakllanadi. Skolioz kabi umurtqaning turli deformatsiyalari oldi olinadi. Umurtqa pag‘onasida qon aylanishi yaxshilanishi, o‘sish-yoy bo‘g‘imlarida harakatlarning amalga oshirilishi osteoxondroz kasalligini oldini oladi.

Bu o‘yinda ko‘p bo‘g‘imlarda harakatlar amalga oshiriladi. Chanoq-son, tizza, boldir-oshiq bo‘g‘imlarida harakat faollashib, bo‘g‘imlarning drenaj funksiyasi yaxshilanadi. Son, boldr, oyoq panjasi mushaklari tonusi ortadi. Natijada bo‘g‘imlarning to‘g‘ri shakllanishiga imkon yaratadi. Kelgusida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan kaslliklar (artroz) oldi olinadi. Oyoq mushaklari tonusi ortishi natijasida oyoq venalarida qonning yuqoriga haydalishi yaxshilanadi, dimlanish belgilari bartaraf bo‘lib, varikoz kasalligi oldi olinadi.

Hozirgi paytda Lanka (Juntepgini) turli xil polimer materiallardan tayyorlab, har xil shakilklarda ishlab chiqarish mumkin. Hozirgi milliy qadriyatlarimiz va o‘yinlarimiz tiklanayotgan paytda bu o‘yinni rivojlantirish mumkin va kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar.T 1998 yil.
2. Milliy harakatli o‘yinlar.-M.A.Qurbonova, M.U.Qosimova O‘DJTSU nashriyoti 2009 yil
3. Milliy o‘yinlar ensklopediyasidan kitobidan 2000 y
4. Usmonxo‘jayev T.S.Xo‘jayev F.1001o‘yin. T.Ibn Sino, 1990y
5. Qasimova M.U.Harakatli o‘yinlar. T.1999yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARI

Abdazov Sultonbek Uktamjonovich
Mustaqil tadqiqotchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7442460

Annotatsiya: O‘zbekiston yuritayotgan ochiq va o‘zaro manfaatli hamkorlik siyosati Markaziy Osiyo mamlakatlarida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Qo‘shni davlatlar O‘zbekistonning ishonch va yaqin qo‘shnilik muhitini yaratishga qaratilgan sa’y-harakatlarini yuqori baholamoqda, Markaziy Osiyo davlatlari mintaqani barqaror, xavfsiz, hamkorlikda gullab-yashnagan makonga aylantirishga tayyorliklarini izhor qilmoqda. Bu esa mintaqa davlatlari iqtisodiyotlarning tezkor taraqqiyotiga yordam beradi.

Tayanch so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi, Markaziy Osiyoda xavfsizlik**,** tashqi siyosiy faoliyat, milliy manfaat, tamoyil, zamonaviy xalqaro munosabatlar.

Dunyoda global va mintaqaviy darajadagi o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan bugungi murakkab bir sharoitda mintaqa davlatlari mavqeyini saqlab qolish va kelajak taraqqiyotini ta’minlash yagona mintaqaviy integratsiyalashuv asosida hal etilishi mumkin. O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida, mintaqa va global darajada faol tashqi siyosatni yo‘lga qo‘yib, xorijiy hamkorlar bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirmoqda. Bunday izchil, aniq va konstruktiv tashqi siyosatni xalqaro ekspertlar va kuzatuvchilar ham e’tirof etmoqda. Ma’lumki, O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy vazifalaridan biri – o‘z hududi atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini shakllantirish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Prezident Shavkat Mirziyoyev qo‘shnilarimiz – Markaziy Osiyo davlatlari bilan do‘stona, yaqin qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashni asosiy ustuvor tashqi siyosiy yo‘nalish sifatida belgilab berdi.

«Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni loyihasida **Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish vazifalari belgilangan.**[1]

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 29.12.2020 https://president.uz/uz/lists/view/4057

Markaziy Osiyoning O‘zbekiston tashqi siyosatida ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishiga turtki berayotgan, mintaqa davlatlariga xos bo‘lgan mushtarak omillardan quyidagilarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- mintaqa davlatlarining jo‘g‘rofiy joylashuvi va xususan, O‘zbekistonning mintaqa markazidan o‘rin olgani va ularning barchasi bilan chegaradoshligi;
- milliy, madaniy, diniy va ijtimoiy-iqtisodiy qadriyatlarning o‘xshash va yaqinligi;
- umumiy transport va energetika kommunikatsiyalarining mavjudligi;
- mintaqadagi suv resurslarining o‘zaro oqilona taqsimoti;
- mintaqada ekologik, xavfsizlik va barqarorlik masalalarining umumiyligi.

O‘zbekiston prezidentining tashabbusi bilan mintaqaning barcha mamlakatlari bilan yuqori darajadagi tashriflar amalga oshirildi. Mazkur tashriflar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun o‘zaro manfaatli bo‘lgan global masalalar bo‘yicha qaror qabul qilindi: xavfsizlik, iqtisodiyot, investitsiya, madaniyat va ekologiya sohalarida. Natijada tarixan qisqa vaqt ichida O‘zbekiston va mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlarning yaxshi tomonga burilishiga sabab bo‘lgan ulkan o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ya’ni, bugun sizga ishonch bilan Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari bilan yaxshi munosabatlarga ega ekanligimizni ta’kidlay olaman.

Mamlakatimiz mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish, inson huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish va xalqaro huquqning boshqa umume’tirof etilgan tamoyilllari va normalari, qo’shni mamlakatlar bilan har tomonlama yaxshi qo’shnichilik munosabatlarini rivojlantirish kabi asosiy tamoyillarga tayangan holda tinchlik yo’lida barcha sheriklar bilan hamkorlikni amalga oshiradi. Tashqi siyosatimizning bosh ustuvor yo‘nalishi Markaziy Osiyo mintaqasidir. O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini hal etishga qaratilgan. O‘zbekiston mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning transport va tranzit infratuzilmasini rivojlantirish, Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolarining suv-energetika resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda mintaqaning ekologik barqarorligini ta’minlash, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini yakuniga yetkazish uchun barcha sa’y-harakatlarni amalga oshiradi.

Xulosa o‘rnida qayd etish mumkinki, O‘zbekiston yuritayotgan ochiq va o‘zaro manfaatli hamkorlik siyosati Markaziy Osiyo mamlakatlarida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Qo‘shni davlatlar O‘zbekistonning ishonch va yaqin qo‘shnilik muhitini yaratishga qaratilgan sa’y-harakatlarini yuqori baholamoqda, Markaziy Osiyo davlatlari mintaqani barqaror, xavfsiz, hamkorlikda gullab-yashnagan makonga aylantirishga tayyorliklarini izhor qilmoqda. Bu esa mintaqa davlatlari

iqtisodiyotlarning tezkor taraqqiyotiga yordam beradi. O‘zbekistonning bugungi tashqi siyosati, xususan, yaxshi qo‘shnichilik va pragmatik mintaqaviy siyosati davlatning xalqaro nufuzini oshiribgina qolmay, Markaziy Osiyoning barqaror va ulkan imkoniyatlarga ega hamkorlik makoniga aylanishiga xizmat qilmoqda.

Manbalar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 29.12.2020 https://president.uz/uz/lists/view/4057

2. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi- 2012 yil 10 sentabr.

3. Markaziy Osiyo – O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor uo‘nalishi http://www.ddsmfa.uz/uz/markaziy-osiyo-ozbekiston-tashqi-siyosatining-asosiy-ustuvor-yonalishi

4. Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik ustuvor yo‘nalish https://www.uwed.uz/uz/news/fulltext/1451

SPORT TURIZMI ORQALI O‘SMIRLARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Abdunazorova Zarifa Abdurasul qizi
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika
instituti jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7440961

Annotatsiya: Ushbu maqolada sport turizmi orqali o‘smirlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish usullari yuzasidan tavsiyalar berilgan. Shuningdek sport turizmini umumta’lim maktablarida tashkil etish orqali o‘smirlarni turizm turlariga qiziqishini oshirish yo‘llari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: sport turizmi, tog‘ turizmi, suv turizmi, turizm mashg‘ulotlari, sayohat.

Annatation: This article provides recommendations on ways to develop physical fitness of teenagers through sports tourism. Besides, ways to increase the interest of teenagers in tourism types by organizing sports tourism in general education schools are described.

Keywords: domestic tourism, sports tourism, mountain tourism, water tourism, tourism, travel.

Zamonaviy jismoniy madaniyat o‘qituvchisining vazifalaridan biri maktab o‘quvchilarining jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirishdir.

Zamonaviy bolaning passiv turmush tarzi, jismoniy harakatsizlik, yashash muhitining yomonlashishi, kompyuter, telefon qaramligi - bularning barchasi maktabda ish qobiliyatining pastligiga, jismoniy mashqlarni bajarishda qiyinchiliklarga olib keladi va natijada, hayotga chidamliligi past bo‘ladi.

Inson hayoti, ayniqsa, uning sport faoliyati uchun jismoniy chidamlilik alohida ahamiyatga ega. Chidamlilik insonning barcha faoliyatida zarur va albatta, bu hammadan ko‘ra sportchilarga kerak. Hozirgi bosqichda ma'lumki, chidamlilik yoshlikdan boshlab shakllantirilishi mumkin bo‘lgan sifatdir.

O‘smir bolalarni chiniqtirishning eng qiziqarli va samarali usuli-sport turizmidir. O‘smir yoshlar turizmni yaxshi ko‘radi. Shu qiziqish orqali ularni faol jismoniy harakatga keltirish va jismoniy sifatlarini rivojlantirish mumkin.

Sport turizmi — bu tabiiy muhitda (turli xil yo‘llar va qoplamali yo‘llar, o‘tish joylari, dovonlar, cho‘qqilar, rapidlar, kanyonlar, g‘orlar va boshqalar) va sun’iy relyefda yotqizilgan masofalarda to‘siqlarni yengib o‘tishni o‘z ichiga olgan marshrutlardagi musobaqalarga asoslangan sport turidir.

Sport turizmi quyidagi turlarga bo‘linadi:

Piyoda yurish — sayyohlik yo‘nalishida harakatlanish asosan piyoda amalga oshiriladi. Asosiy vazifa relyef va landshaft to‘siqlarini piyoda yengib o‘tish, yuqori toifadagi qiyinchiliklar uchun esa qiyin relyef va iqlim sharoitiga ega hududlarda yengib o‘tishdir.

Chang‘i turizmi — sayyohlik yo‘nalishida harakatlanish asosan chang‘ida amalga oshiriladi. Asosiy vazifa qattiq iqlim zonalari va tog‘li hududlarda yuqori darajadagi qiyinchiliklar uchun chang‘ida qor va qor-muz qoplami bo‘ylab relyef-landshaft to‘siqlarini yengib o‘tish.

Tog‘ turizmi — baland tog‘larda sayr qilish. Asosiy vazifa tog‘ dovonlaridan o‘tish, cho‘qqilarga chiqish, tog‘ tizmalarini kesib o‘tish.

Suv turizmi — odatda tog‘li hududlardagi daryolarda rafting vositalarida (qayiq) suzish. Asosiy vazifa daryo tubining relyefi va uning oqimining xususiyatlari natijasida hosil bo‘lgan suv to‘siqlaridan o‘tishdir.

Speleoturizm — yer osti bo‘shliqlari bo‘ylab sayohat (g‘orlar, g‘or tizimlari, shu jumladan qisman suv ostida qolgan). Asosiy vazifa g‘orlarda uchraydigan strukturaviy to‘siqlarni yengib o‘tishdir.

Yelkanli turizm — dengizda yoki yirik ko‘llarning suv zonalarida suzib yuruvchi kemalarda sayohat. Asosiy vazifa ichki suvlarda va ochiq dengizda suzish qoidalariga muvofiq kemaning yurish rejasini bajarishdir.

Transport vositalarida velosiped turizmi, ot sporti va avtoulov turizmini o‘z ichiga olgan bo‘lim mavjud. Asosiy vazifa uzoq marshrutda relyef va landshaft to‘siqlarini (sayyohlik, chorvachilik va hayvonlarning migratsiya yo‘llari, o‘tish joylari; tog‘ dovonlari va boshqalar) qiyin sharoitlarda, odatda tog‘ sharoitida yoki iqlimi va relyefi jihatidan qiyin bo‘lgan kuchli ajratilgan yerlarda yengib o‘tish.

Birlashgan turizm — turizmning har xil turlarining elementlarini birlashtirgan sayohatlar.

O‘quvchi yoshlar o‘rtasida sport turizmini rivojlantirish va bu bo‘yicha musobaqalar tashkil etish yaxshi samara beradi. O‘smir yoshlar turizm bilan shug‘ullanish bilan birga o‘lkamiz tabiati, geografik tuzilishi haqida ham tasavvurga ega bo‘lishadi.

Bolalar sporti turizmi zamirida qo‘shimcha ta’lim, sport va faol dam olishni yuqori salomatlik omili bilan birlashtiradi.

Sport turizmi bilan shug‘ullanishga qaror qilgan bolalar uchun umumiy va maxsus chidamlilikka ega bo‘lish juda muhimdir. Ushbu sifatning rivojlanishi sport turizmida sport muammolarini to‘g‘ri hal qilishga yordam beradi. Turli mashqlar va texnikalarni bajarishda kuchlarni to‘g‘ri taqsimlash, ushbu usullarni mushaklarning ko‘p kuchlanishisiz bajarish, ayniqsa sport safarida, davomiyligi olti kundan bir necha haftaga cho‘ziladigan safarlarda asqotadi.

Zamonaviy uslubiy adabiyotlarda, afsuski, sport turizmida chidamlilikni rivojlantirish va oshirish bo‘yicha aniq tavsiyalar kam.

Biz sportchi-turistlarning jismoniy tayyorgarligi uchun mashqlar majmuasini ishlab chiqdik. Ular qishda sport zalida, yozda ochiq stadionlarda bajariladigan jismoniy mashqlardir. Chidamlilikni va kuchni rivojlantiruvchi mashqlar majmuasidan iborat mashqlar yosh turistlarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Turistlarning jismoniy tayyorgarligi uzluksiz va yil davomida bo‘lishi kerak, shuning uchun turistik sportchilar uchun tavsiya etilgan mashqlar to‘plami O‘zbekistonning markaziy iqlim zonasining mavsumiyligi talablariga to‘liq javob beradi. Bu majmua tog‘li relyefning to‘siqlari, shakllari va elementlari, shuningdek tog‘larga sayohatni tashkil yetmasdan ularni yengib o‘tish shartlaridan iborat.

Ushbu kompleksning asosiy vazifasi sportchining umumiy chidamliligida muhim rol o‘ynaydigan oksidlovchi mushak tolalari hajmini oshirishdir.

Sport turizmida ko‘tarish va ko‘tarilish uchun kuch kerak. Chidamlilik - bu jismoniy kuchga qarshi turish qobiliyati.

O‘smirlarda jismoniy kuchni rivojlantirish sport turizmida asosiy vazifa hisoblanadi. Kuch mashqlari umumiy jarayonda amalga oshirilishi mumkin. Jismoniy tarbiya salomatlikni mustahkamlash va saqlash uchun, tana shakllarini yaxshilash, barcha mushak guruhlarining kuchini rivojlantirish va maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rish uchun zarur.

O‘g‘il bolalarda kuchni rivojlantirish uchun eng qulay davrlar:

o‘g‘il bolalar 13-14 yoshdan 17-18 yoshgacha,

qizlar uchun - 11-18 yosh deb hisoblanadi.

12 yoshdan 15-16 yoshgacha, bu ko‘p jihatdan ulushning o‘sishiga to‘g‘ri keladi.

Sport turizmida chidamlilik bu jismoniy mashqlarni uzoq vaqt davomida bajarishda tananing charchoqqa qarshi turish qobiliyati hisoblanadi. Chidamlilikning rivojlanish darajasi asosan yurak qon tomir va asab tizimlarining funksional imkoniyatlarini metobolik jarayonlar darajasi shuningdek turli organlar va tizimning faoliyatini muvofiqlshtirish bilan belgilanadi.

Tana funksiyalarini tejamkorlik deb ataladigan narsa muhim rol oynaydi. Shu bilan birga chidamlilik harakatlarni muvofiqlashtirish va aqliy kuch ayniqsa sportchining ixtiyoriy jarayonlaridan kelib chiqadi. Chidamlilk bu ma’lum bir belgi bilan ishlashni imkon qadar uzoq vaqt davomida bajarish qobiliyati. Bardoshlilikning asosiy mezonlaridan biri bu odamning malum bir intensivlikni ushlab tura oladigan vaqtidir.

Umumiy chidamlilik – bu nisbatan past intensivlikdagi mushaklarning kuchini uzoq vaqt davomida bajarish qobiliyati. Umumiy chidamlilk 85-100% sport

natijasidir. Umumiy chidamlilikning muhim hususiyatlaridan biri keng ko‘lamda yurish qobiliyatidir, ya’ni yugurish mashqlari orqali rivojlangan va yugurishda namoyon bo‘lgan umumiy chidamlilik chang‘ida, piyoda yurishdagi natijalar bilan juda bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.A.Mirzayev, M.T.Aliyeva. Turizm asoslari: bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun o‘quv qo'llanma. 0‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’im vazirligi. — T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy ja miyati nashriyoti, 2011. - 2 8 8 b.
2. I.S Tuxliyev. Turizm asoslari. “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2014
3. Mirzayev M. A. Turizm asoslari. Ma’ruzalar matni. – T., 2005
4. Pardayev M. Q. Turzim asoslari. Ma’ruzalar matni. – Samarqand.2006.
5. Tuxliyev I. S. Turizmda strategik marketing. O‘quv qo‘llanma.
7. https://cyberleninka.ru/
8. https://www.actualidadviajes.com/uz

INDEN MOLEKULASIDA ELEKTRON BULUTI VA ZARYAD TAQSIMOTI

Dadaxanova Gulnoza Axmadjonovna
Namangan muhandislik-texnologiya instituti, mustaqil izlanuvchi
Egamberdiyeva Rohatoy Mamajonovna
Namangan muhandislik-texnologiya instituti Kimyo kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7440980


Annotatsiya: Ushbu maqolada inden-1 karbon kislotasining molekulyar tuzilishi, geometriyasi, atomlaridagi zaryad taqsimoti va boshqa kvant-kimyoviy xossalari yarim empirik usulda aniqlangan.

Kalit so`zlar: inden-1 karbon kislota, kvant kimyosi, molekula, zaryad taqsimoti, elektron tuzilishi.


Hozirgi kunda kompьyuter dasturlari asosida tadqiqot usullari ham kimyo fanida katta ahamiyat kasb etmoqda. Kvant-kimyoviy hisoblashlardan foydalanib kimyoviy reaktsiya mexanizmlarini nazariy asoslash, birikmaning reaktsion qobiliyatini baholash, uning geometrik va elektron tuzilishini o‘rganish mumkin. Shuningdek, moddalarning biologik faolligini bashorat qilishda ham kompьyuter texnologiyalarining muqobili yo‘q, deyilsa, mubolag‘a bo‘lmaydi [1, 2, 3, 4, 5].

Ushbu tadqiqot ishida inden-1 karbon kislotasini kvant-kimyoviy o‘rganish va biologik faolligini baholash maqsad qilingan.


Kvant-kimyoviy hisoblash yarim empirik usulda bajarilgan. 1-rasmda inden molekulasining molekulyar-mexanik optimallashtirishdan so‘nggi 3d modeli tasvirlangan bo‘lib, unda atomlarning tartib sonlari ham ko‘rsatilgan. Rasmdan ko‘rinadiki, molekulada sterik o‘zgarishlar mavjud hamda karboksil guruhi inden tekisligiga nisbatan perpendikulyar tarzda joylashgan. Molekulaning bunday tuzilishi karboksil guruhidagi elektronlarning uglerod va kislorod atomlari bo‘ylab siljishini osonlashtiradi va umumiy zaryad zichligini (2-rasm) va elektrostatik potentsialini (3-rasm) shu guruhda taqsimlanishiga imkon yaratadi.



1-rasm. Molekulaning 3d tuzilishi.



2-rasm. Umumiy zaryad zichligining taqsimlanish diagrammasi**.**



3-rasm. Elektrostatik potentsialning molekulada taqsimlanish diagrammasi: ko‘k rangda musbat qiymatlar, qizil rangda manfiy qiymatlar tasvirlangan.

Molekulaning bog‘ uzunligi va valent burchaklari kabi geometrik ko‘rsatkichlarini tavsiflovchi hisoblash natijalari 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval. Inden molekulasidagi hisoblangan bog‘ uzunliklari va valent burchaklar qiymati

Atomlar		**Bog‘ uzunligi, Å**	**Atom**	**Bog‘ burchagi, grad.**	**Atom**	**Ikki tomonlama burchak, grad**
4C						
9C	C(4)	1.3941				
1C	C(9)	1.5227	C(4)	109.1543		
8C	C(9)	1.3737	C(1)	129.8258	C(4)	120.9903
3C	C(4)	1.4784	C(9)	108.1452	C(1)	0.8818
5C	C(4)	1.3782	C(3)	131.2942	C(9)	120.5585
6C	C(5)	1.3888	C(4)	118.5612	C(3)	-179.4707
7C	C(8)	1.3914	C(9)	118.5459	C(1)	178.5070
2C	C(1)	1.5258	C(9)	101.6839	C(4)	-1.3584
10C	C(1)	1.5044	C(2)	111.8187	C(9)	111.3844
12O	C(10)	1.3506	C(1)	112.2719	C(2)	-55.9773
11O	C(10)	1.2038	C(1)	125.3525	O(12)	122.3755
14H	C(2)	1.0683	C(1)	122.1697	C(3)	126.6719

15H	C(3)	1.0692	C(2)	126.1202	C(4)	124.0304
16H	C(5)	1.0727	C(4)	120.9862	C(6)	120.4525
17H	C(6)	1.0721	C(5)	119.5943	C(7)	119.5988
18H	C(7)	1.0711	C(6)	119.8061	C(8)	119.6596
19H	C(8)	1.0724	C(7)	120.2932	C(9)	121.1607
13H	C(1)	1.0810	C(2)	112.2702	C(9)	112.2132
20H	O(12)	0.9689	C(10)	111.7573	C(1)	-178.1882

Molekuladagi atomlarning energetik ko‘rsatkichlari zaryad birliklarida hisoblab topildi va 3-jadvalda keltirildi.

3-jadval. Inden molekulasi atomlaridagi hisoblangan zaryad qiymati

Atom	**Zaryad qiymati, atom birligida**	**Atom**	**Zaryad qiymati, atom birligida**
[C(1)]	-0.048	[O(11)]	-0.630
[C(2)]	0.006	[O(12)]	-0.178
[C(3)]	-0.099	[H(13)]	0.067
[C(4)]	0.027	[H(14)]	0.026
[C(5)]	-0.062	[H(15)]	0.029
[C(6)]	-0.054	[H(16)]	0.029
[C(7)]	-0.050	[H(17)]	0.029
[C(8)]	-0.069	[H(18)]	0.029
[C(9)]	0.084	[H(19)]	0.029
[C(10)]	0.628	[H(20)]	0.205

Tadqiqot natijalarini umumlashtirib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin. Kvant kimyosi usullaridan foydalanib, inden-1 karbon kislota molekulasining tuzilishi o'rganildi. Molekulyar yadro bir tekislik bilan ajralib turishi, karboksil guruhi qismida sterik buzilishlar mavjudligi aniqlandi. Natijada, umumiy zaryad zichligi va elektrostatik potentsialning turlicha taqsimlanishi kuzatildi. Bog' uzunligi, bog' burchaklari va atomlardagi zaryadlar hisoblash yo'li bilan aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quantum chemical evaluation, QSAR analysis, molecular docking and dynamics investigation of s-triazine derivatives as potential anticancer agents / Gomathishankkar K. [et al.] // Structural Chemistry. – 2022. – Vol.33. – P.2083-2113

2. M. Soliev, O. Abdilalimov. Reactions of Thymol, Menthol, and 3-Hydroxymethyl-Chamazulene in a Superbase Medium // Spanish Journal of Innovation and Integrity. Volume: 05, 2022. P. 625-628. http://sjii.indexedresearch.org

3. Structural, spectroscopic and quantum chemical analysis of an exocyclic extended double-bonded chalcone single crystal, with pharmaceutical scanning for breast cancer using MCF-7 cell line and EGFR domain target // Priya M.K. [et al.] // Journal of Molecular Structure. – 2022. – Vol.1270.

4. M.I.Soliev, A.K.Okhundadaev. Theoretical calculations of the electronic structure of the menthol and thymol molecules // Journal of Science and Education. No. 8 (20), 2018. Russia. Journal website: https://scientificpublication.ru

5. Прогнозирование свойств модифицированных пептидов методом квантовой химии / А.А. Володькин [и др.] // Вестник технологического университета. – 2020. – Т.23 – №3. – С.23-26.

6. Методы квантовой химии, спектроскопии ЯМР и монокристальной дифрактометрии в анализе путей протонирования 2-амино-4-бензилсульфанил-6-метилпиримидинов / А.В. Еркин [и др.] // Журнал общей химии. – 2019. – Т.89 – №1. – С.19-24.

7. Изучение внутримолекулярных движений в молекуле 1,2,3-триэтилдиазиридина методами квантовой химии / Л.С. Хайкин [и др.] // Журнал физической химии. – 2020. – Т.94 – №9. – С.1372-1378

8. Оценка реакционной способности некоторых хроменопиразолов методами квантовой химии / И.Е. Меняйло [и др.] // Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия: Химия. Биология. Экология. – 2022. – Т.22 – Вып.1. – С.26-32 (DOI: 10.18500/1816-9775-2022-22-1-26-32).

9. Nurmanov S.E., Soliev M.I., Mirkhamitova D.Kh. Electronic structure of aromatic acetylene alcohols and modeling of their vinylation // Modern scientific research and innovations. 2015. No. 3. Part 1 [Electronic resource]. URL: https://web.snauka.ru/issues/2015/03/43329 (date of access: 09/13/2022).

10. Soliev M.I., Abdilalimov O., Nurmonov S.E. The reaction for obtaining 3-vinyloxymethyl-chamazulene // Universum: chemistry and biology: electron. scientific magazine 2020.1(79). URL: https://7universum.com/en/nature/archive/item/11051 (date of access: 09/26/2022).

11. Soliev M.I., Abdilalimov O., Nurmonov S.E. Technology for the production of vinyl esters of menthol and thymol // Universum: technical sciences: electron. scientific magazine 2021.9(90). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12254 (accessed 26.09.2022).

12. Куликов М.А. Исследование арилиденового производного 2-тиобарбитуровой кислоты с применением компьютерных методов / Актуальные научные исследования: сборник статей IX Международной научно-практической конференции. В 2 ч. Ч. 1. – Пенза: МЦНС «Наука и Просвещение». – 2022. – с. 17-21.

КИТОБХОНЛИК ТАРИХИГА БИР НАЗАР

Ўктамжонова Хафизахон Набижон қизи
Самарқанд давлат университети 3-босқич талабаси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7440992

Annotatsiya: Китобхонлик тарихига оид булиб,унда аждодларимизнинг мазкур масалага оид фикр-мулоҳазалари хамда тарихий маълумотлар, ҳаётий мисоллар асосида ёритилади.

Калит сўзлар: Китобхонлик, диний-маърифий манба, панднома, ҳикматлар, комусий олимлар, ҳатотлик санъати, китоб ҳуснихати.

Китобхонлик ҳақида гап кетганида беихтиёр Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2019-йил 19-март куни ўтказилган видеоселектор йиғилишидаги "Ёшларни маънавиятини юксалтириш ва уларни бўш вақтини мазмунли ташкил етиш тўғрисида"ги маърузасида куюнчаклик билан ёшларимизнинг келажагида муҳим ўрин тутган вазифалар ҳақидаги сўзлари ёдга тушади.

Инсоният тарихида ҳар бир замоннинг ёшларини илмли қилиш, маънавий юксалтириш масаласи асрий қадрият еканлиги маълум жараёндир.Бу қадрият ҳар бир ҳудуднинг турмуш тарзида,маданиятида,илмий-маърифий тафаккурида ўз аксини топади.Энг муҳими,аждодларимизнинг яратган энг бебаҳо хазинаси бу китоблар бўлиб,улар ўз замонасининг мухлисларига,илмга иштиёқманд маърифатпарварларига атаб яратилган.Кейинчалик бу бебаҳо хазина ўз қимматининг юксаклиги боис,кейинги авлодларга ҳам беминнат хизмат қила бошлади.

Дастлабки, яратилган ислом аҳлининг муқаддас китоби Қуръони Каримни, алоҳида эътироф этиш лозим. У илм-маърифатнинг тарғиботидаги ўрни беқиёсдир.

Қуръони Карим классик араб тилига хос мураккаб услуб ва тилда, насрий саъж шаклида ёзилган бебаҳо хазинадир. Асар VII асрнинг биринчи ярмида нозил бўлган бўлиб, у ўз тарихий, маданий, маънавий-ахлоқий аҳамияти билан бутун Шарқ халқларининг тараққиётига катта таъсир кўрсатган. Шу боис, мазкур муқаддас китобга шарҳлар ёзиш турли тилларга таржима килиш авж олди. Инсониятга китоб тушунчасини ҳадя этган, унинг таъсири қатор фалсафий панднома руҳидаги ёзма адабиёт майдонга кела бошлади. Юсуф Хос Ҳожибнинг "Қутадғу билиг" (1069-1070), Маҳмуд Қошғарийнинг "Девону луғотит турк", Аҳмад Яссавий "Ҳикматлар"и, Аҳмад Югнакийнинг "Ҳиббатул ҳақойиқ", "Ўғузнома", Насриддин Рабғузийнинг "Қиссасул анбиё", "Тафсир"

каби асарлар шулар жумласидандир.Бу китобларда донишманд, хаким, давлат арбоблари тилидан айтилган ҳикматли сўзлар, ҳикоятлар, адолат, сахийлик, мардлик ҳақидаги қимматли фикрлар инсонни китобга якин мухлис қилиб қўйди.Айниқса, ҳадисларнинг халқ орасида кенг тарқалиши, китоб шаклига келтирилиши натижасида дастлаб масжидларда ва бошқа жамоат жойларида илоҳиётга оид масалалар шарҳлаб берилган ва тарғиб қилинган. Кейинчалик эса илк дунёвий илмларнинг тараққий этиши натижасида алоҳида ўқув муассасаларига эҳтиёж туғилган ва шу тариқа мактаб ва мадрасалар пайдо бўла бошлаган.

Табиийки, таълим масканларини дарслик ва ўқув қўлланмалар, зарурий адабиётлар билан таъминлашга эътибор қилинган. Натижада, энг муҳим кам нусхадаги асарларни китобат холига келтириш учун ҳаттотлар хизмати вужудга келган. Уларнинг беминнат хизматлари воситасида бебаҳо асарларнинг нусхалари кўпая борган. Шу тариқа, аждодларимиз яратган бебахо асарлар дунёга таркала бошлаган.Даврлар ўтиши билан хон саройларда, амалдорлар, китоб мухлислари хонадонларида кутубхоналар ташкил этила бошлайди. Бу ҳақда кўплаб маълумотлар мавжуд. Шу ўринда қомусий олим Ибн Синонинг китоб мутолааси туфайли катор илмий асарлар ва кашфиётлар яратганлигини эслашимиз кифоядир. У 16 ёшидаёқ кўзга курингган табиб сифатида шуҳрат қозонган. Унинг таржимаи ҳолида китоб мутолааси билан боғлиқ муҳим маълумот сақланиб қолган. Кунлардан бир куни, Ибн Сино Бухоро амири Нуҳ ибн Мансурнинг касалини даволаш учун саройга чакирилади. У амирни даволайди. Унга кимматбахо хадялар таклиф этишади. Аммо, у ўзининг хизмати эвазига сарой кутубхонасидан фойдаланишни сўрайди. Чунки, бўлажак олим сарой кутубхонасида нодир китоблар мавжудлигини яхши билган. Рухсат олгандан сўнг, Ибн Сино бу кутубхонадаги кўплаб китобларни мутолаа килади. Бу маълумотдан кўринадики, Ибн Сино ҳар қандай моддий бойликдан китобни устун қўйган. Шунга ўхшаш маълумотлар юртимизда етишиб чиққан машҳур олимлардан Муҳаммад Хоразмий, Абу Наср Фаробий, Абу Райхон Беруний, Умар Хайём, Алишер Навоий ва бошқа алломалар ҳаётида ҳам учрайди. Улар ҳатто нодир китобларнинг қайси юртда мавжудлигини дарагини топса, ўша юртга пою-пиёда ахтариб борганлиги хакида маълумотларни учратиш мумкин. Бир сўз билан айтганда, китобга меҳр, ташналик бизга аждодларимиздан қолган бебаҳо маънавий меросдир. Олис тарихнинг зарварақларида китоб, китобхонлик билан боғлиқ алоҳида илм соҳаси вақт ўтиши билан такомиллашиб, шаклланиб бора бошлади.Авлод аждодларимизнинг китобга бўлган қизиқишлари натижасида хаттотларга бўлган эҳтиёж кучая боради. Улар воситасида шоиру олимлар ўз асарларини китобхонларга етказиш мақсадида, машҳур хаттотларга бир неча нусхада кўчиртирганлар. Махсус хаттотлар ўз

хуснихатларини чиройли чиқиши учун ҳар бир харфга сайқал беришга интилганлар. Улар фақат китобларни кўчириш билангина шуғулланиб қолмай, балки китобни безаш, олтин суви югуртириб зарҳал ҳарфларга нақш бериш одат тусига кирган. Бу китоблар совға сифатида подшоҳларга такдим қилинган.

Аслида, шунга ўхшаш хотиралар деярли барча катта авлод ёзувчиларининг таржимаи ҳолида учрайди. Энг муҳими, болаликда китобнинг қадр- қимматини англаш болалик ш4уури билан англаганликларини алоҳида таъкидлайдилар. Албатта, ёзувчи ва санъаткор бўлиш учун туғма истеъдод бўлиши лозим. Лекин бу истеъдодни рўёбга чиқаришда адабиётга, китобга бўлган меҳр орқали эришилади. Гап фақат ёзувчи ва шоирларнинг китобхонлиги ҳақида бўлмай, балки инсон қайси соҳани танламасин, у ўз соҳасини пухта эгаллаши учун унинг ҳамкори бу китоб бўлмоғи лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ш.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом еттириб, янги босқичга кўтарамрз.Тошкент, 2017

2. Эркин Охунжонов, Кутубхоначилик ва библиография тиллари маданияти Т Билим 1994

3. Ғозиева С.Ғ.Очилова Д, Даминова Л.Бадиий терма китоб Тошкент. 1994.

AZOTLI GETEROTSIKLLAR SINTEZIDA ALKINLAR INTERNAL VA TERMINAL TUZILISHINING AHAMIYATI

Egamberdiyeva Rohatoy Mamajonovna
Namangan muhandislik-texnologiya instituti Kimyo kafedrasi o‘qituvchisi
Dadaxanova Gulnoza Axmadjonovna
Namangan muhandislik-texnologiya instituti, mustaqil izlanuvchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7440999

Annotatsiya: Ushbu maqolada azid-alkin siklobirikish reaksiyasi va uning katalizatorlari, shuningdek, jarayon borishiga alkinlar tuzilishining ahamiyatiga oid tadqiqot ishlari natijalari keltirilgan.
Kalit so`zlar: klik-kimyo, azid-alkin siklobirikish reaksiyasi, katalizator, triazol.


Yangi-yangi samarador biologik faol birikmalarni kashf qilish ko'p sonli molekulyar strukturalarni saralab olish va sintez qilishni talab qiladi. Yuqori unum bilan boradigan bir nechta ishonchli reaksiyalardan foydalanish kerakli moddalarlarning sintezini sezilarli darajada soddalashtiradi va shu bilan yangi birikmalarni yaratish jarayonini tezlashtiradi. Bunday reaksiyalarni amalga oshirishda umumiy nom bilan “klik-kimyo” deb ataluvchi azid-alkin siklobirikish, tio-yenol birikish, Dils-Alder reaksiyasi va boshqa usullardan foydalaniladi.

Ayniqsa, azid-alkin siklobirikish reaksiyalarining “klik-kimyo”dagi o‘rni beqiyos bo‘lib, bu mavzuda jahonning eng taniqli olimlari tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, amerikalik kimyogarlar – Karolin Rut Bertotssi va Barri Sharples hamda daniyalik kimyogar Morten Meldallar “klik-kimyo va bioortogonal kimyoni rivojlantirganliklari uchun” 2022 yil Nobel mukofotini qo‘lga kiritishdi.

Azid-alkin siklobirikish azidlar va alkinlar o‘rtasidagi reaksiya bo‘lib, bunda 1,2,3-triazollar hosil bo`ladi.


Reaksiya birinchi marta 1893 yilda amerikalik kimyogar A.Maykl tomonidan tasvirlangan bo‘lib, u fenilazid va asetilendikarbon kislota dimetil efirining efirli eritmasini yopiq ampulada (100°C da 8 soat) qizdirish natijasida almashingan triazol hosil bo‘lishini aniqlagan [1]. Reaksiyaning katalitik bo'lmagan varianti 1960-yillarning boshida Xyusgen tomonidan 1,3-dipolyar birikish reaksiyalari tadqiqining bir qismi sifatida o'rganilgan va adabiyotlarda u Xyusgen reaksiyasi deb nom olgan [2, 3].

Odatda reaksiya 1,3-dipolyar birikish mexanizmiga muvofiq boradi hamda 1,4- va 1,5-dialmashingan 1,2,3-triazollar aralashmasini hosil qiladi:



Reaksiya uchun 2002 yilda Meldal [4] va Sharplesslarning [5] laboratoriyalarida mis (I) katalizatorini qo`llash kashf etilgandan so'ng keng miqyosda o`rganila boshlandi va “klik-kimyosi” [6] kontseptsiyasidagi eng muhim reaksiyaga aylandi.


Mis katalizatorligidagi reaksiyaning bosqichli mexanizmida beqaror oraliq birikmalar – mis asetilenidlarning hosil bo'lishi orqali boradi [7]. Shu sababli, bu reaksiyada faqat terminal alkinlar yuqori reaksion faollikni namoyish etadi. Shu bilan birga, mis atomi o'zining koordinatsiyasi orqali azidga faollashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi, bu ham reaksiyaning regioselektivligini belgilaydi. Keyin esa, triazolil-mis hosilasi hosil bo'lishi bilan qaytaruvchi eliminatsiyaga uchragan olti a'zoli metall sikli hosil bo'ladi. Uning gidrolizlanishi natijasida 1,4-almashingan 1,2,3-triazol hosil bo'ladi [8, 9, 10].



Mis asetilenid hosil bo`lishining imkoni yo`qligi sababli internal alkinlarning bu usul bilan reaksiyaga kirishishi imkonsizdek sanalsada, siklik alkinlar ishtirokida reaksiyani amalga oshirish mumkin. Reaksiyani tezlatishga faqat katalizator yordamida emas, balki alkinning faolligini oshirish orqali ham erishish mumkin.

Ushbu yondashuv kuchlanish bilan ta`minlangan azid-alkin siklobirikish (strain-promoted azide-alkyne cycloaddition, SPAAC) usulini yaratishda qo`llangan [11, 12, 13]. Kuchlanish bilan ta`minlangan siklooktinni azidlar bilan reaksiyaga kiritish reaksiya kinetikasini yaxshilaydi va sitotoksik hisoblanuvchi mis katalizatorini qo`llamasdan jarayonni amalga oshirishga imkon beradi [14, 15].

Reaksiya elektronlarning asinxron peritsiklik siljishiga muvofiq standart 1,3-dipolyar siklobirikish sifatida davom etadi. 1,3-dipollikning ambivalent tabiati aziddagi elektrofil va nukleofil markazlarni belgilashga imkon bermaydi, shuning uchun elektron o'tish yo'nalishini ko`rsatish ma'nosizdir. Biroq, hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, ichki azot atomi eng katta manfiy zaryadga ega [16].



Shunday qilib, azid-alkin siklobirikish reaksiyalarida alkin molekulasining tuzilishi muhim o`rin tutadi. Ochiq zanjirli terminal alkinlar ishtirokidagi reaksiyalarni turli katalizatorlarni qo`llash bilan tezlatish mumkin. Siklik alkinlar esa katalizator ishtirokisiz azid-alkin siklobirikish reaksiyalariga kirishadi. Internal alkinlarning klik-kimyodagi reaksiyalari va katalizatorlariga oid tadqiqotlarni davom ettirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Michael A. Ueber die Einwirkung von Diazobenzolimid auf Acetylendicarbonsauremethylester (нем.) // J. Prakt. Chem. — 1893. — Bd. 48. — S. 94–95.

2. Huisgen R. 1,3-Dipolar Cycloadditions. Past and Future (англ.) // Angew. Chem. Int. Ed. — 1963. — Vol. 2, no. 10. — P. 565–598.

3. Huisgen R. Kinetics and Mechanism of 1,3-Dipolar Cycloadditions (англ.) // Angew. Chem. Int. Ed. — 1963. — Vol. 2, no. 11. — P. 633–645.

4. Tornoe C. W., Christensen C., Meldal M. Peptidotriazoles on Solid Phase: [1,2,3]-Triazoles by Regiospecific Copper(I)-Catalyzed 1,3-Dipolar Cycloadditions of Terminal Alkynes to Azides (англ.) // J. Org. Chem. — 2002. — Vol. 67, no. 9. — P. 3057–3064.

5. Rostovtsev V. V., Green L. G., Fokin V. V., Sharpless K. B. A Stepwise Huisgen Cycloaddition Process: Copper(I)-Catalyzed Regioselective “Ligation” of

Azides and Terminal Alkynes (англ.) // Angew. Chem. Int. Ed. — 2002. — Vol. 41, no. 14. — P. 2596–2599.

6. Kolb H. C., Finn M. G., Sharpless K. B. Click Chemistry: Diverse Chemical Function from a Few Good Reactions (англ.) // Angew. Chem. Int. Ed. — 2001. — Vol. 40, no. 11. — P. 2004–2021.

7. M. Soliev, O. Abdilalimov. Reactions of Thymol, Menthol, and 3-Hydroxymethyl-Chamazulene in a Superbase Medium // Spanish Journal of Innovation and Integrity. Volume: 05, 2022. P. 625-628. http://sjii.indexedresearch.org

8. Wu P., Fokin V. V. Catalytic Azide–Alkyne Cycloaddition: Reactivity and Applications (англ.) // Aldrichimica Acta. — 2007. — Vol. 40, no. 1. — P. 7–17.

9. M.I.Soliev, A.K.Okhundadaev. Theoretical calculations of the electronic structure of the menthol and thymol molecules // Journal of Science and Education. No. 8 (20), 2018. Russia. Journal website: https://scientificpublication.ru.

10. Nurmanov S.E., Soliev M.I., Mirkhamitova D.Kh. Electronic structure of aromatic acetylene alcohols and modeling of their vinylation // Modern scientific research and innovations. 2015. No. 3. Part 1 [Electronic resource]. URL: https://web.snauka.ru/issues/2015/03/43329 (date of access: 09/13/2022).

11. Baskin J. M., Prescher J. A., Laughlin S. T., Agard N. J., Chang P. V., Miller I. A., Lo A., Codelli J. A., Bertozzi C. R. Copper-free click chemistry for dynamic in vivo imaging (англ.) // Proc. Natl. Acad. Sci. USA. — 2007. — Vol. 104, no. 43. — P. 16793–16797.

12. Soliev M.I., Abdilalimov O., Nurmonov S.E. The reaction for obtaining 3-vinyloxymethyl-chamazulene // Universum: chemistry and biology: electron. scientific magazine 2020.1(79). URL: https://7universum.com/en/nature/archive/item/11051 (date of access: 09/26/2022).

13. Soliev M.I., Abdilalimov O., Nurmonov S.E. Technology for the production of vinyl esters of menthol and thymol // Universum: technical sciences: electron. scientific magazine 2021.9(90). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12254 (accessed 26.09.2022).

14. Agard N. J., Prescher J. A., Bertozzi C. R. A Strain-Promoted [3 + 2] Azide-Alkyne Cycloaddition for Covalent Modification of Biomolecules in Living Systems (англ.) // J. Am. Chem. Soc. — 2004. — Vol. 126, no. 46. — P. 15046–15047.

15. Agard N. J., Baskin J. M., Prescher J. A., Lo A., Bertozzi C. R. A Comparative Study of Bioorthogonal Reactions with Azides (англ.) // ACS Chem. Biol. — 2006. — Vol. 1, no. 10. — P. 644–648.

16. Codelli J. A., Baskin J. M., Agard N. J., Bertozzi C. R. Second-Generation Difluorinated Cyclooctynes for Copper-Free Click Chemistry (англ.) // J. Am. Chem. Soc. — 2008. — Vol. 130, no. 34. — P. 11486–11493.

BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA MATEMATIK VA MANTIQIY MASALALARNING AHAMIYATI

Rasulova Shohista Madamin qizi
Mingbuloq tumani 38-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
I-toifali biologiya fani o‘qituvchisi
I.Sarimsoqov
Mingbuloq tuman Xalq ta’lim bo‘limi “Tabiiy fanlar uslubchisi”
https://doi.org/10.5281/zenodo.7506313

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya fanini o‘qitishda matematik va mantiqiy masalalarning o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda, fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda, ularning kasb tanlashlarida muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: biologiya, moddiy texnik baza, tabiatni sevishi, tabiiy borliq.

Dunyo shiddat bilan odimlamoqda. Mustaqil yurtimiz kun sayin chiroy ochib, xalqimizning ertangi kunga bo‘lgan umidi va ishonchi ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng kelajagimiz bo‘lgan yoshlarning ta’lim-tarbiya olishiga alohida e’tibor qaratildi. Yoshlarning ta’lim olishi uchun barcha qulayliklar yaratildi. Maktablar, litseylar, oliy o‘quv yurtlari zamonaviy usulda jixozlandi, moddiy texnika bazasi bilan ta’minlandi. Ta’lim jarayoni tubdan isloh qilindi. Ta’lim sifat va samaradorligiini oshirish maqsadida “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ta’lim hamda tarbiya birligiga e’tibor berilib, dars jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqidagi masala alohida ko‘rsatilgan.

Biologiya tabiiy fanlarning bir tarmog‘i bo‘lib, insoniyatni borliq, jonli tabiat bilan tanishtiradi. O‘quvchilarni tabiatni sevishi, tabiiy borliqni tushunib yetish, tabiatdan o‘rinli foydalanib, uni e’zozlashga, tabiiy boyliklarni muhofaza qilishga o‘rgatadigan fanlardan biri hisoblanadi. Biologiya darslarida mavzuni boshqa fanlarga bog‘lab o‘tish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi. Sinf o‘quvchilari orasida turli fanlarga qiziquvchi, shu fanni sevuvchi o‘quvchilar topiladi. Biologiya fanidan o‘quvchilarning bilim samarasini oshirishda, ularning fanga qiziqishlarini rivojlantirishda, kasb tanlashlarida matematik va mantiqiy masalalarni o‘rni katta.

Matematik masalalar

5-sinflarda “Kattalashtirib ko‘rsatuvchi asboblar” mavzusini o‘qitishda:

1. Ob’ektivni 10^x , okulyarni 8^xqilib qo‘yilgan mikroskop ostida buyumlar necha marta kattalashtirilgan bo‘ladi?

2. Mikroskop 300 marta kattalashtirib ko‘rsatishi uchun ob’ektiv va okulyarni qanday tanlab qo‘yish mumkin?

1. Bir tup qoraqarag‘ayni hamma ildizlarining uzunligi 2000m bo‘ladi. Qarag‘ayning ildizlari unga nisbatan 6 marta uzun bo‘lsa, qaysi o‘simlik qurg‘oqchilikka ko‘proq chidamli ekanligini toping.

“Barglarda organik moddalarning hosil bo‘lishi” mavzusini o‘qitishda:

1. Yosh tabiatshunoslar bir tup nok daraxtodan 162 ta meva terib oldilar. Agar bir dona nok mevasining pishishi uchun 75 ta bargdan hosil bo‘lgan oziq sarflansa, yig‘ib olingan barcha mevaning pishishi uchun nechta barg ishtirok etganligini aniqlang.

“Barglarning suv bug‘latishi” mavzusini o‘qitishda:

1. Ma’lumki, o‘simliklar oladigan 1000 l suvning faqatgina 2%ini o‘zlashtiradi. Qolgan suvni miqdorini va qanday sarf bo‘lganini aniqlang.

2.Bir tup makkajo‘xori bir yoz davomida 200 l suvni bug‘latsa, 27 tup makkajo‘xori qancha suvni bug‘latadi?

6-sinflarda “Gullarning changlanishi” mavzusini o‘qitishda:

1.Bitta asalari 1g asal yig‘ish uchun oq akatsiya daraxtining 1500 ta guliga qo‘nar ekan. 675 g asal yig‘ish uchun qancha gulga qo‘nadi?

2.Asalari 44568 ta gulga qo‘nganda qancha asal yig‘adi?

“Urug‘larning unib chiqishi” mavzusini o‘qitishda

1.Yosh tabiatshunoslik to‘garagining 5 ta a’zosi bug‘doy o‘simligini unuvchanligini o‘rganish maqsadida har biri 100 donadan bug‘doy urug‘ini undirib ko‘rgan. 1-o‘quvchining urug‘laridan 94 tasi, 2-o‘quvchining urug‘laridan 95 tasi, 3-o‘quvchining urug‘laridan 83 tasi, 4-o‘quvchiniki esa 78 tasi unib chiqqan.

Bug‘doy urug‘ining o‘rtacha unuvchanligini aniqlang.

“Ko‘p hujayrali suv o‘tlar” mavzusini o‘qitishda:

1.Ulotriks suv o‘tining zoosporalarida 4 tadan xivchinlar mavjud. Ulotriksning bitta hujayrasidan hosil bo‘lgan 32 ta zoosporalarda jami nechta xivchin bo‘ladi?

2.Ulotriks suv o‘tining bitta hujayrasidan eng ko‘pi bilan 64 ta izogametalar hosil bo‘lsa, 1472 ta izogameta nechta hujayradan hosil bo‘lganligini aniqlang “Dengiz suvo‘tlari” mavzusida:

1.Ba’zi suvo‘tlarning 1 kg kukunidan 5 g dan 20 g gacha toza yod olinadi. Huddi shunday suvo‘tining 25 kg kukunidan o‘rtacha qancha yod olinishi mumkinligini aniqlang.

“Karamdoshlar oilasi” mavzusida

1.Bir tup jag‘-jag‘ o‘simligida 70000 taga yaqin urug‘ yetiladi. 3640000 dona urug‘ necha tup o‘simlikda hosil bo‘ladi?

Mantiqiy masalalar

1.Qarag‘ayning bitta mevasining pishib yetilishiga 2 yil vaqt sarflansa, 236 ta shunday mevasining pishishi uchun qancha vaqt kerak bo‘ladi?

2.Ma’lumki, silliq tolali muskullar faoliyati odam ixtiyoriga bog‘liq emas. Lekin shunday silliq tolali muskuldan iborat organ borki, uning faoliyati odam ixtiyoriga bog‘liq. U organ qaysi?

3.Jismoniy mashqlarni birdaniga ko‘p bajargan odamning son, boldir, qorin muskullarida og‘riq paydo bo‘ladi. Bunga sabab nima?

4.Qon nega qizil rangda?

5.Nima uchun suv odam hayotida muhim o‘rinni egallaydi?

6.Odam va insonni farqlab bo‘ladimi?

7.R.Guk nima uchun hujayraga aynan “uyacha”, “katakcha” deb nom bergan?

Xulosa qilib aytganda bunday matematik va mantiqiy masalalarni ko‘plab tuzish va ularni biologiya darslarida qo‘llash o‘quvchilarning bilim samaradorligini, fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, eng muhimi o‘quvchilarda hayotiy konpetensiyalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.M.Abdulhayeva, N.S.Yusupova, D.S.Abdulhayeva. Biologiya.T.-“Iqtisodiyot-moliya” 2012 y.

2. F.Bahramov, S.Burxonov, O‘.Xudoyorov. Ming bir boshqotirma. T.-“Sharq”. 2014 y

3. O‘.Pratov, A.S.To‘xtayev, F,O‘.Azimova. Botanika. 6-sinf.T.-“O‘zbekiston”. 2009 y

DARS JARAYONIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Shamsiyeva Nigoraxon Olimjonovna
Namangan viloyati Mingbuloq tumanidagi
38-sonli maktabning tarix fani o‘qituvchisi
Yuldosheva Shahnoza Muhiddinovna
Namangan viloyati Mingbuloq tumani
38-sonli maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7506330

Annotatsiya: Ushbu maqolada dars jarayonlarida qo‘llanadigan didaktik o‘yinlarning ahamiyati, afzalliklari haqida so‘z boradi. Ayrim ta’limiy o‘yinlar haqida nazariy ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: didaktik o‘yinlar, pedagogik mahorat, ko‘nikma, fikr yuritish,ijodkorlik, nutq o‘stirish.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta`lim to`g`risida”gi qonun hozirgi zamon o`qituvchisi oldiga ulkan vazifalar qo`ymoqda. Ulardan biri mustaqil fikrlay oladigan, o`z qarashlariga ega bo`lgan hamda zarur paytda uni himoya qila oladigan mustahkam irodali, har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdir.

Qisqa vaqt mobaynida ma’lum nazariy bilimlarni o‘quvchiga yetkazish unda ayrim faoliyat yuzasidan ko‘nikma, malaka hosil qilish, ma’naviy sifatlarini shakllantirish, shu bilan birga ularni nazorat qilish hamda baholash, o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va chaqqonlik talab etadi.

O‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini, bilimlarini, faolligini oshirishda didaktik o‘yinlarning ahamiyati katta. Didaktik o‘yinlar intelektual, harakatli va aralash o‘yinlarga bo‘linadi. Bular o‘quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy, ma’rifiy, psixologik, estetik, tadbirkorlik, bunyodkorlik, kasbiy ko‘nikmalarni shakllanishiga yordam beradi.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarni erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi.Ular o‘quvchilardagi tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, kuzatish solishtirish, mustaqil qaror qabul qilish, jamoa tarkibida ishlash, nutq o‘stirish, til o‘rganish, bilim olish faoliyatlarini rivojlantiradi.

O‘yinlar ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir.O‘yinlarning ta’limiy ahamiyati shundaki, bolalarda o‘qituvchi tomonidan berilayotgan bilim, ko‘nikma, malakalar o‘yin orqali o‘zlashtiriladi. Bolalarga singdirilayotgan bilim, ko‘nikma, malakalar orqali axloqiylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi sifatlari shakllantiriladi va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ta’limiy o‘yinlarning bir necha

turlari mavjud. Ular grammatik, diduktiv topishmoqli, muammoli o‘yinlardir. Bilish faoliyatini jadallashtirishda ta’lim jarayonini didaktik o‘yin bilan uyg‘unlashtirish samarali natijalar beradi. Didaktik o‘yinlar yangi mavzuni bayon qilish, mustahkamlash, bolalar bilimini sinab ko‘rish va baholash jarayonida qo‘llanilishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarni yakkama-yakka, keyinchalik guruhli o‘yinlarga tayyorlashi, ular muvafaqqiyatli chiqqanidan so‘ng ommaviy o‘yin darslarini o‘tkazishi kerak. Chunki o‘quvchilar didaktik o‘yin darslarida ishtirok etish uchun kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni egallagan bo‘lishlari zarur. Bolaning o‘qituvchini aytganini takrorlab loqayd o‘tirganidan ko‘ra, fikr yuritgani,o‘zini ko‘rsata olgani, mehnat qilgani ma’qul.

Didaktik o‘yinlardan maqsadli ravishda foydalana olish lozim. O‘yinlarning jozibali nomlari o‘quvchilarning diqqatini tortadi, ularni charchatmaydi, darsga nisbatan ijodiy hissiyotlar uyg‘otadi. Ularni dars o‘rtasida, oxirida yoki boshlanishida ham kiritish mumkin, bunda mavzuga o‘yinning maqsadi va xarakterini hisobga olgan holda tanlash lozim.

Dars uchun muayyan bir o‘yin tanlar ekanmiz, quyidagi berilgan o‘yinlardan mosini olishimiz yoki shu kabi o‘yinlarni ijodiy ravishda tashkil etishimiz va qo‘llashimiz mumkin. Masalan:

1. **“BEGONA”** o‘yini. Bunda beshta so‘z bir mavzudan yoki asardan olinib, bitta so‘zbegona mavzu yoki asardan olinadi. Masalan: 5- adabiyot darslarida “Susambil” ertagi qahramonlari “ Eshak”, “Ho‘kiz”, “Xo‘roz”, “Arilar”, “Kalamushlar” so‘zlari ichiga “Echki” so‘zini qo‘shib qo‘yish mumkin. O‘quvchilar mavzu uchun begona so‘zni topib , bu so‘zni qaysi mavzuga bog‘liqligini izohlashlari mumkin.

2. **“Ustunchalar”** o‘yini. Bu o‘yin yaqin o‘tgan mavzularni qayta xotirlash va mustahkamlash , chaqqonlik va tez fikrlay olish qobiliyatlarini o‘stirish uchun qo‘llanuvchi o‘yindir. O‘quvchilar 4 yoki 5 ustundan iborat kichik jadval chizadilar. Ustunchalar nomlanadi. O‘quvchilar har bir ustunchaga mavzuga mos atamalarni yozib chiqadilar. Masalan: 8-sinf O‘zbekiston tarix darslarida ”Buxoro amirligida harbiy ish” mavzusini takrorlashda ham qo‘llash mumkin.

	Qo‘shin tuzilishi	Harbiy mansab va unvonlari	Qurol yarog‘lari
	Qora cherik	Amir	Pilta miltiq
	Navkariya	Amiri harb	To‘pponcha
	Sarboz	Pansodboshi	Uzun nayza
	Navkar	To‘qsoba	Egri qilich
	To‘pchi	Dodxoh	Miltiq
	Yuztalik	Parvonachi	To‘p
	Elliktalik	Naqib	“xitoychi”

	Sarbozxona …	Qozi askar …	Porox

3. **“To‘g‘ri-noto‘g‘ri”** o‘yini. O‘qituvchi o‘tgan mavzular yuzasidan turli ma’lumotlarni to‘g‘ri yoki notog‘ri holda o‘quvchilarga aytadi. O‘quvchilar bu ma’lumotlarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini topishi va qisqa vaqt ichida “To‘g‘ri” yoki “Noto‘g‘ri” javoblaridan birini aytishi kerak bo‘ladi.

4. **“Bo‘lishi mumkin emas”** o‘yini. O‘yin davomida o‘qituvchi matn o‘qiydi.O‘quvchilar bo‘lishi mumkin bo‘lmagan jumla yoki gaplarni topishlari lozim. Hazil mutoyiba bilan o‘tadigan bu o‘yin boladan ziyraklik, sinchkovlik va kuzatuvchanlikni talab qiladi. O‘yin bir necha marta o‘tkazilgandan so‘ng o‘quvchilarga mustaqil ravishda shunday matnlar tuzish topshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish natijasida o‘quvchining erkin faoliyati vujudga keladi, ijodiy muhit tarkib topadi va hamkorlik, o‘zaro yordam jarayonlari amalga oshiriladi, nutqiy ko‘nikmalari rivojlantiriladi. O‘yinlar vositasida o‘quvchilarga yangi bilimlar berish, ko‘nikma hosil qilish, kichik guruhlar a’zolarining ijodiy qobiliyatlariii rag‘batlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pedagogika fanidan izohli lug‘at: Qo‘llanma. Mualliflar: Xasanboyev J, To‘raqulov X, Haydarov M, Xasanboyeva O, Usmanov N. T – 2009

2. Talim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. Mualliflar: Ishmuhammedov R., Yuldashev M.-T., 2013.

3. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari: Qo‘llanma. Mualliflar: Tolipov U.Q, Usmonboyeva.M. Toshkent – 2006

TA’LIMNI JARAYONINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Axmedova Dilnoza
Xorazm viloyati Urganch shahar 16 – maktab o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7515547

Annotatsiya: Maqola boshlang‘ich ta’limni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, buning uchun boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiya berayotgan o‘qituvchi-pedagoglarning zamonaviy bilimva ko‘nikmaga ega bo‘lishlari davr talabi ekanligi haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, ta’lim, moderniyatsiya, fundamental.

Buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak deb keltirib o‘tganidek, biz oldimizdagi maqsadlarga erishish uchun yangi rejalarni belgilab olishimiz talab etiladi. Ma’lumki, uzluksiz ta‘lim tizimining asosiy bog‘in hisoblangan umumta‘lim maktablarning aynan asosiy qismi hisoblangan boshlang‘ich ta‘lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish va bu tizimda o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha yaratilgan darsliklarni, zamon talablari darajasida sifatli ko‘rinishda tayyorlash asosiy vazifamidir. Bu borada mamlakatimizda bir qancha maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. Bola yetti yoshidan maktabda tahsil olish uchun qabul qilinadi va shu yoshda dunyoviy bilimlarni egallab boshlashga jismonan tayyor bo‘ladi.

Maktabgacha ta‘lim muasassalarida yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib kelgan bolalar maktabga kelganda bu ko‘nikmalar yanada chuqurlashtirilib nazariy bilimlar bilan boyitilib, kongnitivlik tushunchalari paydo bo‘ladi. Bunda maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim tizimi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni uzviy yo‘lga qo‘yish masalalariga ham teran yondashuvlar talab qilinadi. Boshlang‘ich ta’lim rivojlangan mamlakatlarning ta’lim tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega. Ko‘pgina davlatlarning ta‘lim tizimini o‘rganish davomida boshlang‘ich ta‘limga alohida o‘ringa ega ekanligi va o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning bilimlarni egallash doirasi kengroq ekanligi aniqlangan. Masalan, bugun Finlandiya tajribasini ta’lim tizimizga

joriy etish bo‘yicha juda ko‘plab amaliy ishlar qilinmoqda. Finlandiyada ta’lim sifatini oshishida o‘qituvchilarning salohiyati muhim hisoblanadi, ya’ni boshlang‘ich sinflarda ta’lim beradigan har bir o‘qituvchi magistraturani tugatgan bo‘lishi, komputer savodxonligidan to‘liq xabardor bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari, boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan asosiy predmentlar bular ona tili, o‘qish va matematika darslaridir. Biz bu darslarning yanada samaradorligini oshirish, fanlarni o‘qitishning ilg‘or texnologiyalarni yanada takomillashtirish maqsadida jahon tajribasida sinalayotgan usullardan tolaqonli foydalanishga erishishimiz zarur. Bulardan biri integratsion ta‘limdir. “Integratsiya – differentsiya jarayonlaridagi fanlarning o‘zara yaqinlashuvi va bog‘liqligida ko‘rinadi. Integratsiya jarayoni fanlararo bog‘liklikning yuqori shaklida namayon bo‘ladi” eng soddasi ma‘lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog‘liqlik boshqa bilimlarga nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta’minlaydi.

Har bir fanda o‘tilayotgan dars mavzusi o‘zining ta‘limiy maqsadidan sheklanmagan holda ingliz tili bilan solishtirish va lug‘at mashqlari o‘quvchining tilni o‘rganishdagi qiyinchiliklarini yengishiga yordam berib, ingliz tili bo‘yicha sovodhonligini oshiradi. Dars davomida fanni ingliz tili bilan bog‘lashda mashq 3-5 daqiqadan ortmasligi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish doirasiga ham ta’sir qilmasligi kerak. Shunung uchun asosan nimalarga e’tibor berish kerak; bular: so‘zlarning A1 darajadaligi, atamalarning o‘qilishi va yozilishining qisqa, tushunarli bo‘lishi va kerakli hajmdan oshmasligi. Buning uchun albatta, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘zlari ingliz tilidan kerakli bilimlarga ega bo‘lishi va kerakli ma’lumotlarni izlab topish uchun o‘z ustida tinimsiz izlanishi lozim. Bu ikkinchi hihatdan o‘qituvchining ingliz tili bo‘yicha lug‘at boyligini oshirib borish uchun ham xizmat qiladi. Ta‘limni modernizatsiyalashda mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda fanlarning o‘zaro ingliz tili bilan bog‘liqlik jihatlarini o‘rganib chiqish, solishtirish asnosida natijalar hosil qilish talab qilinadi.

Demak, boshlang‘ich ta‘limni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish juda muhim hisoblanib, sifat va samadorlikka e’tibor qaratish bilan kafolatlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azbarov Yu.T. Bolalarni sevish san’ati. T.:O‘qituvchi.1991. – 138b.

2. Azizxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. –T.: TDPU. 2000. – B.52.

3. Jumaev M., Yuldasheva M.., Mingbaeva B., Mamatova G., Levkina M.F. Boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitish metodikasi O‘UM. 2017. – B. 21.

4. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.

O‘ZBEKISTON TARIXIDA JADIDCHILIK

Atajonova Iroda Odomboyevna
Abdiyeva Shohista Bahodirovna
Xorazm viloyati Urganch shahridagi 8-son maktabning
tarix fani o‘qituvchilari
https://doi.org/10.5281/zenodo.7515555

Annotatsiya: Mazkur maqolada O’zbekiston tarixining bir qismiga aylangan jadidchilik, ushbu harakat namoyandalari, jadidlar tomonidan amalga oshirilgan ibratli ishlar haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: jadidchilik, ma’rifat, Gaspirinskiy, Behbudiy, yangi usul maktablari, mustaqillik, Turkiston muxtoriyati, renessans.

So‘nggi yillarda bot-bot tilga olinayotgan “Yangi O‘zbekiston”, “Uchinchi Renessans” kabi iboralar bugun mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilayotganidan dalolat bermoqda. Bundan 120-130 yilcha muqaddam yurtimiz hayotida sodir bo‘lgan murakkab, shu bilan birga, o‘ta shiddatli va ziddiyatli voqealarga boy kechgan davrni yodga solmoqda. Darvoqe, XIX asr oxiri va XX asr boshida Sharq mamlakatlari bo‘ylab yoyilgan islohotchilik harakati chor Rossiyasi tobeligidagi Turkiston o‘lkasiga ham kirib keldi. U tarix sahifalariga “jadidchilik”, vakillari esa “jadidlar” nomi bilan muhrlandi. O‘zbekiston istiqlolga erishgan 1991-yildan hozirga qadar olib borilgan ilmiy tadqiqotlar-u yozilgan talay maqolalarda jadidchilikning tub mohiyati turlicha tadqiq va tahlil qilindi, ko‘lami va jamiyatga ta’siri hamda uni rivojlantirgan shaxslarning hayoti va ijodi baholi qudrat yoritildi. Ammo bu masalalar hanuz to‘la-to‘kis ochib berilmadi. Zero, jadidchilik harakati hamda jadidlar faoliyatini bugungi kunda o‘rganish va targ‘ib qilish havoday zarur. Biz Uchinchi Renessansni strategik vazifa hisoblab, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqchi bo‘lsak, jadidlarimiz ta’kidlashganidek, har kim o‘zgarishi va o‘zgarishni o‘zidan boshlashi kerak.

XIX asr oxiri- XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jixatdan inqiroz xolatiga tushib qolgan mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo‘lgan o‘lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o‘z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo‘l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko‘rdi. Bu borada jadidchilik xarakati katta rol o‘ynadi. Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik harakat bo‘lib, u o‘sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma‘rifatlashtirish, jamiyat xayotida ijtimoiy va madaniy isloxotlar o‘tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g‘oyalarini hayotga tadbiq etish

maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan edi. Turkistonda jadidchilik g‘oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu xarakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o‘lka ijtimoiy-siyosiy xayotida muxim rol o‘ynadi. Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik harakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmoqda:

1) XIX asr oxirlaridan 1915 yilgacha-ma‘rifatchilik;

2) 1915 yildan – 1918 yil fevraligacha-muxtoriyatchilik;

3) 1918 yil fevralidan - 20-yillar oxirlarigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyati.

Jadidchilik Rossiyaga qaram bo‘lgan musulmon xalqlari orasida dastlab Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo‘ldi. Uning asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gasprali (1851-1914) bo‘ldi. Ismoilbek 1884 yilda jadid maktabi tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqaradi. Uning o‘qitish usuli “usuli savtiya”, ya‘ni “yangi usul” nomi bilan shuxrat qozondi. “Jadid” arabcha so‘z bo‘lib, “yangi” degan ma‘noni bildiradi. Ismoilbek g‘oyalarini qabul qilgan yangilik tarafdorlari “jadidlar”, uning g‘oyalari esa “jadidchilik” nomini oldi. Ismoilbek Gasprali darslik yaratadi, o‘zining “Tarjimon” (1883-1914) gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ‘ib qiladi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaxarlarga xam tez yoyiladi. I. Gasprali 1893 yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo‘ldi. Buxoroda amir Abdulaxadni jadid maktabi ochishga ko‘ndiradi. Bu maktabga “Muzaffariya” nomi beriladi. 1898 yilda To‘qmoqda xam shunday maktab ochildi. 1899 yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901 yilda Qo‘qonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo‘lib jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik xarakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar xam yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval” (1903), Munavvarqorining “Adibi avval” (1907), Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” (1912) darsliklari aloxida e‘tiborga molikdir.

Jadidlarning xalq ma‘rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo‘nalishdan iborat bo‘lgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish.

2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish.

3. Turli ma‘rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Shu dasturni amalga oshirish borasida Mahmudxo‘ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko‘rsatishdi. Yangicha o‘qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta‘lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko‘ra maktablarda o‘qitish tizimi ikki bosqichdan

iborat bo‘lgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning taxsil muddati 4 yil bo‘lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o‘qigandan ko‘ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forscha, turkiy tilda bemalol so‘zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar.

Jadidlarning xalqaro aloqalari juda keng qamrovli bo‘lgan. Ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo‘lganlar, o‘zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar. 1905-1906-yilgi Rossiyadagi inqilobiy harakatlar Turkistonga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Faol kuchlar jipslasha boshladilar va jadidlar ma‘rifatchilik faoliyatini jadallashtirdilar. Bu faqatgina maktablarda emas, balki jonli matbuotchilik faoliyati, jumladan, ro‘znomalarning ko‘plab vujudga kelishida xam ko‘rindi. Chunonchi, 1906-yilda Ismoil Obidovning muharrirligida “Taraqqiy”, shu yili Munavvarqori muharrirligida “Xurshid”, 1907-1908 yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida “Shuhrat”, Axmadjon Bektemirov muharrirligida “Osiyo” ro‘znomalari chop etildi. Ma‘rifatchilikning yangi to‘lqinida 1913-1915 yillarda “Samarqand”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona”, “Buxoroi sharif”, “Turon”, 191- yilda esa “El bayrog‘i”, “Kengash”, “Xurriyat”, “Ulug‘ Turkiston” gazetalari, “Oyina” jurnali kabi ommaviy axborot vositalari xam paydo bo‘ldi

Shavkat Mirziyoyev to‘g‘ri ta’riflaganidek, jadidlar “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas” degan hadisi sharifni hayotiy e’tiqod deb bildilar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma’rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarni chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy bu borada safdoshlari va izdoshlariga ibrat ko‘rsatdi.

Xulosa o’rnida shuni aytish lozimki, jadidchilik harakati va jadidlar zamonaviy o‘zbek jamiyati va davlatchiligi shakllanishiga katta hissa qo‘shdilar. Ularning boy ilmiy va ijodiy merosi bugungi murakkab davrda O‘zbekistonda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda, o‘z mustaqil fikriga ega hamda fidoyi va vatanparvar avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho‘lponlarning g‘oyaviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zaynobiddin Abdurashidov. Kelajakni bashorat qilgan jadidlar “Ishonch” gazetasi 2021-yil 8-dekabr, 149-150-son.

2. Qosimov B."Milliy uyg'onish", T.,"Sharq".

3. Qosimov B. Milliy uyg‘onish – jasorat, marifat, fidoiylik. Toshkent. “Ma’naviyat” 2002.

4. Achilov B. Jadidlarning maqsadi, haqiqiy yutuqlari va zamonaviylik. Tarjumon.uz, 2019.

CLASSROOM MANAGEMENT

Axmedova Sharofat Kuronbayevna
Raxmonqulova Marxabo Melibekovna
EL teachers, School № 8, Urgench city, Khorezm region.
https://doi.org/10.5281/zenodo.7515564

Annotation: The following article is concerning the role of classroom management while teaching and its importance in developing both teachers` proficiency and learners` knowledge during the lesson. This piece of writing also provides some useful and effective strategies to manage the classroom proactively.

Key words: classroom management, model ideal behaviour, offer praise, encourage initiative.

Currently the government is mostly focusing its whole attention on the education at schools, colleges, lyceums and other institutions. In teaching process crucial thing that is considered to be vital is classroom management. Classroom management is a term teachers use to describe the process of ensuring that classroom lessons run smoothly without disruptive behaviour from students compromising the delivery of instruction. The term also implies the prevention of disruptive behavior preemptively, as well as effectively responding to it after it happens. It is a difficult aspect of teaching for many teachers. Problems in this area cause some to leave teaching. In 1981, the US National Educational Association reported that 36% of teachers said they would probably not go into teaching if they had to decide again. A major reason was negative student attitudes and discipline.

Classroom management is crucial in classrooms because it supports the proper execution of curriculum development, developing best teaching practices, and putting them into action. Classroom management can be explained as the actions and directions that teachers use to create a successful learning environment; indeed, having a positive impact on students achieving given learning requirements and goals. In an effort to ensure all students receive the best education it would seem beneficial for educator programs to spend more time and effort in ensuring educators and instructors are well versed in classroom management. Also, research from Berliner and Brophy & Good shows that the time a teacher must take to correct misbehavior caused by poor classroom management skills results in a lower rate of academic engagement in the classroom. From the student's perspective, effective classroom management involves clear communication of behavioral and academic expectations as well as a cooperative learning environment. So, there are given some effective universal classroom management strategies below to control the class

during the lesson, to improve and enhance teaching and to develop students` activeness.

1. **Model ideal behavior** - make a habit of demonstrating behavior you want to see, as many studies show that modeling effectively teaches students how to act in different situations. A straightforward way to model certain behaviors is holding a mock conversation with an admin, other teacher or student helper in front of the class. Talking about a test or other relatable topic is sure to:

- Use polite language
- Maintain eye contact
- Keep phones in your pockets
- Let one another speak uninterrupted
- Raise concerns about one another’s statements in a respectful manner

2. **Let students help establish guidelines** - encourage all students to help you build classroom rules, as you’ll generate more buy-in than just telling them what they’re not allowed to do. Near the start of the year or semester, start a discussion by asking students what they believe should and shouldn’t fly. At what points are phones okay and not okay? What are acceptable noise levels during lessons? This may seem like you’re setting yourself up for failure, but — depending on the makeup of you class —

you may be shocked at the strictness of some proposed rules. Regardless, having a discussion should lead to mutually-understood and -respected expectations.

3. Document rules - don’t let your mutually-respected guidelines go forgotten. Similar to handing out a syllabus, print and distribute the list of rules that the class discussion generated. Then, go through the list with your students. Doing this emphasizes the fact that you respect their ideas and intend to adhere to them. And when a student breaks a rule, it’ll be easy for you to point to this document. If you’re feeling creative, you can include the rule list in a student handbook with important dates, events and curriculum information.

4. Avoid punishing the class - address isolated behavior issues instead of punishing an entire class, as the latter can hurt your relationships with students who are on-task and thereby jeopardize other classroom management efforts. Instead, call out specific students in a friendly manner. For example:

- “Do you have a question?”, not “Stop talking and disrupting other students”
- “Do you need help focusing?”, not “Pay attention and stop fooling around while I’m talking”

This basic approach will allow you to keep a friendly disposition, while immediately acknowledging poor behavior.

5. Encourage initiative - promote growth mindset, and inject variety into your lessons, by allowing students to work ahead and deliver short presentations to share take-away points. Almost inevitably, you’ll have some eager learners in your classroom.

You can simply ask them if they’d like to get ahead from time-to-time. For example, if you’re reading a specific chapter in a textbook, propose that they read the following one too. When they deliver their subsequent presentations to preview the next chapter on your behalf, you may find that other students want a bit more work as well.

6. Offer praise - praise students for jobs well done, as doing so improves academic and behavioral performance, according to a recent research review and study. When it is sincere and references specific examples of effort or accomplishment, praise can:

- Inspire the class
- Improve a student’s self-esteem
- Reinforce rules and values you want to see

Perhaps more importantly, it encourages students to repeat positive behavior. Let’s say a student exemplifies advanced problem-solving skills when tackling a math word problem. Praising his or her use of specific tactics should go a long way in ensuring he or she continues to use these tactics. Not to mention, you’ll motivate other students to do the same.

References:

1. Soheili, Alizadeh, Murphy, Bajestani, Ferguson. Teachers as Leaders: Classroom Management Techniques, 2015

2. Berliner, Brophy & Good. Classroom management, 1986-1988

3. H. Korpershoek, Harms, Boer, Mechteld. Effective classroom management strategies and classroom management programs for educational practice, 2014

4. Dr Barry S. Parsonson, Evidence-based Classroom Behaviour Management Strategies, 2012

IMPLEMENTING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING READING COMPREHENSION OF EFL LEARNERS

Raximova Dinora Maxmudovna
Ataxanova Gullola Anvar qizi
EL teachers, School № 8, Urgench city, Khorezm region.
https://doi.org/10.5281/zenodo.7515574

Annotation: The aim of this study was to investigate the effect of authentic-based and non-authentic-based materials on improving reading comprehension of the Uzbek intermediate EFL learners. The data analysis and the results of this research revealed authentic group acted noticeably on the improvement of reading comprehension of the learners.

Keywords: Authentic-Based Materials, Non-Authentic-Based Materials, Reading Comprehension.

In Uzbek educational system, the EFL learners' reading achievements are relatively poor. The learners have many problems in understanding the meaning some words in the text that they do not understand the meaning of the text. For that reason, they become demotivated to read an English text. According to the problem, the study is going to focus on the importance of authentic materials on the Uzbek EFL learners' reading achievements. As the scientist Mousavi told, over the past three decades, authentic-based materials were used in EFL classes as a result of the spread of the communicative approach.

Martinez defines authentic-based materials as the materials which are prepared for native speakers and not designed to be used for teaching purposes. Nuttall commented that authentic-based materials can be motivating because they are proof that the language is used for real-life purpose by real people. The difference is not in the language materials themselves but rather on their outcomes and their effectiveness. In this regard, “it has been traditionally supposed that the language presented to learners should be simplified in some way for easy access and acquisition, nowadays there are recommendations that the language presented should be authentic”. In contrast, Miller state that non-authentic materials are those materials that are specially designed for learning purpose and the language used in them is artificial with well- formed sentence all the time which is useful for teaching grammar. Course book, textbook, and student work sheets are good instances of non-authentic materials.

Many studies have focused on the authentic-based materials and their effects on different parts of English language which some of them are mentioned in the next

section but to the best researcher's knowledge, no research studies have been worked on the comparison of authentic-based materials and non-authentic-based materials on reading comprehension. To fill the gap, the present study was going to explore the effect of authentic-based materials versus non-authentic-based materials on the Uzbek intermediate EFL learners' reading comprehension performance.

Reading skill may be significant in our country where English is taught as a foreign language because our students need this skill to continue in their academic education. This important skill can be improved by the use of authentic-based and non-authentic-based materials but it is not clear which one of the materials will be more effective in developing reading comprehension. For that reason, the present study tried to reveal the effectiveness of authentic materials in comparison of non-authentic materials in improving reading comprehension performance.

Most of reading materials in Uzbek educational system are non-authentic-based materials which are designed for educational purposes (e.g., English course books for secondary schools and high schools). Possibly, it may prevent most of the EFL learners to be able to use the language communicatively. In order to overcome the problem, the researcher tried to disclose the advantages of authentic-based materials in improving the EFL learners to use language communicatively. EFL Learners often have difficulties learning English without appropriate learning materials. In practice, reading texts are designed either too difficult or too easy for the learners. Without appropriate reading texts that suit the learners, language learners cannot improve their performance in reading skill. Appropriate reading texts refer to those reading texts which are compatible with students' language proficiency.

The role of reading comprehension ability has long been neglected, but currently, it is again receiving attention in the language teaching curriculum. Reading has been the focus of varied and versatile research, e.g., the acquisition of vocabulary in terms of frequency and saliency reading processes, strategies, the nature of reading difficulties and abilities in second language learning. Skimming is defined as to look at a text or a chapter quickly in order to get a general opinion on the contents. It requires a greater degree of reading and word recognition skills as it includes a more thorough understanding of the text.

Considering the results obtained from the analysis of the related data, it can be argued that the authentic-based materials used in teaching reading in our setting were effective in the authentic group. The authentic reading comprehension passages were interesting for the language learners. After reading authentic texts, students became more motivated to read about their own favorite topics and new things. Social reasons for reading, is another domain of motivation which had an increase. It affirms the fact that readers not only read the texts for themselves, but also have motivation to deliver the new information they got from the texts to other people. Here, the focus of

reading is on the content in which readers make an interaction with the text, and not on the linguistic features of the text. Last but not least, language learners worked in groups in the authentic group through, sharing opinions could perform effectively in reading comprehending.

Bibliography:

1. Coroline Krants and Julie Norton. Navigate.
2. www.etprofessional.com. Reading strateigies. Skimming and scanning.
3. Bensoussan, M and Laurer, B (1984). Lexical guessing in context in EFL reading comprehension . Journal of research in reading.

“ASSESMENT” VA “CHARXPALAK” METODLARINING QO‘LLANILISHI

Babajanova Linora Aybekovna
Xorazm viloyati Urganch shahridagi 8-son maktabning
o’zbek tili o’qituvchisi
O'razmetova Kamola Rajabboyevna
Xorazm viloyati Urganch shahridagi 8-son maktabning
o’zbek tili fani o’qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7515581

Annotatsiya: Mazkur maqolada dars jarayonida interfaol metodlarning ahamiyati hamda ona tili, adabiyot va o’zbek darslarida qo’llaniladigan “Assesment” va “Charxpalak” metodlari haqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: ona tili, adabiyot, o’zbek tili, metod, so’z, interfaol, “Assesment” va “Charxpalak” metodlari.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o’qitishning zamonaviy metodlari keng qo’llanilmoqda. O’qitishning zamonaviy metodlarini qo’llash o’qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish darajasi o’sishiga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko’p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo’llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko’p bo’lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo’llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to’g’ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag’batlantirib turilishi, o’quv materialini kichik-kichik bo’laklarga bo’lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo’naltiruvchi matn, loyiha, rolli o’yinlar kabi metodlarni qo’llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o’zaro muloqotda, o’zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o’quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o’rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O’qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o’quv muassasasining o’quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o’qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi. Bu metodlardan ona tili va adabiyot darslarida foydalanish o’qitish mazmunini yaxshi o’zlashtirishga olib keladi. O’z vaqtida o’qituvchi va o’quvchi o’rtasida samimiy aloqalar o’rnatiladi.

Shunday ekan, har bir fan o’qituvchilari qatori ona tili va adabiyot fani o’qituvchilaridan ham darslarni interfaol metodlarni qo’llagan holda qiziqarli qilib o’tish talab qilinadi. Quyida **“Assesment”** va **“Charxpalak”** metodlari va ularning dars jarayonida qo’llanilishi haqida kengroq to’xtalamiz.

“Assesment” inglizcha “assessment” so’zidan olingan bo’lib, “baho”, “baholash” ma’nolarini bildiradi. Assesment metodi talabalarning bilim, ko’nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta’minlovchi topshiriqlar to’plami bo’lib, u biografik anketa, ta’lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o’quv individual topshirig’i, bahs- munozara, intervyu, ijodiy ish, test, individul keys, taqdimot, ekspert kuzatishi, rolli hamda ishbilarmonlik o’yinlari kabilardan tashkil topadi. Bu metod asosan quyidagi **uch maqsadga** xizmat qiladi:

talabalarning bilim, ko’nikma va malakalarini har tomonlama, xolis baholash;

talabalarning bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;

talabalarning bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan istiqbol reja (maqsadli dastur)ni shakllantirish.

Mazkur texnologiyaning yaratilish tarixi o’tgan asrning 30-40- yillariga borib taqaladi. Dastlab texnologiya mavjud harbiy vaziyatlarni to’g’ri baholay oladigan, harbiy harakatlar jarayonini samarali boshqaradigan, zarur o’rinlarda oqilona harakatni tashkil eta oladigan ingliz hamda nemis harbiylari orasidan bilimdon, tadbirkor, mahoratli harbiylar, shuningdek, ofitserlarni tanlash maqsadida qo’llanilgan. Keyinchalik bu metod tadbirkorlik sohasiga ham samarali tatbiq etildi. Metodni birinchi marta 1954-yilda “AT&T” kompaniyasi tomonidan tadqiqot dasturlarini amalga oshirish doirasida qo’llanilgan.

To’rt yildan so’ng malakali menejerlarni tanlash maqsadida qo’llanila boshlangan ushbu metod negizida tadbirkorlar va psixologlar bilan hamkorlikda mazkur texnologiya yordamida ishlab chiqarish, savdo, maishiy xizmat ko’rsatish korxonalari hamda tashkilotlar uchun malakali mutaxassislarni tanlash xizmati – “Assesment-markaz” (“The Assessment Centre”) faoliyati yo’lga qo’yildi.

1960 yilda “IBM”, “Standart oyl of Ogayo”, “Sirs Robaks” kabi yirik Amerika kompaniyalari o’z faoliyatlariga bu texnologiyani samarali tatbiq etdilar. Agar 1980 yilda 2000 ta firma “Assesment-markaz” asosida malakali mutaxassislarni tanlashni ma’kul ko’rgan bo’lsa, hozir bu texnologiyadan o’n minglab korxona, tashkilot, firma va kompaniyalarda samarali qo’llanilmoqda.

Ayni vaqtda ishlab chiqaruvchi va savdo kompaniyalari malakali menejerlarni tanlash maqsadida mazkur texnologiyadan muvaffaqiyatli foydalanmoqdalar. So’nggi yillarda mazkur texnologiya ta’lim tizimiga ham samarali joriy etildi. Uning yordamida talabalarning bilim, ko’nikma va malakalari darajasi har tomonlama, xolis baholanmoqda.

Metodning qo’llanishi. “Assesment” metodi o’quv mashg’ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanish yoki dars oxirida yoki o’quv predmetning biron-bir bo’limi tugallanganida) o’tilgan mavzuni o’zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o’tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin ta’lim oluvchilarning bilimlarini tekshirib olish, malaka oshirishga kelgan tinglovchilarning dastlabki bilimlari, ko’nikma, malakalarini aniqlab olish uchun mo’ljallangan.

Ushbu metodni mashg’ulot jarayonida yoki mashg’ulotning bir qismida hamda yakka tartibda qo’llash mumkin. Bu metoddan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo’ladi.

NAMUNA:

So’z turkumlari haqida ma’lumot bering.	Mustaqil so’z turkumlari nechta? A) 6 C) 9 B) 7 D) 8
Son _____ so’roqlariga javob bo’lib, narsa-buyumning sanog’ini bildiradi..	***Sifat***

Dars jarayonida keng qo’llaniladigan metodlardan yana biri bu “Charxpalak” metodidir. **“Charxpalak”** metodidan yangi mavzuni o’rganishda hamda o’tilgan mavzularni takrorlashda foydalanish mumkin. O’tkazilish tartibi quyidagicha:

Birinchi bosqich: o’quvchilar 5-7 kishidan iborat guruhlarga bo’linadilar. Har bir guruhga bugungi mavzu yuzasidan alohida matn yozilgan tarqatma beriladi. Guruh a’zolari 5 daqiqa vaqt ichida ushbu matn yuzasidan taqdimot tayyorlaydilar.

Ikkinchi bosqich: har bir guruhga 1 ta flipchart va 1 dona marker beriladi (har bir guruh markerining rangi alohida bo’lishi shart). Flipchartda guruhlar taqdimot tayyorlagan mavzuning nomi yozilgan bo’ladi. (masalan, bugun A.Qahhorning ijodi o’rganilayotgan bo’lsa, har bir guruhga uning hayot yo’lining qaysidir qirrasi mavzu qilinib, matn holida 1-bosqichda guruhlarga berilgan bo’lib, ular aynan shu mavzu bo’yicha taqdimot tayyorlagan bo’ladilar. 1-guruhga “Abdulla Qahhorning bolalik yillari”, 2-guruhga “A.Qahhor ijodining ilk bosqichi”, 3-guruhga “A.Qahhorning asarlari” kabi). Flipchartlar “Charxpalak” singari har ikki daqiqada guruhlar bo’ylab sayr qiladi. Bu vaqt ichida guruh a’zolari taqdimot vaqtida eslab qolgan ma’lumotlarini hamkorlikda eslab flipchartga yozadilar. Bir flipchart barcha guruhlarga tashrif buyurib bo’lgach, skoch bilan doskaga yopishtiriladi. Barcha guruhning flipcharti doskaga yopishtirilib bo’lingach, o’qituvchi tomonidan yoki har bir guruhadan bir taqdimotchi chiqib, ma’lumotlar taqdim qilinadi va o’qituvchi tomonidan xulosalanadi (har bir guruhga alohida rangli marker berilishining ahamiyati shundaki, flipchartlar doskaga yopishtirilgach, qaysi guruh a’zolari ko’proq va aniqroq ma’lumot o’rganganligi ko’rinib qoladi). Guruh ishlari, yozilgan to’g’ri ma’lumotlariga qarab baholanadi.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, “Assesment” va “Charxpalak” metodlarini ona tili va adabiyot, shuningdek, o’zbek tili darslarida qo’llash o’quvchilarning fanga bo’lgan qiziqishlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Yo’ldoshev, R.Xusainova, U.Bobojonova. Ta’limning interfaol metodlari (metodik qo’llanma). Urganch-2011.

2. G’. Yo’ldoshev, S.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent-2004.

3. Sobirova M.R. O’zbek tili darslarida interfaol usullardan foydalanish. Молодой ученый. – 2020. - № 14 (304).

4. www.ziyo.uz.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY AXLOQIY TARBIYALASHNING MAZMUNI Axmedov Denis Viktorovich Boltayeva Shahnoza Qadam qizi	4
2.	UMUMMILLIY BOYLIKLAR DAVLAT MUHOFAZASIDA Nazarov Elbek Alimovich Ne’matov Nursulton Shavkat o‘g‘li	10
3.	TEACHING THE SCIENCE OF "INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION" IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ON THE BASIS OF SMART TECHNOLOGIES Ўринбоев Зокир Мавлонович Махмудова Д.М	13
4.	ЯККА ТАНЛАШ УСУЛИ БИЛАН ХЎРАКИ НЎХОТНИНГ ЛИНИЯЛАРНИ ЎРГАНИШДАГИ АДАБИЁТЛАРНИНГ ЎРНИ Т.А. Рахимов З.З. Зокиров	20
5.	EFFECTIVE ORGANIZATION OF YOUTH LEISURE IN THE MODERN WORLD Muyassar Asadullayevna Gofurova	24
6.	O‘ZBEK JURNALISTIKASINI RIVOJLANISH BOSQICHLARI Abduqodirov Shahboz Qobul o‘g‘li	27
7.	CHET TILLARINI O'QITISHDA MADANIYATLARARO MULOQOTNI RIVOJLANTIRISH Yusupova Oygul G‘ofurjon qizi Qodirova Xaticha Po‘latboyevna	33
8.	BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING MANTIQIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH Sirojiddinova Odina Xakimova Mohira	38
9.	ALISHER NAVOIY IJODIDA SO‘Z SEHRI VA TIL JOZIBASI Ermatova Ma’rifat Ahmadjonovna	42
10.	ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH ASOSLARI Saparboyeva Nasiba Baltaboyevna Eshchanova Hamida Xudoyorovna	46
11.	TARIXIY ASARLARDA AYOLLAR OBRAZI TALQINI Hasanova Hulkaroy Raximova	49
12.	O‘ZBEK ADABIY TILI DARAJALANISHINING LEKSIK ASOSINI YARATISH ZARURATI Irisqulova Dilfuza Kamalovna	53
13.	TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN DARS JARAYONIDA FOYDALANISH ASOSLARI Rahmonqulova Nargiza Erkinovna	56
14.	TA’LIM SIFATI: ISLOHOTLAR, MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLARI HAQIDA FIKR VA MULOHAZALAR Hakimova Gulnoza Shakirovna	60
15.	URUSHNING SO‘NGI QURBONI Tashbekova Dilobar Hasan qizi	64
16.	NEMIS TILI DARSLARIDA MUAMMOLI O‘QITISHNI TASHKIL ETISH Yusupova Saida G'opurjon qizi Sobirova Hurriyat	67

17.	TARIX KELAJAK KO‘ZGUSI Raxmatullayeva Shahribonu Shavkatovna	70
18.	TARIXIY XOTIRASIZ KELAJAK YO‘Q Eshmurzayeva Gavhar Elhom qizi	74
19.	TARIX SABOQLARI VA TARAQQIYOTNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI Suyarova Zumrad Abdurashidovna	79
20.	Муртазаева Мунира Бадриддиновна СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА ПЛЕТЕНИЯ "УМНЫХ" ТКАНЕЙ НА СОВРЕМЕННЫХ ТКАЦКИХ СТАНКАХ	83
21.	АМИР ТЕМУР ТАРИХИ БЎЙИЧА УНГА ЗАМОНДОШ БЎЛГАН МУАРРИХЛАР МАБАЛАРИНИНГ АХАМИЯТИ Исломов Сарвар Аваз ўғли	90
22.	KUBRAVIYA TARIQATI AXLOQIY QOIDALARINING YOSHLAR TARBIYASIDAAGI AHAMIYATI Mavzurov Nurali Shuhrat o'g'li Nematov Azizbek Asliddin o'g'li Samatov Xurshid O‘lmasjonovich	96
23.	QADIMGI DAVRDA QURILGAN TARIXIY-MADANIY QO‘RG‘ONLAR VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Ismailova Nilufar Baxramovna Salamat Sulaymanov	101
24.	САИД АҲМАДНИНГ ЗАМОНДОШЛАРИ ҲАҚИДАГИ ХОТИРАЛАРИ Нарзуллоева Нилуфар Сайфуллоевна	104
25.	O‘ZBEK XALQ MILLIY O‘YINLARDAN “LANKA”O‘YINI HAQIDA Allayev Shuxrat Tohirovich	113
26.	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARI Abdazov Sultonbek Uktamjonovich	116
27.	SPORT TURIZMI ORQALI O‘SMIRLARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI Abdunazorova Zarifa Abdurasul qizi	119
28.	INDEN MOLEKULASIDA ELEKTRON BULUTI VA ZARYAD TAQSIMOTI Dadaxanova Gulnoza Axmadjonovna Egamberdiyeva Rohatoy Mamajonovna	123
29.	КИТОБХОНЛИК ТАРИХИГА БИР НАЗАР Ўктамжонова Хафизахон Набижон қизи	127
30.	AZOTLI GETEROTSIKLLAR SINTEZIDA ALKINLAR INTERNAL VA TERMINAL TUZILISHINING AHAMIYATI Egamberdiyeva Rohatoy Mamajonovna Dadaxanova Gulnoza Axmadjonovna	130
31.	BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA MATEMATIK VA MANTIQIY MASALALARNING AHAMIYATI Rasulova Shohista Madamin qizi I.Sarimsoqov	134
32.	DARS JARAYONIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI Shamsiyeva Nigoraxon Olimjonovna, Yuldosheva Shahnoza Muhiddinovna	137
33.	TA’LIMNI JARAYONINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH Axmedova Dilnoza	140
34.	O‘ZBEKISTON TARIXIDA JADIDCHILIK Abdiyeva Shohista Bahodirovna	143

	Atajonova Iroda Odomboyevna	
35.	CLASSROOM MANAGEMENT Axmedova Sharofat Kuronbayevna Raxmonqulova Marxabo Melibekovna	146
36.	IMPLEMENTING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING READING COMPREHENSION OF EFL LEARNERS Raximova Dinora Maxmudovna Ataxanova Gullola Anvar qizi	149
37.	“ASSESMENT” VA “CHARXPALAK” METODLARINING QO‘LLANILISHI Babajanova Linora Aybekovna O'razmetova Kamola Rajabboyevna	152

Eslatma! “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir

Abdumannonov Islomjon Ikromjon o‘g‘li

Mas’ul muharrir

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li

Nashrga tayyorlovchi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

“Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 2022-yil. 159 bet.
© Talqin va tadqiqotlar, 2022
© Mualliflar jamoasi, 2022